



YURIY NAGIBIN

---

SHOHCHORBOQ  
TONGI

HIKOYLAR

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**YURIY NAGIBIN**

# **SHOHCHORBOG‘ TONGI**

*Hikoyalar to‘plami*



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
**2020**

UO'K: 821.161.1-31

KBK 84(2Ros)

N 15

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Nurboy Jabborov, Dilmurod Quronov,  
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Aziz kitobxon! Qo'lingizdagи „Shohchorbog‘ tongi“ hikoyalari  
to'plamidan turli mavzularda, turli uslublarda, bir-biridan mahoratli  
adiblar tomonidan yozilgan ijod namunalari joy olgan. O'ylaymizki,  
kitob sizga ma'qul bo'ladi.

ISBN 978-9943-6342-9-9

© Xayriddin Sultonov va b. (tarj.).  
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOT DAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrat bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyatni, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyatni, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariiga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarları bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasiniz izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyatni, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, itilyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O. de Balzak, A.P.Chekhov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrasha-yotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimi, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rinn olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarini tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlар oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagijuz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

---

*Vasiliy SHUKSHIN*  
(*Rossiya*)

## **GRINKA MALYUGIN**

Hamqishloqlarining yakdil fikricha, Grinka g‘o‘rroq, dovdirroq odam.

U qo‘llari uzun, to‘mtoq burun, ot yuzli, baquvvat bir yigit. Yurganda atrofga beparvo, muloyim nazar tashlab, ohista, orqa-oldiga tebranib qadam bosardi. Qizlar uni yoqtirishardi. Mana shunisi jumboq edi. Bitta aqllirog‘i fahmlab qoldi: unga achinishadi. Grinkaga bu xush yoqardi.

– Menga hamma achinadi! – derdi u kayf ustida kat-takon mushti bilan ko‘ksiga urib va shu asnoda „Axir, mening to‘qqizta ordenim bor-a!“ degandek tikilib qolardi.

Grinka yaxshi ishlar, ammo xurmacha qiliqlarini ham qo‘ymas edi. Masalan, unga har qancha pul berib, har qancha aldab-avralsa ham, yakshanbada ishlatib bo‘lmassi. Osmon uzilib yerga tushsayam, qiyomat qoyim bo‘lsayam, u yakshanba kuni qora duxoba shimini, ha-shamdar nimchasini kiyar, peshonasidagi bir tutam sochi-ni ho‘llab, hafsala bilan o‘ng tomonga silliqlab tarar va qishloq oralab shunchaki „darveshlik“ qilib yuraverar edi.

– Uylansang bo‘larmidi, so‘tak, – maslahat berardi onasi.

– O‘ttizga kirvolay, ana o‘shanda uylanarman, – deya javob qilardi Grinka.

Grinkaga „buqacha“, „so‘tak“, „bashara“ deya tegajoq-lik qilib zavqlanishardi. Bular Grinkaga qandaydir juda mos tushardi.

Bir kuni Grinka shunday voqeani boshidan kechirdi.

U shaharga sovxozi uchun yoqilg'i olib kelishga bora-di. Shaharda tanishinikida to'xtaydi, mashinasini to'siqdan o'tkazib qo'yib, divanda miriqib uxlaydi, soat to'qqizlar-da turib, nonushta qiladi va tog' ortida, shahardan o'n yet-ti kilometr narida joylashgan markaziy benzin omboriga jo'naydi.

Kun so'niq va iliq edi. Yo'llar yomg'irdan so'ng ko'pchib ketgan, g'ildiraklar bir joyda aylanib qolar edi. Omborxonaga yetguncha ancha tinkasi quridi.

Grinka avtomashinalarning uzun qatoriga kelib qo'shil-di va sekin-asta oldinga siljiy boshladi.

Faqat uch soatdan keyingina mashinasini tomonga ben-zin quylgan bochkalarini yumalatishdi.

Grinka idoraga yaqinlashib, mashinasini boshqalarniki bilan yonma-yon qo'ygach, hujjatlarini rasmiylashtirgani ketdi.

Ana shunda – bu qanday ro'y berdi, nega – keyinchalik hech kim aytolmadi, pastakkina idora birdan yop-yorug' shu'ladan yorishib ketdi.

Idorada oltita haydovchi, stolda o'tirgan ikki qiz va ko'zoynakli yo'g'on kishi (u ham stolda o'tiruvdi) bor edi. O'sha kishi qog'ozlarni rasmiylashtirayotgandi.

Shu'la qo'qqisdan yaraqladi. Hamma bir daqqa gan-gib qoldi. Jimlik cho'kdi. Sukunatni kimningdir ko'chan-dan eshitilgan o'tkir chinqirig'i buzdi:

– Yong'in!

Idoradagilar jiz-biz bo'lib ketdi.

Bitta mashinadagi bochkalarga o't ketgandi. O't qan-daydir bir vahimali, sassiz, yorqin alanga bilan yonardi. Odamlar mashinadan chetga qocha boshladilar.

Grinka ham ularga qo'shilib yugurib ketdi. Faqat

yo'g'on kishigina (o'sha, hujjalarni rasmiylashtirayotgan kishi) ozgina yurib, to'xtab qoldi.

– Brezent beringlar! He-y! – deb baqirdi u. – Qayoqqa ketyapsizlar?! Ulguramiz-ku axir!.. He-y!

– Qochsang-chi, hozir dabdala qiladi! Qoch, galvars! – deb baqirdi haydovchilardan biri.

Bir necha kishi to'xtab qoldi. Grinka ham to'xtadi.

– Ho-zir... asfalasofilinga ketadi! – orqadan kimningdir ovozi eshitildi.

– Shuncha narsa uvol bo'ladi-ya! – javob qildi boshqasi.

Kimdir so'kindi. Hamma yuragini hovuchlab kuturardi.

– Brezent olib kelinglar! – Yo'g'on kishining kimga qichqirayotganini bilib bo'lmas, ammo o'zi joyidan qo'zg'almas edi.

– Jo'na! – deya yana unga qichqirishdi. – Voy eshak-ey... Brezent bo'lsa nima kelardi qo'lingdan? Brezent emish...

Grinkani go'yo kimdir orqasidan turtganday bo'ldi. U yonib turgan mashinaga qarab chopdi. Hech narsani o'y-lamadi. Kallasiga xuddi birov bolg'acha bilan „Tezroq! Tezroq!“ deya yumshoqqina zирqiratib urayotganday tuyulardi. Oldinda, mashina ustida buralib-aylanib o'rlayotgan oppoq alangani ko'rди.

Grinka mashinagacha qanday yugurib borganini, motorni qanday o't oldirib, startyorni, so'ng tezlikni qanday ishga solganini eslolmaydi.

Mashina oldinga intildi, tezligini oshirib, sisterna va yonilg'i yuklangan boshqa mashinalardan uzoqlashib ketdi.

Daryo omborxonadan yarim kilometr narida edi: Grinka o'sha yoqqa, daryoga qarab haydadi.

Mashina yaydoq joylardan uchib, sakrab borardi. Yonayotgan bochkalar kuzovda taraqlardi. Grinka lablarini

qonatguday tishlab, rulga deyarli yotib olgandi. Tik, jarliksimon qirg'oq imillab, sekin yaqinlashardi. Qiyalikda, namxush yashil maysa ustida g'ildirak joyida aylanib qoldi. Mashina orqaga keta boshladi. Grinka terlab ketdi. Jon-jahdi bilan tezlikni almashtirdi, rulni chapga burib, chiqib oldi. So'ng motorga zo'r berdi.

Qirg'oqqa yigirma metrcha qoldi. Grinka o'ng oyog'ini gazdan olmay eshikni ochdi, chap oyog'ini zinaga qo'ydi. Kuzovga qaramadi – u yerda bochkalar urilib-surilar, yong'in ohista vishillar edi. Orqasi qizib ketdi.

Endi jarlikka tobora tezroq yaqinlashib kelardi. Grinka negadir imillar, sakray demas edi. Qirg'oqqa naq besh metr qolganda sakradi. Yiqildi. Bochkalarning daranglab otilgani eshitildi. Motor guvulladi... Keyin jarlikdan pastda kuchli portlash bo'ldi. U yoqdan shiddat bilan chiroyli alanga bo'y ko'rsatdi. So'ng jimlik cho'kdi.

Grinka o'rnidan turdi-yu, darhol o'tirib qoldi – yuragiga shunday bir issiq og'riq sanchildiki, ko'z oldi qorong'ilashib ketdi.

– Hmm... oyog'im sinibdi, – dedi Grinka o'zicha...

Palatada Grinkadan tashqari yana to'rtta erkak bor edi. Bittasi „samolyot“ bilan yurar, qolganlari gipsli oyoqlarini yuqorida osiltirib yotishar edi. Ularning oyoqlariga temir-tersaklar bog'lab qo'yilgandi.

Barvasta, malla, ko'rinishdan anqovroq yigit o'sha, yura oladigan sherigidan so'radi:

– Menga qara!.. Nahotki, odamgarchililing yo'q bo'lsa?

– Yo'q, – deya xotirjam javob qildi sherigi.

– Eh!..

– Mana senga „eh“. – Sherigi mallaning ro'parasida to'xtadi. – Men yechib qo'ysam, keyin kim javob beradi?

– Men.

- Sen... Men ham javobgar bo'laman. Nima zaril menga. Sabr qil! Mana shu savil mening ham jonimga tegmagan deb o'ylaysanmi? Jonimga tekkan.
- Sen yura olasan-ku!.. Gapingni qara.
- Sen ham yurib qolarsan.
- Nimani so'rayapsan o'zi? – dedi Grinka malla yigitga (Grinkani shu palataga yaqinda o'tkazishgandi).
- Temirni yechib qo'ygin deb qo'ymayapti, – tushuntirdi yura oladigan kasal. – O'zidan battar ahmoqni qidiryapti. Shunday yotsang, keyin turib ketasan, agar yechib qo'ysam, mutlaqo o'rningdan turolmay qolasan. O'lay agar, xuddi yosh bolaga o'xshaydi.
- Toqatim tugadi! – ingrandi malla yigit. – Jinni bo'pqolishim hech gap emas, yigirma ikki kundan buyon g'o'laday yotibman. Axir, men g'o'la emasman-ku, to'g'rimi? Hozir baqiraman...
- Baqiraver, – dedi xotirjam, yura oladigan sherigi.
- Sen nima, aqldan ozdingmi? – so'radi Grinka yigitdan.
- Hamshira! – baqirdi yigit.
- Uyalmaysanmi, Stepan? – deya dashnom berdi yotgan kasallardan biri. – Bir o'zing emassan-ku bu yerda.
- Shikoyat daftarini beringlar.
- Nima qilasan uni?
- Nega ular bunaqa... Bundan tuzukroq narsa o'ylab topisholmaptimi? Podsho zamonida shunaqa davolashgandir. To'ng'izga o'xshatib osib qo'yishadi...
- O'zing to'ng'izsan, – dedi yura oladigan kasal.
- Hamshira!
- Palataga hamshira o'rniga ko'zoynakli, yo'g'on odam (benzin omboridagi idoradan) kirdi.
- Salom! – xitob qildi u Grinkani ko'riboq. – Menga oldin seni qaysidir boshqa bo'limda yotibdi deyishuvdi...

Zo'rg'a topdim. Ma, senga ovqat olib keldim. Uff! – U Grinka yotgan karavot chetiga o'tirdi. Atrofga alangladi. – Zap joyini topibsizlar-da, yigitlar!.. Qorinni qashlab, shipga tikilib yotaverasan.

– Joyingizni almashtiramizmi? – ma'yus taklif qildi malla yigit.

– Ertaga almashtiramiz.

– Ana shu-da!..

Unda valaqlashgayam hojat yo'q. Aql o'rgatishga ustasiz hammangiz.

– Xo'sh, qalaysan endi? – so'radi yo'g'on odam Grinkadan. – Durustmisan o'zi?

– Hammasi joyida, – dedi Grinka.

– O'zing ayt-chi, nega daryoga yaqin qolganda sakray qolmading?

– O'zim ham bilmayman.

– Men, ishonsang, o'lib qolishimga sal qoldi: naq yuragim to'xtab qoldi, tamom-vassalom. Ehtimol, sening asablaring mustahkamdir.

– Men armiyada tankchi bo'lganman, – Grinka maqtanib qo'ydi. – Mana, qitiqlab ko'rgin – parvo qilmayman. Qani!

– Heh!.. Afandi! Xo'sh, mashinani olib chiqishdi. Hamma yog'i dabdala bo'pti... Qancha yotarkansan?

– Bilmadim. Mana bu og'aynimiz yigirma ikki kundan beri o'z yog'iga o'zi qovurilib yotibdi. Bir oycha yotsam kerak...

Shu payt palataga yigirma uch yoshlardagi bir qiz kirib keldi. Shim kiyib olgan, mallasoch, yasan-tusani joyida – chiroylikkina narsa.

Ostonada to'xtab, kasallarga hayratomuz qarab qoldi.

– Salom, o'rtoqlar!

Gurung asta-sekin bosildi.

- Salom! – dedi Grinka.
- O'rtoq Malyugin kim?
- Men, – javob qildi Grinka va turishga chog'landi.
- Yotavering, yotavering, urinmang, – xitob qildi qiz yaqinlashib. – Men mana shu yerga o'tira qolaman. Maylimi?
- Yo Xudo! – dedi Grinka va yana yotgan joyidan qo'zg'aldi.
- Men shahar yoshlari gazetasidanman. Siz bilan gaplashmoqchi edim.
- Malla yigit kulishdan to'xtab, goh Grinkaga, goh qizza tikilib qoldi.
  - Gaplashsak gaplashaveramiz, – dedi Grinka va malla yigitga bir qarab qo'ydi.
  - Malla yigitni endi hiqichoq tutib qoldi.
  - O'zingizni qanday his qilyapsiz? – deb so'radi qiz tizzalariga kattakon yondaftarini qo'yib yozarkan.
  - Otdekman, – dedi Grinka.
- Qiz jilmaydi, Grinkaga diqqat bilan razm soldi. Grinka ham jilmaydi va qizga ko'z qisdi. Qiz ko'zlarini daftariga qadadi.
- Oldin... haligi... odatdagi savollar: qayerda tug'ilganingiz, yoshingiz, o'qigan joyingiz...
- Demak, gap bunday... – Grinka chekdi. – Keyin men o'zim nutq so'zlayman. Maylimi?
- Nutq?
- Ha.
- Hay mayli... Men keyinroq yozib olsam ham bo'ladi. Boshqa safar.
- Demak, gap bunday: men Surtaykidanman, bu yer dan yetmish besh kilometr narida. Darvoqe, o'zingiz qayerliksiz?

Qiz Grinkaga, boshqa kasallarga qiziqsinib qaradi: hamma sukul saqlab, Grinkaga, qizga tikilgancha quloq solib turishardi. Malla yigitni hiqichoq tutdi.

- Men Leningraddanman, nima edi?
- Bilasizmi gap nimada, – sizga shuni aytishim mumkinki..

Malla yigit o‘zini tutolmay hiqillardi.

- Suv ichib ol! – Grinkaning jahli chiqdi.
- Hozirgina suv ichuvdim, foydasi bo‘lmayapti, – dedi malla yigit xijolat chekib.
- Demak, gap bunday... – davom etdi Grinka sigareta-sini tutatgancha. – Nima haqda gaplashayotuvdik siz bilan?
- Qayerda o‘qigansiz?
- Men hayajonlanib ketyapman, – dedi Grinka (u faqat beshinchı sinfnı bitirganini aytgisi kelmasdi). – Menga gapirish og‘ir.
- Mana bunga sirayam aql bovar qilmaydi! – xitob qildi qiz. – Nahotki, yonib turgan mashinani haydash bundan osonroq bo‘lsa?

– Bilasizmi... – Grinka yana tumtaroq gapira boshladi, keyin birdan qizni yoniga imladi va boshqalar eshitmaydigan ohangda, haddi sig‘ib so‘radi: – Nima gap o‘zi axir? Siz tag‘in bularni yozib yurmang. Men, nima, rostdan ham qahramonlik ko‘rsatibmanmi? Men, qo‘rqyapman: yozadigan siz-u, keyin men odamlar oldida uyatga qolaman. „Ana, qahramon kelyapti!“ deyishadi.

Qiz sekin kulib qo‘ydi. Keyin, bir muddat Grinkaga qiziqsinib qarab qoldi.

– Yo‘q, hechqisi yo‘q, mumkin.

Grinka dadillandi.

– Siz turmush qurbanmisiz? – so‘radi u.

Qiz o‘ng‘aysizlandi.

– Yo‘q... Bunisi nimaga endi?..

– Sizga hammasini yozib bayon qilsam maylimi?  
Siz ertaga yana bir keling, shunda o'zingizga beraman.  
Yonimda birov hiqillab tursa, hech nima qilolmayman.

– Men, nima, aybdormanmi endi? – dedi malla yigit  
va yana hiqichog'i tutib „hiq“ deb qo'ydi.

Grinkaning taklifidan qizning boshi qotdi.

– Bilasizmi... men bu materialni shu bugun top-shirishim kerak. Ertaga esa jo'nab ketaman. Hayronman,  
nima qilsak ekan. Siz qisqacha gapirib bera qoling. Demak, o'zingiz Surtaykidansiz. Shundaymi?

– Shunday. – Grinkaning hafsalasi pir bo'ldi.

– Siz, iltimos, mendan xafa bo'l mang, men ham xizmatdaman axir.

– Tushunaman.

– Qayerda o'qigansiz?

– Maktabda.

– Qayerda, Surtaykidami?

– Xuddi shunday.

– Nechanchi sinfni bitirgansiz?

Grinka qizga jiddiy tikildi.

– Beshinchi sinfni, oltinchisiga tish o'tmagan. Uylan-maganman. Sudlanmaganman. Yetarlimi?

– Ota-onangiz...

– Onam bor.

– Nima ish qiladilar?

– Nafaqada.

– Xizmat qilganmisiz?

– Qilganman. Tank qo'shinlarida.

– Yonib turgan mashinaga o'zingizni urishga sizni  
nima majbur qildi?

– Tentaklik.

Qiz Grinkaga tikilib qoldi.

– Albatta-da. Men, axir, portlab ketishim mumkin edi, – izoh berdi Grinka.

Qiz o'ylanib qoldi.

– Mayli, men ertaga oldingizga kelaman, – dedi. – Faqat bilolmadim... Ertaga qabul kunimi?

– Qabul kuni juma, – dedi malla yigit.

– O'zimiz yo'lini topamiz! – Grinka dadil so'z qot-di. – Do'xtirimiz yaxshi chol, so'rasam yo'q demaydi.

– Kelaman. – Qiz jilmayib qo'ydi. – Albatta, kelaman. Biron narsa olib kelaymi?

– Hech narsa kerak emas. Bu yerda yaxshi boqishadi, – gap qistirdi malla yigit. – Mana, gavdamni ko'ring, hatto menga ham yetib-ortyapti.

– Men bironta qiziqroq kitob olib kelarman.

– Kitob bo'lsa – mayli, ayni muddao. Sevgi haqida bo'lsa yana soz.

– Yaxshi. Demak, o'zingizni mashinaga urishga nima majbur qildi o'zi?

Grinka iztirob bilan o'ylanib qoldi.

– Bilmayman, – dedi u. Qizga gunohkorona tikildi: – O'zingiz bir nima deb yozib qo'ya qoling, yo'lini bilasiz-ku. Bironta haligi... – Grinka panjalarini yozib aylantirdi.

– Siz, hoynahoy, mabodo bochka portlab ketguday bo'lsa, yong'in boshqa sisternalarga ham tarqab ketishini o'ylagan bo'lsangiz kerak. Shundaymi?

– Albatta!

Qiz yozib qo'ydi.

– Axir, sen ertaga jo'nab ketmoqchi eding-ku. Qandog' kelasan? – to'satdan so'rab qoldi Grinka.

– Men bir ilojini qilarman.

Palataga do'xtir kirib keldi.

– Yaxshi qiz, qancha vaqtga ruxsat oluvdingiz?

– Bo'ldi, do'xtir, chiqyapman. Yana ikkita savol... Ismingiz Grigoriymidi?

– Malyugin Grigoriy Stepanovich... – Grinka qizning qo'lidan ushlab, ko'zlariga tik boqdi. – Kelgin, xo'pmi?

– Kelaman. – Qiz dalda bergandek jilmaydi.

– Xo'p. – Grinka qizga mehr bilan qaradi.

– Xayr. Tuzalib keting. Xayr, o'rtoqlar!

Do'xtir Grinkaning yoniga keldi:

– Ahvollar qalay, qahramon?

– Hammasi zo'r!

– Qani, oyog'ingni ko'rsat-chi?

– Do'xtir, ertaga haligi qiz kela qolsin, – iltimos qildi Grinka.

– Kim? – so'radi do'xtir. – Muxbir qizmi? Kelsa kelaversin. Nima, yaxshi ko'rib qoldingmi?

– Men emas, uning o'zi.

Hazilkash do'xtir yana qiqirladi:

– O'ho'... Unaqa bo'lsa, mayli, kelaversin. Ancha sho'x yigit ko'rinasan.

U Grinkaning oyog'ini ko'rgach, boshqa palataga o'tib ketdi.

– Uni hali keladi deb o'ylaysanmi? – deb so'radi malla yigit.

– Keladi, – dedi ishonch bilan Grinka. – Orqamdan bundan ham zo'rlari yugurgan.

– Bilaman bunaqa muxbirlarni...

Grinka shiftga tikilib yotar, malla yigitni eshitmas edi. Nimanidir o'ylardi. Keyin devorga o'girilib, ko'zlarini yumdi.

Grinka uzoq vaqt har turli qahramonliklar haqidagi gurungni eshitib yotib, oxiri chinakamiga uxbab qoldi.

– Grink...

Grinka ko'zlarini ochdi – onasi karavotda o'tirib, kichkina ro'molining uchi bilan ko'zyoshlarini artardi.

– Bu yerga qanday kepqoldingiz? – Grinka hayron bo'ldi.

– Menga... qishloq sovetida aytishdi. Nima falokat bo'ldi, o'g'lim?

– Hechqisi yo'q, yig'lamang. Tuzalib ketadi.

– Sen tentak har doim o'zingni o'tga-cho'g'ga urib yurasan. Birontasi o'rnidan siljimagandir-u...

– Ana, xolos, – sekin gapni bo'ldi Grinka. – Boshlandi tag'in.

Ona, yerda yotgan xaltachaga qo'l cho'zdi.

– Senga ul-bul olib keluvdim... Loaqal endi tuzukroq ovqatlangin. E Xudo, bu ne ko'rgilik! Har qadamda bir ishkal.

Keyin ona boshqa kasallarga qaradi, o'g'liga engashib, sekingina so'radi:

– Pul-mul berishmadimi?

Grinkaning peshonasi tirishdi, u ham sheriklariga bir qarab olgach, sekin dedi:

– Bu nima deganingiz? Esingiz joyidami o'zi?..

– Yotishingni bil... esi bor odam! – ranjidi ona. Yana xaltasini kovlashtirib, yeguliklarni ola boshladi. – Uyimiz nuray deb turgan bo'lsa...

Ertasi kuni Grinkaga u haqda ixcham bir maqola bosilgan gazetani keltirishdi. Unda Grinka hayotini xavf ostida qoldirib davlat mulkini saqlab qolgani hikoya qilingandi. Maqolaga „Jasorat“ deb sarlavha qo'yilgandi. Muallifi: „A. Silchenko“. Grinka gazetani o'qib chiqib, yostig'i ostiga yashirib qo'ydi.

– Gap bunda emas axir, – deya g'udrandi u.

Silchenkodan esa dom-darak bo'lmadi. Grinka uni ikki kun kutdi, so'ng kelishiga ko'zi yetmay qoldi.

– Oliftalarni jinim suymaydi, – dedi Grinka malla yigitga.

Malla bo'lsa o'lganning ustiga tepgan qildi:

– Ularni ko'rgani ko'zim yo'q.

Grinka qutisidan bir varaq qog'oz olib, sherigidan so'radi:

– She'rni yaxshi ko'rasanmi?

– Yo'q, – tan oldi u.

– Yaxshi ko'rish kerak, – maslahat berdi Grinka. –

Mana eshit:

*Orzu qilganmidim hayotda sira  
She'r yozmog'-u shoir bo'lmoqni,  
Yigirma besh yil ilhom qidirdim,  
Mana endi misralar bitdim.*

Malla yigit xo'mrayib tingleadi.

– Xo'sh, qalay? – so'radi Grinka.

– Durust, – maqtab qo'ydi u. – Bu kimga tegishli?

Grinka bu gapga indamadi. Qog'ozni cuti ustiga qo'yib, qalamni oldi va shiftga tikilib qoldi.

– Doston yozaman, – dedi u. – O'z hayotim haqida.

Baribir boshqa qiladigan ish yo'q.

*Shodmon Otabek tarjimasi*

---

**Oldos XAKSLI**  
*(Angliya)*

## **PUSHTIRANG UPA**

Nihoyat, Soufi o‘z xonasida dam olib o‘tirar edi.

U o‘lguday toliqqandi. Kun juda og‘ir o‘tgan; xuddi kechagi kunday, xuddi kechadan oldingi kunday og‘ir o‘tgandi. Aslida-ku, har bir kun shunday og‘ir tarzda o‘tar va bu kunlar Soufining yoshligini ham asta-sekinlik bilan undan uzoqlarga olib ketmoqda edi. Yana ikki yildan keyin Soufi ham ellik yoshni urib qo‘yadi. U uchun har bir kun borgan sari og‘irlashib borardi.

Pastgi qavatdan beka bilan xo‘jayinning g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘iri oqsochning qulog‘iga chalindi. Bekaning jahl otiga mingani yaqqol sezilib turardi. Eri bilan gaplashganida uning tepe sochi tikka bo‘lishi odatiy holga aylanib qolgandi.

Qo‘ng‘iroq chalinishi bilan Soufi sakrab turdi. U dik etib o‘rnidan turdi-yu, dahliz tomon halloslagancha yugurib ketdi. Obbo, qo‘ng‘iroq tag‘in chalindi. Beka kutishni yoqtirmasdi.

– E, Xudoym-ey, Soufi! Qorangni endi umrbod ko‘rmas ekanmanmi, deb o‘ylagandim!

Soufi miq etmadi. Nima ham desin? Beka eshigi ochiq kiyim javoni oldida kuymalanardi. U qo‘liga bir dasta ko‘ylagini ilib olgan, yana allaqanchasi divan ustida yoyilib, sochilib yotardi.

– Ertaga, Soufi, – dedi beka shoshilayotganidan nafasi

bo‘g‘ziga tiqilib, – Rimga jo‘nab ketamiz. Ertaga saharda. Demak, hozirdanoq tayyorlanishimiz zarur.

– U yoqda qancha vaqt bo‘lasizlar, xonim?

– Bunisini bilmayman. Ehtimol, ikki yo uch hafta bo‘larmiz.

– U holda kattaroq jomadonni shaylaganimiz ma’qul emasmikan... Xonim, men hozir borib o‘shani olib kelaman.

– Kel, senga qarashib yubora qolay, Soufi, – dedi beka oqsochi zil-zambil jomadonni keltirishi bilan. Odatda, beka atrofida qari ayolning uymalanib yurishini jini suy-masdi. Ammo Soufi o‘z ishini ko‘ngildagidek ado etardi.

Keksa oqsoch narsalarni joylashtirish bilan band ekan, ko‘ngli negadir cho‘kib borardi.

„Butun kunni divanda... – deya o‘y surardi u, – aynan xonimniki singari kattagina rohatijon divan ustida o‘tkazish nasib qilarmikan. Faqat uqlash, dam olish, yana xonim to‘g‘risida va uning qaysi topshiriqlarini bajarish haqida zig‘ircha tashvish qilmasam – nahot, shunaqasi ham bo‘larkanmi?“

– Uning so‘nggi o‘yinidan keyin, – beka eri haqida so‘zlay ketdi, – aytishicha, bir tiyiniyam qolmagan mish. „Biror donayam yangi kiyim sotib ololmayman“, – deydi.

Beka derazadan tashqariga bir qarab oldi.

– Boz ustiga, – deya gapida davom etdi u, – qaynotam ham kelib qolganiga nima deysan? „Shunday shoир ering bilan faxrlanishing kerak“, deydi-ya choli tushmagur. Yuziga qarab xaxolab yuborishdan o‘zimni zo‘rg‘a ushlab qoldim.

Beka qah-qah otib kulib yubordi.

– Eh, o‘zimning Soufiginam-ey, qaysi osmonlarda uchib yuribsan-a? Manavi almisoqdan qolgan yashil ko‘ylakni joylashingga balo bormi?

Soufi indamasdan ko‘ylakni kiyim javonga olib borib qo‘ydi.

„Nima uchun aynan shu kecha qovoq-tumshug‘ini osiltirib oldi bu?“ – deb o‘ylardi beka ichida. „Yuzlari-yam sarg‘ayib, tishlari ko‘karib ketibdi. Muncha xunuk bo‘lmasa. Yaxshisi, uxlagani jo‘natib yubora qolaymikan? Ammo nima qilib bo‘lsayam ishni saranjomlash kerak-ku. Nima qilsam ekan-a?“ – Beka o‘z-o‘ziga achinib ketdi.

„Hayot og‘ir-da“, – deya o‘y surgancha, beka divani ustiga cho‘kdi. – „Sarg‘aygan yuz va ko‘kargan tishlar! Rostdanam o‘ta yoqimsiz!“ Soufining afti bekani behush qilayozdi.

„Hayot og‘ir-da“, – deya yana takrorladi beka. U oqsochini xonasiga ketkazib yuborsa ham bo‘lardi. Birroq lash-lushlarini hozirlashni bir o‘zi eplolmasdi. Ustiga ustak, ertaga saharlab Rimga ketishlari kerak. Beka eriga sayohatga ketishini aytganida, eri ishonqiramay miyig‘ida kulib qo‘ygandi.

– Soufi, – dedi xonim nihoyat bir chora topganday, – borib, pardoz stolim ustini bir qaragin-a. O‘sha yerda pushtirang bir upa turibdi. O’shandan yonoqlaringga ozgina surib olgin. Yana o‘sha joyda qandaydir lab bo‘yog‘i ham bor.

Keksa Soufi o‘rnidan turib, pardoz stoliga borguncha va aytilgan topshiriqni adog‘iga yetkazguncha beka ko‘zlarini yumib turdi. Obbo, bu xotin muncha ivirsimasa... Nihoyat, Soufi imillagancha joyiga qaytib kelib, narsalarni joylashda davom etdi. Xonim ko‘zlarini ochdi. Voy, shunisi yaxshi-roq bo‘ldi, sal bo‘lsa-da odambashara bo‘ldi-qoldi.

– Rahmat, Soufi. Tuzukkina odamga aylanding-qo‘yding, – Beka o‘rnidan turdi. – Qani endi chaqqon-chaqqon qimirla, manavi narsalarni tez joylab olaylik.

---

*Ryunoske AKUTAGAVA*  
(Yaponiya)

## TASHLANDIQ BOLA

Asakusaning Nagasumi-tyo ko'chasida Singyodzi butxonasi bor. Yo'q, yo'q, bu chog'roq butxona. Darvoqe, bu yerda avliyo Nitironing yog'och haykali bo'lib, uning o'ziga xos kechmishi bor. Yigirma ikkinchi Meydzi yilining kuzida bu ibodatxonaning darvozasi oldiga bir chaqalojni tashlab ketishdi. Go'dak hali bir yoshta ham kirmagan, binobarin, yonida ismi yozilgan bir parcha qog'oz ham yo'q edi. Bir parcha unniqqa shoyiga o'ralgan bolakay bog'ichi uzilgan kallapo'shida mushtday bo'lib yetardi.

O'sha kezlarda Singyodzi ibodatxonasingning bosh ruhoniysi Tamura Nisso odatdagidek ertalabki ibodat bilan mashg'ul bo'lib turganda, keksa darbon darvoza oldiga bir bolakayni tashlab ketishganini aytди.

Nahotki! Uni bu yoqqa olib kel.

Yana ham ajablanarlisi, dorbon chaqalojni itoatkorlik bilan olib kelganda ruhoni y uni darhol qo'lga oldi-da, mehr bilan erkalay boshladi:

– Voy pahlavon bola-yey! Yig'lama! Yig'lama! Bugundan boshlab o'zim seni parvarish qilaman.

Ruhoni go'dakka Yunoske deb ism qo'ydi va o'z o'g'liday parvarishlay boshladi. Men „parvarishlay boshladi“ dedim, biroq inqilobdan keyin bironta ayol zoti qadam bosmagan butxonada bir parcha et bo'lgan chaqalojni parvarishlash oson kechgani yo'q. Enagalik ham qilar,

allaqayoqlardan sut ham topib kelar – bularning barchasini ruhoniying o‘zi sutralar – muqaddas kitoblarni o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida uddalardi.

Biroq ruhoni har qancha mardonavor bo‘lganiga qaramay, evini qilib bolakayni o‘z ota-onasining qo‘liga topshirishdan umidvor edi. Ruhoni minbarga ko‘tarilganda – „Har oyning o‘n oltinchi sanasida va’zxonlik“ deb yozilgan eski lavhani darvoza oldidagi ustunda hozir ham ko‘rishingiz mumkin – Yaponiya va Xitoy tarixidan misollar keltirib, shavq bilan va’zxonlik qilar, ota-onalarning o‘z farzandlariga bor mehrlarini baxshida etishlari – Buddani rozi etish ekanini tinmay uqtirardi. Lekin u har qancha zo‘r berib va’zxonlik qilmasin, tashlandiq bolakayning na otasi, na onasi topilay demasdi. Darvoqe, yo‘q, bir safar, Yunoske uch yasharligida, haddan tashqari ko‘p upa surib, aftini bo‘zday oqartirib olgan bir xotin kelib, men uning onasiman, deb da‘vo qilgandi. Lekin u, chamasi, tashlandiq boladan g‘arazli niyatda foydalanishi ni mo‘ljallagandi. Batafsil so‘rab-surishtirishlardan keyin shubhali xotin ekani oydinlashgach, qiziqqon ruhoni uni rostakamiga jerkib tashladi, sal bo‘lmasa yuziga tarsaki ham tortib yuborayozdi, xullas, butxonadan haydar chiqardi.

Yigirma yettinchi Meydzi yilining qishi ham keldi, Yapon-Xitoy urushi to‘g‘risidagi mish-mishlar kuchaydi; har oyning o‘n oltisida bo‘ladigan odatiy va’zxonlik sanasida ruhoni o‘z hujrasiga qaytganda, ortidan o‘ttiz to‘rt-o‘ttiz besh yoshlardagi bashang kiyingan juvon ham kirib keldi. Hujrada qozon osilgan o‘choq yonida Yunoske mandarin tozalab o‘tirardi. Unga nigohi tushgani hamono ayol qo‘llarini ruhoni yomon iltijo bilan uzatgancha, ovozidagi titroqni bosishga urinib, qat’iyat bilan yolvordi: „Men bu bolaning onasiman“. Ruhoni,

albatta, hayratlangancha, avvaliga bu juvon bilan salomlashishga ham holi kelmadi. Lekin ayol unga zarracha ham e'tibor bermasdan, yerga to'shalgan bo'yradan ko'z uzmay, ko'nglida kechayotgan g'alayonlar bo'y-bastida aks etgancha, bolani shu kungacha tarbiyalab kelgani uchun ruhoniya chin yurakdan samimiy minnatdorlik izhor etardi.

Uning eri besh yil muqaddam Asakusaning Tavara-mati ko'chasida guruch do'konini ochadi. Biroq ilk daromadga ega bo'lmasdan, barcha sarmoyasini boy beradi va ular Yokogamaga xufyona jo'nab ketishga ahd qiladilar. Lekin kuni kecha tug'ilgan bolakay er-u xotinning oyog'iga tushov bo'ladi. Boz ustiga onaning ko'kragida deyarli sut yo'q bo'lib, o'sha tunning o'zida, Tokiodan jo'nab ketishlari arafasida, er-u xotin ko'zlarida shashqator yosh bilan chaqaloqni Singyodzi butxonasi darvozasi oldiga tashlab ketadi.

Keyin ular uzoq bir tanishning yordami bilan hatto poyezdga ham o'tirmasdan, Yokogamaga yetib oladilar, er kirakashlik idorasiga ishga yollanadi, xotini esa do'konda xizmat qila boshlaydi, er-u xotin shu asno ikki yil kun-u tun mehnat qiladilar. Nihoyat, faqat uch yildan keyin omad kulib boqib, kirakashlik idorasining xo'jayini erining halolligini qadrlab, unga Xommoku-xen tumанинг Omoto-dori ko'chasida yaqinda ochilgan kichikroq bo'limni boshqarishni topshiradi. Xotini darhol do'kondan bo'shab, eriga ko'maklasha boshlaydi.

Bo'limda ish qizg'in tus oladi. Xudo yorlaqab, keyingi yili o'g'il ko'rishadi. Ayni pallada bir paytlar tashlab ketilgan farzandini o'ylab iztirob cheka boshlaydilar. Ayniqsa, go'dagining og'ziga ko'kragini tutgan pallalarda onaizor Tokiodan jo'nab ketgan tunni eslab, o'zini qo'ygani joy topolmasdi. Lekin kunduz kunlari ish bilan andarmon

bo'lib, judolik dardini unutishar, farzandlari esa kun sayin ulg'ayib borardi. Yegan-ichganlaridan orttirib, bankka biroz pul ham qo'yishdi. Sirasini aytganda, er-u xotin yana baxtli turmush kechira boshladilar.

Afsuski, ularning baxtiyor damlari yoz tuniday qisqa bo'ldi. Yigirma yettinchi yilning bahorida er terlamaga chalindi va bir hafta ham yotmay vafot etdi. Faqat shu ko'rgilikning o'zi bo'lganda xotin taqdirga tan bergen bo'lardi, biroq eri o'lgandan keyin yuz kun o'tib, uzoq kutilgan farzandi daf'atan ichketar oqibatida jon taslim qilgani uni tamomila holdan toydirdi. O'sha kezlarda juvon kecha-yu kunduz telba singari faryod solardi. Yarim yil o'ziga kela olmadi.

Nihoyat, biroz taskin topganda ko'ngliga, eng avvalo, bir paytlar tashlab ketgan to'ng'ich farzandini izlab topish fikri keldi. U: „Bolam bechora omon bo'lsa bas, qancha mashaqqat tortsam ham uni qaytarib olib, o'zim voyaga yetkazaman“, deb niyat qilar va bu fikr unga sira tinchlik bermasdi. Darhol poyezdga o'tiradi va qadrdon Tokioga yetib kelgan zahoti Singyodzi butxonasining darvozasi tomon talpinadi. Bu rappa-raso o'n oltinchi sanaga, ya'ni va'zzonlik kuniga to'g'ri kelgandi.

Ruhoni esa o'sha kuni ham Nilufar ayol o'zining besh yuz bolasi bilan qanday uchrashgani haqidagi rivoyatni aytib, ona mehrining nechog'lik muqaddasligini yonib targ'ib qilardi... Shu bois va'zzonlik tugagani hamono ko'zida yosh bilan butxonadan chiqib, ruhoniyni axtara ketdi.

Ruhoni Nisso barchasini eshitgach, o'choqning oldida o'tirgan Yunoskeni onasiga ro'para qildi, besh yoshga kirgan bola esa o'z onasini tanimasdi. Juvon aldamayotganiga ruhoni, albatta, ishongandi. Juvon Yunoskeni qo'liga olib, ko'zyoshlarini arang tutib turarkan, lablari-

ga tabassum yugurgan bag'rikeng ruhoniying ko'zlarida yosh tomchilari halqalandi.

Keyin nima bo'lganini, siz, umuman, aytmamasam ham yaxshi bilasiz. Yunoske onasi bilan Yokogamaga jo'nda. Eri va o'g'lining vafotidan keyin bu juvon kirakashlik idorasining rahmdil egasi va uning xotini taklifi bilan odamlarga tikuvchilikni o'rgata boshladi va shuning evaziga oz bo'lsa ham kun ko'rish uchun yetarli mablag'ni mashaqqatsiz topadigan bo'ldi.

O'zining uzun hikoyasini tugatib, yo'lovchi ro'parasidagi piyolani oldi. Lekin undan bir qultum ham ichmasdan menga qaradi-da, asta qo'shib qo'ydi:

– O'sha tashlandiq bola – men bo'laman.

Uning gapini unsiz ma'qullagancha chovgumga suv quydim. Tashlandiq bola to'g'risidagi hayajonli hikoya – mehmonim Matsubara Yunoskening bolaligi bilan bog'liq voqealar ekanini, u bilan birinchi marta uchrashib turganimga qaramay, hattoki men ham allaqachon anglagandim.

Bir nafaslik sukutdan keyin unga yuzlandim:

– Onangiz haliyam sog'-salomatmi?

Va kutilmagan javob oldim:

– Yo'q, bir yil muqaddam vafot etgan. Biroq... men gapirib bergen ayol mening onam emasdi.

Ajablanganimni ko'rgan mehmon xiyol kulumisradi:

– Erining Asakusadagi Tavara-matida guruch do'kon bo'Igani, Yokogamaga bosh olib ketib, o'sha yerda ishlagani, bularning barchasi, albatta, haqiqat. Biroq keyin bilishimcha, go'yo ular o'z farzandini tashlab ketganlari haqidagi gap-so'zlar yolg'on ekan. Onamning vafotidan bir yil oldin do'kon ishlari bilan – o'zingizdan qolar gap yo'q, men ip-kalava bilan savdo qilaman – Niigata

atroflariga borib qoldim va qop savdogar bilan poyezda hamsafar bo'ldim, u bir paytlar Tavara-mati ko'chasi da onam bilan qo'shni bo'lib yashagan ekan. U men so'ramasam ham o'shanda onam qiz ko'rganini, lekin do'konni yopishlaridan oldin vafot etganini aytib berdi. Yokogamadan qaytgach, onamga bildirmasdan oilaviy ro'yxatni asta ko'zdan kechirdim, qop sotuvchi savdogar aytganday, Tavara-mati ko'chasida yashaganda onam rostdan ham qiz ko'rgan va uch oylik bo'lganda nobud bo'lgan ekan. Onam qandaydir niyat bilan tamomila begona bo'lishimga qaramay meni qo'lga kiritish uchun tashlandiq bola bilan bog'liq uydirmani o'ylab topgan. Shundan keyin rosa yigirma yil mobaynida huzur-halovatdan ham, el qatori yeb-ichishdan ham kechib menga g'amxo'rlik qilgan.

Uni shunday qilishga nima undaganini har qancha o'ylaganim bilan haligacha anglay olmayman. Asl haqiqatni garchi bilmasam ham, nazаримда, буни сабаби shundaki, ruhoniy Nissoning va'zi eri va farzandidan judo bo'lgan ayolning qalbiga juda kuchli ta'sir qilgan. Menga o'zim tanimaydigan ona bo'lish fikri ruhoniy va'zini tinglash asnosida uning ko'nglida tug'ilgan. Shunday bo'lgani ehtimoldan xoli emas. Meni butxonaning oldidan topib olishganini esa onam va'zni tinglash uchun kelgan taqvodorlardan eshitgan. Yoki buni unga oqsoq dorbon aytib bergen.

Mehmon sukutga cho'mdi va birdan esiga tushganday xayolga tolgancha choy icha boshladi.

– Sizni u tug'maganini, ya'ni o'g'li emasligingizni shundan keyin yuziga aytgan bo'lsangiz kerak?

Bunday savolni berishga qanday tilim aylanganini o'zim ham bilmayman.

– Yo‘q, aytmadim. Bu onamga nisbatan o‘ta bag‘ritoshlik bo‘lardi. Onam ham umrining oxirigacha bu haqda menga og‘iz ochmagan. Yanglishmasam, u ham sirni ochib, mening yuragimni yaralashni istamagan. Rostini aytsam, onamga nisbatan munosabatim haqiqiy o‘g‘li emasligimni bilganimdan keyin zarracha ham o‘zgar-gani yo‘q.

– Qaysi ma’noda?

– Shu ma’nodaki, onamga mehrim yana ham ortdi. Binobarin, hammasidan xabar topganidan keyin bu ayolni men, bir tashlandiq bola, tug‘gan onamdan ham ortiq e’zozlay boshladim, – deya ohista javob berdi mehmon. Bu gapni uning o‘zi ham o‘sha ayol uchun o‘g‘lidan-da ziyoda bo‘lganini bilmaganday bamaylixotir aytdi.

*Rus tilidan  
Abduhamid PARDAYEV tarjimasi*

---

***Yuriy NAGIBIN***  
***(Rossiya)***

## **SHOHCHORBOG‘ TONGI**

Pushkin tong qorong‘isida, go‘yo yetti soat g‘aflat og‘ushida yotmagandek tiniqib uyg‘ondi. Uyg‘ondi-yu, chayir, qotma vujudining misday qizib ketganini sezdi. Mayning so‘nggi kunlari bo‘lsa-da, qiya ochiq derazalar ertalablari qirov bog‘laydi, u esa ustiga yupqagina ro‘yja yopib yotadi, ammo tonggacha choyshab, albatta, oyog‘i uchiga sirg‘alib tushib, yum-yumaloq „koptok“ bo‘lib qoladi... Yoz oftobi rosa qizdirgandek issiq badaniga ohista qo‘l yubordi. Namxush kaftlar bilan ko‘krak qafasingni, ixcham, baquvvat boldirlaringni huzur qilib silarkansan, bu – sening bori-borlig‘ing ekanini, shu vujudning tanho hukmdori ham, xizmatkori ham o‘zing ekaningni his etmoq naqadar yoqimli!

U sirtlonday chaqqonlik bilan sapchib o‘rnidan turdi, pastak javoncha ustidagi suv to‘la chelakka sochiqni botirdi-da, badanini boshdan oyoq qizarguncha artib chiqdi. Ko‘ylagini kiyib, shiminining pochasiga oyoq suqarkan, mast uyquda yotgan litsey sukunatiga asta quloq tutdi.

Yupqa devor ortida og‘ir-vazmin Pushkin yotardi. U qaysi yonboshi bilan yotgan bo‘lsa, shu yonboshi bilan uyg‘onar, biroq o‘zining tan olib aytishicha, tushiga muqarrar yalang‘och qizlar kirar ekan; undan narida Delvig jimgina mudraydi, u kunduzlari chala uxloq bo‘lganidek, kechalari chala uyg‘oq bo‘ladi; Kyuxelbeker g‘aroyib „musiqa“ – xo‘rsinig‘-u g‘o‘ldirashlar bilan mizg‘isa, sa-

ranjom-sarishta, batartib Korf odamning havasi keladigan darajada osoyishta uxlaydi; xushro'y, yoqimtoy Gorchakov alomat bir tarzda – to'ralarga monand „karnay-surnay chalib“ – xurrakni vang qo'yib orom oladi. Xullas, ularning har biri hozir ham o'ziga yarasha, o'z xulq-atvoriyu mavqe-e'tiboriga yarasha pinakka ketgan. Ammo ayni pallada boshqa narsa muhimroq: darbon Leontiy bobo bugun qay darajada sarkush ekan?

Chol doim turli alfozda uxlardi-yu, lekin negadir, bilib-mi-bilmay, litsey talabalarining uyqusini mazax qilayotgandek tuyulardi. U goh ko'zlarini chala yumib Delvig kabi sassiz mudrar, goh naq Kyuxlining o'zi bo'lib pish-qirgancha xaxolar, ba'zan xuddi Modes Korfdek sokin orom olar, ba'zan esa knyaz Gorchakovdek g'alati-g'alati avjlar bilan xurraq tortar edi. Bularning barchasi kun bo'yi nima ichgani va qancha ichganiga bog'liq bo'lardi; ichkilikning quvvati-yu darajasi uning uyqusiga turlicha shakl va ohang bag'ishlar edi. Hozir Leontiyning churq etgan tovushi ham eshitilmasdi, ammo o'zi qay ahvolda – hush-yormi yoki „halok bo'lgan“mi – bir narsa deyish qiyin...

So'nggi lahzada Pushkinning niyatidan qaytishiga bir baxya qoldi. Yo'q, darbon choldan qo'rqqani uchun emas: tasodifan ko'zi stol ustida yotgan patqalam va yarmi qorangan qog'ozga tushdi. Chala qolgan she'r... Bu oqshom gusar oshnalariga o'qib berishni va'da qilgan edi. Ammo xayolida Natashaning hurkak, intizor siymosi jonlandi-yu, bu fikr nari chekindi.

Pushkin boshmoqlarini qo'liga olib, asta eshikni ochdi. Xonasi yo'lak adog'ida bo'lib, darbonning hujrasi bilan yonma-yon edi. Hujra eshigi lang ochiq, Leontiy dong qotib yotibdi. Demak, ona yurtning o'tkir sharobiga obdan miriqqan: faqat ugina cholni mana shunday tosh qotirib qo'yishga qodir.

U boshmoqlarini kiyib, yo'lak etagidagi eshik tomon yurdi. Hali barvaqt bo'lishiga qaramay, talabalar ning aksariyati uyg'onib olgan. Kimdir bir maromda ming'irlab ibodat qiladi, kimdir og'zini ochmay xonish etmoqda – chamasi, soqol olayotgan bo'lsa kerak, yana allakim g'o'ng'illab she'r o'qimoqda. Ohangdor qofiyalar odatdagidek Pushkinning diqqatini jalb etdi. Har bir murg'ak shoirchani u o'zining qondosh birodari deb bilardi. Oqko'ngil, olıyjanob tentak Kyuxlidan tortib iqtidorli, ammo o'lguidek tanbal Delvigning she'rlarigacha, olifta Yakovlevning xom-xatala tizmalari-yu silliqqina va qirriqqina Olosenka Illichevskiyning nazmbozliklari ham uni loqayd qoldirmas edi.

Pushkin komil ishonch bilan shunga amin ediki, Haq taolo bashariyat beshigini tebratgan chog'larda odamlar o'zaro she'r orqali so'zlashganlar, zero, u insonning hur, yuksak ruhi va sarbaland mohiyatiga g'adir-budur nasrdan ko'ra ko'proq mos kelgan. Faqat, odamzot falakdan butkul yuz o'girib, erkin ruhning ulug'verligini boy bergachgina, o'z tuyg'u va fikrlarini nasrning qora so'zlari bilan g'o'ldirab bayon qilmoqqa tushgan. Hali Homer zamonasidayoq, garchi gekzametr nasr tomon qo'yilgan ilk qadam bo'lsa-da, kishilar nutqi she'rdan iborat edi. Momo Havo bilan Odam Ato jannatdan quvilgunlariga qadar, nahotki, asrning toshdek og'ir, siyqa tilida so'y lashgan bo'lsalar? Yo'q, ularning izhori diligiga, sharhsiz muhabbatiga yakkash nazmnинг qutlug', o'tli tili munosib, xolos! Ana o'shandan buyon-o'zaro muloqotda she'riy sehr qudratidan mahrum bo'lganidan buyon odamlar nasriy nutqning chag'ir toshli yo'llarida qoqilib-surilib, bir-birlarining fikrlarini, murod-muddaolarini anglayolmay garang – insonlararo muomala naqadar quruq, na bir joziba bor, na bir shukuh... Ammo hali shunday zamon keladiki,

odamzod yana muborak she'r bilan so'ylay boshlaydi va bu hol olamshumul uyg'unlik ibtidosiga qaytish bo'ladi.

Chamasi, o'tmish ajdodlar ruhiga singib ketgan she'riy sadolar g'oyibona bir yo'llar bilan yosh nasllar yuragi-da nazmga rag'bat uyg'otsa kerak. Mana qarangki, Olo-senka ham shu sirli sadoni eshitib, qalam yo'nib ijodga kirishibdi. Pushkin uning eshigi oldida qadamini sekin-latib, so'zlar shalolasiga diqqat bilan quloq soldi. Ammo Injil tafsiriga daxldor „shajara“ so'zining o'rmon ta'rifida qo'llanilganini eshitib bosh chayqadi. Biroq bu hali holva ekan: birozdan so'ng Olosenka ilhomni jo'shib: „Sevgimni izhor etaman hargiz!“ deya xitob qilib qoldi-yu, Pushkin tepe sochi tikka bo'lib nari ketdi.

Keyingi xona litsey shoirlari orasidagi eng omadsiz, loaqal ko'ngil uchun ham bir kimsa tan olmagan qalam sohibi Kyuxliga qarashli edi. Boshqa talabalardan farqli o'laroq, Pushkin Vilhelmning cho'tir ilhom parisi baxsh etadigan she'riy mashqlariga mazax bilan qaramasdi. Shu boisdan ham hozir Kyuxelbekerning go'yo shag'al ag'dargandek qo'pol, beo'xshov qofiyalarni uyqashtirib o'tirishi-ga taassuf bilan quloq solib turardi. So'z bo'tqasi ichidan bir-biriga shu qadar mos kelmaydiganlarini tanlab qofiya qilishga urinish uchun ham zo'r salohiyat kerak. Kyuxli ana shunday besamar ishga bunchalik ulkan ishtiyoq va g'ayrat bilan bel bog'lagan ekan, demak, chindan ham nazm malikasiga qattiq muhabbat qo'ygan. Ammo uning bu muhabbat... bepusht bevaga jon fido etmoqchi bo'layot-gan navqiron yigitning iztirobli sevgisiga o'xshaydi.

Agar ohang va qofiyani shu qadar mashaqqat bilan topadigan bo'lsam, men she'r to'qishdan allaqachon voz kechgan bo'lardim, deb o'yladi u. Axir, har qanday she'r – muallif qalamidan dunyoga kelgach, o'zining mustaqil, jonli hayotini boshlashi kerak emasmi? Kyuxli

esa shuni bila turib, nogiron satrlarni urchitish bilan ovora. Tasanno, do'stim, qoyilman, yuraging ham toshdek metin, toshdek... hissiz ekan!.. Uni Klopshtokka taqlid qiladi, deb ayplashadi. Ammo o'zimizning ahli nazm orasida tilining qo'rg'oshinday og'irligi-yu to'nkaday qo'polligi bilan nemis shoirini yarim yo'lda qoldirib ketadiganlar kammi? Axir, kalondimog' Trediakovskiydan tortib, Sumarokov, Petrov, Ozerov singari shoirlargacha, hatto ulug' Derjavin – beqiyos badiiy qudrati bema'ni, tumtaroq so'zlar ichra g'arq bo'lib qolgan Derjavingacha naqadar o'lik, mudroq tilda yozganlar-a! Hozirgilar-chi, hozirgilar go'rmi? Ana, gumbazdek semiz Shirinskiy – Shixmatov: she'rlari ham naq qabristonning o'zi – sovuq, zimiston!

Kyxuxli-ku mayli, qirg'ovuldan battar garang deylik, ammo, nahotki rus elining boshqa ahli shuarosi ham qu-loqdan qolgan bo'lsa?! Nahotki, ular xalq tilining o'lmas ohanglarini eshitmasa? Mana, ilhomni o'zgalar yoqqan o'tdan yorqin alanga oluvchi mastonavor Batyushkov va Jukovskiyni olaylik. Ularni bu jozib ohanglardan bexabar deb bo'lmaydi. Ammo na ular, na mo'ysafid Derjavin, na almisoqdan qolgan Ozerov rus she'rining asl muxlislari qalbiga titratma solmoqqa qodir! Kim bilsin, ehtimol, odamzot, she'riyat tangrilarining purviqor, dabdabali tili bilan emas, balki oddiy insoniy nutq bilan ifoda etilganida uni mutlaq tanimay qolar?

Hamma balo shundaki, adabiyot avvalboshdanoq protopop Avvakumning sof, sodda, mardona tili yo'lidan emas, aksincha, ekkleziastning no'noq taqlidchisi, jim-jimador, o'lik lison muhibi, chuchmalzabon Daniilning tumtaroq nutqi ortidan ketgan. Mitropolit Daniil so'z qarshisida ojiz ekanini o'zi ham yaxshi bilgan, shu boisdan-mi, ma'nodosh so'zlarni ustma-ust qalashtirib, g'aroyib bir bema'nilik yaratgan: „....Va inchunin, shuningdek, ja-

miki kimarsa va nimarsalarga malomat qilg'on, qabohat va razolat qilg'on, bo'hton va yolg'on qilg'on, hamiyat rishtasin uzg'on...“ Shu tariqa ohanjama so'z shalolasi qu-yulaveradi, quyulaveradi. Ammo qani bunda ma'no, qani aniq muddao, qani inson qalbining surati?! Avvakum... bu butkul o'zga olam! Begoyim Morozova o'g'lidan judo bo'lganda u baxtiqaro ayoldan shunday deb hol so'rgan ekan: „Endi qay arg'umoq yolini tararkinsan? Endi qay bahodir izidan termilarkinsan? Endi kimning boshini silarkinsan? Yolg'izingning diydoriga endi qachon to'yarkinsan?..“ Bu sodda, dardli so'zlarni takrorlaganda kishining ko'zlaridan beixtiyor yosh tirqirab ketadi.

Oh, Xudoyim, Natalya hujrasida orziqib kutayotgan bir paytda shu narsalar vaqt sarflab o'tirishga arziydimi axir! Boyaqish Natasha zor-intizor kutayotgandir, yuragi qinidan chiqqudek bezovta tepayotgandir, chunki shundoq devor ortida bekasi – Volkonskaya xonimning xobxonasi. Uyqusizlik dardiga mutbalo bu qoqsuyak echki o'lguday badgumon ham – mudom ko'ziga arvoхlar, sharpalar, o'g'ri-yu tajovuzkorlar ko'rindi. Biroq eshik-derazalarini mahkamroq yopib uplash o'rniga u negadir kechalari oq durra-yu oppoq ko'ylaklarini hilpiratgancha xobxonasidan tashqarida izg'ib yuradi – hoynahoy, tasavvuridagi xatar sharpa emas, balki qad-qomati kelishgan suvoriy yoki navqiron askar, loaqlar saroy go'lahi bo'lib chiqar, degan pinhona bir ilinj uni oromdan ayirsa ajab emas...

Pushkin uzun yo'lakka, bo'lg'usi chinovniklar, harbiylar, dengizchilar, shoир va isyonchilar ensiz karavotlarda orom olib uxlayotgan xonalarning raqamlangan kulrang eshiklariga yana bir nazar tashladi-da, o'zi ham kutmagan holda asta tovushini chiqarib:

– Uxlanglar, bolakaylor! Xudo panohida asrasin! – deya lip etib eshik ortiga o'tdi.

Saroyga ark va cherkov yonidan o'tgan ichki yo'lak orqali kirib borishga qaror qildi. Aslida-ku, darbonning ta'natalab qo'liga „trinkgeld“ qistirib o'tib ketsa ham bo'laverar edi-ya, biroq u ortiqcha gap-so'zdan ko'ra qorong'ida qoqilib-netib, mayib bo'lishni afzalroq bildi.

Ishi o'ngidan keldi: eshikni salgina itargan edi, sas-siz, itoatkorona ochilib ketdi... Natalyaning derazasidan u bilan birga may tongining toza, namxush shabadasi ham kirib keldi.

Pushkin qizning xavotir va hadik ichra kaptardek tipirchilayotgan yuragining dukuriga qulqoq solarkan, uni tinmay erkalar, toki o'zi yonida ekan, hech kimga xafa qildirib qo'ymasligini aytib tinchlantirishga urinar edi. Garchi qo'lidan tayin bir ish kelmasa-da, sharmandalar-chaga saf tortib yurishdan kuni kechagina qutulgan litsey talabasi bo'lsa-da, sir bermaslikka tirishar edi. Qani, biror kishi uning mahbubasini ranjитib ko'rsin-chi! Tabiat unga o'tkir tish-tirnoq, baquvvat musht-u cheksiz jahl ato et-gan. Biroq, hozir unga hech kim tahdid etayotgani yo'q, ularning muhabbatni va baxtiga rahna solayotgani yo'q, shunday ekan, bas, nari keting, noxush xayollar!..

– Sekinroq, Aleksandr Sergevich, sekinroq! – deb yolvorardi Natalya. – Oh, Sashenka, bunaqada meni adoyi tamom qilasiz-ku!

– Nega yig'layapsan? – deb so'radi Pushkin. – Bo'ldi, qo'y endi! Kel, ko'zlariningni artib qo'yay. Nima gap o'zi, tentagim?

– Bilmayman, – dedi Natasha yig'idan bo'g'ilgan to-vush bilan. – Menden ranjimang. Nega yig'layotganimni o'zim ham bilmayman. Diyord ko'rishganimizdan ko'nglim to'lib ketdi, xolos.

– To o'lguncha bir-birimizdan ayrilmaymiz! – deb shivrladi Pushkin, gapiga o'zi ham ishonib.

– Qo'ysangiz-chi! – Natasha begona, g'alati bir ohangda kulib yubordi.

Ko'pni ko'rgan odamlarga xos bu kulgi allanechuk yoqimsiz edi – uni bolalik olamiga qayta uloqtirib tashlagandek bo'ldi. Nazarida, Natasha bir zumda ulg'ayib, u bilmaydigan juda ko'p narsalarni biladigandek, turmushning past-baland so'qmoqlarini obdan kezgan sohibtajriba ayolga aylanib qolgandek tuyuldi. Bu nihoyatda qayg'uli, alam qiladigan darajada ezgin bir hol edi. Zerikish hissi, Natasha nimadir munosabat bilanmi yoki shunchaki gap orasidami, dugonasi Masha haqida so'zlay boshlaganida battar kuchaydi. Graf Tolstoyning xonaki teatridda aktrisa bo'lgan bu qiz grafning jiyani – ulan polkining ofitseri bilan don olishib yurarkan. Natalya asta pichirlab, dunganasining „bo'g'oz bo'lib qolgani“ni aytdi. Pushkin baxtiqaro qizning kulcha yuzi, soddadillik bilan kulimsirab turadigan lablarini g'ira-shira esladi, rahmi keldi, ammo shu zahoti ko'nglidagi shafqatga ijirg'anish tuyg'usi ham qo'shilib ketdi.

– „Bo'g'oz“ deganing nimasi! U molmidiki bo'g'oz bo'lsa! Ofitser uni homilador qilib qo'yibdi, – dedi u keskin.

– Voy Aleksandr Sergeevich, gapingiz ham bor bo'lsin! Biz avomlar ham „bo'g'oz“ deymiz-ku, bekam ham shunday deydilar. Siz bo'lsangiz...

– Homilador! – deb qichqirdi Pushkin achchiqlanib. – Nahotki, qulqidan qolgan yo farosatdan ayrilgan bo'lsang? Homilador – eng aniq tushuncha! „Bo'g'oz“ degani esa...

– Xo'p, mayli! – dedi Natasha ranjigan ohangda. – Menga desa, nima deb atasangiz, atayvering...

Pushkin shartta o'rnidan turdi.

– Qayoqqa? – deb so'radi Natasha javdirab.

– Vaqt bo‘ldi... – dedi Pushkin faromush, xayolchan qiyofada eshik tomon yurarkan.

Yo‘q, uni Masha bilan ofitserning qayg‘usi emas, balki ko‘pdan buyon qalbi tubida yig‘ilib kelgan, hozir esa vujudiga birdan titroq bergen allaqanday bir anduh tashvishga solgan edi.

– Shoshmang!.. – deya shivirladi Natasha va lip etib tashqariga chiqdi.

Pushkin butkul parishon, harakatlari allanechuk g‘alati, ammo o‘zi buni sezmas edi. Shu lahzada u xayolini tinmay bezovta qilayotgan o‘sha tutqich bermas fikrni topishi zarurligini sezib turardi, biroq harchand urinmasin, buning uddasidan chiqolmadi. Xayr, mayli, jin ursin bu betayin xayolni! Agar chindan-da bosh qotirmoqqa arzilik bir fikr bo‘lsa, qachondir ong-shuuri qa‘ridan yulduzdek balqib chiqadi, arzimaydigan bo‘lsa – shu bo‘yi badar ketgani ma’qul!

U asta yo‘lakka chiqdi. Natashaning quyosh yog‘dusidan charog‘on xonasidan keyin bu yer battar qorong‘i ko‘rinardi. Qo‘llarini oldinga cho‘zgancha tusmol bilan qadam tashlab borarkan, birdaniga qarshisida Natalyaning sassiz sharpasi paydo bo‘ldi. Uning nogahoni, xayoliy kabi tuyulgan siymosi ko‘nglini to‘lqinlantirib, boyagi sovuqlikni zumda eritib yubordi. Pushkin uni mahkam bag‘riga bosdi, bosdi-yu, kaftlari begona, qoqsuyak yelkalarni his qilgan zahoti qo‘rquv ichra ura qochdi va shu ondayoq saroyni buzgudek bo‘lib, „Dod, yordam beringlar!“ degan jazavali qichqiriq yangradi – Volkonskaya xonim nihoyat o‘z tajovuzkoriga duch kelgan edi.

Pushkin lahmdek qop-qorong‘i, uzun yo‘lak bo‘ylab nafasi tiqilib Yugurgancha, bir amallab zinapoyaga yetib oldi-da, ikki hatlab o‘zini tashqarida ko‘rdi. Devorni pana-

lay-panalay oyoq uchida yurib, eson-omon ark tagidan o'tdi – bu yog'i saroyning boshqa tomoni edi.

Tong og'ushida hayhotdek bo'lib turgan ulkan asriy bog' qo'yniga hansirab yetib kelgachgina o'zini biroz bexatar sezdi. Bu ishi hali boshiga balo bo'lmasa edi. Ey bedavo qari echki, dodlab nima qilasan, undan ko'ra adashib senga tegib qolgan jannatiy ne'matdan bahramand bo'lavermaysanmi?! Hoynahoy, hozir butun saroyni boshiga ko'tarayotgandir. Beto'xtov borib Yelizaveta Alekseyevnaga arz qilsa kerak, u esa oqizmay-tomizmay podshohga yetkazishi tayin. Sur-sur boshlanib ketsa, odadagidek, gumon yana litsey talabalariga tushadi. Amallab chap berib ketishning iloji yo'q, qolaversa, yolg'oni ham eplayolmaydi u.

Xilvat xiyobonlar yorug', namchil, kimsasiz edi. Siyrak tuman orasidan Chesmen minorasi elas-elas ko'zga chalinadi. Hovuzdan izg'irin nafasi ufuradi. Kameron galereyasining baland marmar zinalari adl arg'uvonlararo qiyalab tushayotgan quyosh nurida yarqirab tovlanadi. Qilt etgan shamol yo'q, biroq arg'uvonlarning yaproqlari goh tanasini, goh bandini quyoshga tutib ohista shitirlaydi. Borliqni o'tkir, namxush bo'ylar tutgan, maysalar yashil alanga bo'lib yonadi, demak, kurrayi zamin uzra bahorning muzaffar yurishi boshlangani rost.

Xitoy devor tomondan bulbul nolasi eshitilardi. U shunchaki nola qilmasdi, polapon bulbulchani sayrashga o'rgatmoqda edi. Bulbul navosi uning beqiyos qudratidan dalolat berardi – u saboq yo'sinida sayraganida ham cheksiz havasga, zavq-u shavqqa to'lib sayrardi. Polapon bulbulcha esa Illichevskiyni eslatardi – neki ohang bo'lmasin, darhol ilib olar, mohirlik ila paydar-pay takror etar, biroq uning navosida sirli joziba, inson yuragi yanglig' dardli, qush yuragiga xos bezovta titroq sezilmas edi.

Bu „musaqa darsi“ qayerda bo‘layotgan ekan? Chamasi, Karamzinlarning qo‘rg‘oni ortidagi nastarinlar tepasida shekilli. Bulbulning tiniq, shikasta nolasi, balki, hozir Katerina Andreyevnaning ham tonggi oromini buzgandir... Parvardigor, unga baxt-saodat ato et, menga esa – sabr-toqat... Sen aqli, savodxon, to‘kis eringga meni sotding, uning ozoda, silliq qo‘llariga senga atab telbalarcha bitgan maktubimni tutqazding. U esa miyig‘ida beparvo kulimsirab qo‘ya qoldi, go‘yoki shu bilan kifoyalangan-dek bo‘ldi, ammo bundan ko‘ra yuragimga xanjar sanchgani afzal edi. Sizlar menga xuddi shunchaki sho‘xlik qilgan bolaga muomala qilgandek munosabatda bo‘ldilaring. Lekin men yosh bola emasman. Faqat o‘z sha’nimni himoya qilolmayman, xolos, ammo birov alam o‘tkazsa, qattiq kek saqlayman. Mayli, men seni afv etdim, seni deb xo‘rliklar tortganimga ham roziman, ammo uni aslo kechirmayman. Sen dilimdagi dardimni anglayolmading, ey sohibjamol, sohibtajriba ayol! Mayli, Xudoning hukmiga. „Ehtimol, payt kelar-u, meni eslab qon yig‘larsan!“. „Xo‘b yig‘larsan“, – deb tuzatdi u fikran, – yo‘q, „qon yig‘larsan“, bu yerda „qon yig‘larsan“ to‘g‘ri“. She’riy soddalik – xalqchil soddalik demakdir.

U bir lahza ortiga o‘girildi-yu, shu zahoti oldidagi daraxtning namxush, g‘adir-budur tanasiga yopishgancha tosh qotdi. Kameron galereysi tomondan tevarakka o‘g‘rincha nazar tashlab, plashga burkangan baland bo‘yli bir kimsa kelardi. Pushkin uni kaftdagidek, yaqqol ko‘rib-kuzatib turarkan, bu odam imperator Aleksandrning o‘zginasi ekanini bildi. Nizomga xilof tarzda – uchburchak harbiy qalpoqni qansharigacha bostirib kiyganga qaramay, imperatorning och-zangori tusdagi xafaqon, aldamchi ko‘zлari, oppoq paxtadek yanoqlari manaman deya o‘zligini fosh etib turardi. Pushkin go‘dak chog‘idan

tanish bu siymoga butun borlig'i bilan ko'z-qulqoq bo'lib, nafrat bilan tikilardi.

U Aleksandrni vujud-vujudi bilan yomon ko'rardи. Liberal monarx niqobidagi bu plats-mayorni, Yevropadagi eng mug'ombir kimsa bo'l mish bu chuchmal padarkushni u munofiqligi-yu oliftaligi uchun, mudom omadi yorligi-yu nodonligi uchun intihosiz nafrat ila yomon ko'rardи.

Hukmdorning xatti-harakatlari qandaydir g'alatiroq edi – uning o'zini tanitmoqchi emasligi shundoqqina sezilib turardi. Ammo bu urinishning zo'rma-zo'rakiligi taajjubli hol edi. Agar u chindan ham o'zini tanitish niyatida bo'lmasa, plashga shunday o'ranib olishi mumkin ediki, yuzma-yuz turgan kishi ham taniyolmasdi, yoinki boshiga o'tgan-ketganning diqqatini bextiyor tortadigan uchburchak qalpoq emas, oddiygina gusarcha qalpoq kiyib olgan bo'lur edi. Qolaversa, daraxtlar oralab, ichkariroqdan sezdirmaygina o'tib ketishi ham mumkin edi. Unda... u nega har qadamda to'xtaydi, go'yo xavotir olayotgandek, xijolat chekayotgandek atrofga hadik va ayni paytda viqor bilan boqadi? Axir, Shohchorbog'da faqat litsey talabalarigina emas, saroy xizmatchilari va navbatchi ofitserlar ham yurishini, gusar va ulanlar xuddi o'z uyidek bemalol kezishini, hatto xilvat xiyobonlar qo'ynida xonimchalar, aktrisalar va oqsochlar, shaharlik amaldorlarning qizlari hamda ularning muhtarama rafiqalari bilan visol onlari o'tkazishlarini imperator juda yaxshi biladi-ku! Bas, shunday ekan, uning bu taxlit soxta bekinmachoq o'yini sariq chaqaga ham arzimaydi. Aslida, bekinish uning xobi-xayolida ham yo'q. Hamisha, hamma ishda ustasi farang hukmdor bu safar ham mo'ljalni uzoq olgan edi: hozir uni kimdir shu holatda ko'rsa-yu, ertasiga sershavq imperator yangi ishqiy savdo boshlagani haqidagi mish-mish qulqlarini qizdirsa!..

Pushkin Aleksandrni visolga oshiqayotgan jazman qiyofasida ko'rganini hech kimga aytmaslikka ahd qildi. Mening qasosim shu bo'ladi. Qalbaki soxt-sumbating g'azab dengizim ichra g'arq etiladi. Endi ober-g'iybatchi vraching Vile qulog'ingga xush yoqadigan mish-mishni hech qachon shipshiy olmaydi. Darvoqe, nima uchun podshoh xonadonida „Vrach istifoda etadi“, deb gapi-radilar? Axir, vrach qanday qilib, nimani istifoda etadi?! Vrach davolaydi. Janoblar, aslo istifoda etmaydi! Boya Natalyaning huzurida paydo bo'lgan g'ashlik boisi endi ayon bo'ldi: bepoyon rus davlatining poytaxtida oqsoch cho'ridan tortib podshohgacha, litsey havaskoridan tortib yurtning bulbulzabon shoirigacha – hech biri rus tilini bilmaydi, bari befahmlik, shafqatsizlik, behayolik bilan uni tahqirlaydi, bulg'aydi, tuproqqa qoradi... Biroq ne-ne qirg'in-qatag'onlardan keyin ham til baribir o'lmabdi, sof, tabiiy rus tili hayotning ulug' nahrlaridan bahra olib, xalq dilidan ruh olib, o'zligini, asl sarchashmalari tarovatini saqlay bilibdi...

Pushkin zalvorli qadamlar bilan tez-tez yurib bordi-da, ko'l yoqasidagi tor so'qmoqqa yetgach, yugura ketdi. Qalin, namxush o't-o'lan tizzalariga urilar, boshmoqlari, po-chalariga tonggi shabnam tomchilari sachrar edi.

Quyosh olamni munavvar yog'duga chulg'agancha tobora yuksakka ko'tarilib borar, biroq arg'uvonzo-ning zaxkash salqini hamon badanni junjiktirar edi. Oftob nuri tushgan har bir yaproq, har bir giyohda shu zahoti buyuk mo'jiza ro'y berardi – ranglar, jilolarning bu qadar nozik, bu qadar sehrli tovlanishlarini Pushkin umrida birinchi marta ko'rmoqda edi. Bir necha lahma ichida o't-o'lanlar, gul-chechaklar bargidan shudring ko'tarilib ketdi; qolgan bitta-yarimta tomchilar tonggi quyosh yog'dusida olmosdek yarqirab ko'zni olardi.

Tuman asta-sekin tarqab, Chesmen minorasining ko'kka sanchilgan zanjirband, nayzador qubbalarini bor go'zalligi va ulug'vorligi ila namoyon bo'ldi. Pushkin tun bilan tong visolining hayajonli damlarini intihosiz shodlik va hayratga to'lib kuzatarkan, nogoh oyoqlaridan mador qochib borayotganini, qovoqlari go'yo qo'rg'oshin osib qo'yilgandek og'irlashib ketayotganini his etdi. Butun vujudini bosib kelgan charchoq zo'riga dosh berolmay, azamat bir qayin tagiga tappa tashladi-yu, shu ondayoq shirin uyquga ketdi.

U ba'zan ohista bo'shashib borayotgan shuurida huzurbaxsh hordiq lazzatini tuygan ko'yi xuddi shu taxlit birpasda uxbal qolar, biroq hali hech qachon bu yanglig' sokin orom olmagan edi. Yana o'sha ilk ibtidoga – hayotining himoyaga zor, norasida, hur va beg'am pallasiga qaytgandek edi go'yo. U umrida hali hech qachon o'zidan ham, o'zgalardan ham bu qadar xilvatnishin bo'lman, Shohchorbog' uzra otib kelayotgan shu fusunkor tong og'ushida tanholikdan bunchalar farog'at tuymagan edi...

Shunda uni asir oldilar.

Hibschilar na qorovul, na saroy xizmatchilar, na saharxez o'tkinchilar edi.

Uni bandi etgan – daraxtlar edi. Ular uni to'rt tomondan qurshab oldilar-da, yaproqlari shivirlab, shoxlari shitirlagancha iltijo bilan yolvora boshladilar: „Bizga nom ato et, bizga ism qo'yib ber...“. „Axir, sizlarning nomlaring bor-ku?“, deya hayron bo'ldi u uyqusida. „Yo'q! Yo'q! – deya faryod chekardi daraxtlar. – Bizning nomlarimiz unutilgan...“. „Men – qayrag'ochman, Pushkin, shunchaki daraxt emasman...“. „Men – qayinman!...“. „Men – arg'uvon!...“. „Men – qarag'ay!...“.

Daraxtlarning g'amgin, muloyim tovushiga endi ko'nika boshlaganida cheksiz yalanglikda yashil to'lqin

urib yotgan maysalar ohista tilga kirdi: „Biz ham hanuz benom yuribmiz, Pushkin, bizni ham unutma! Biz shunchaki o‘t-o‘lan emas, har birimizning o‘z jonimiz, o‘z nomimiz bor!“. Va shundan so‘ng birdaniga yarqirab gul-chechaklarning rango-rang raqsi boshlandi, tevarak hasharot-u parrandalarning turfa tovushlariga to‘lib ketdi. Qandaydir bahaybat qora qush ko‘zlarini ola-kula qilgancha tinimsiz qag‘illardi: „Men – qarg‘aman, qarg‘a, men quzg‘un emasman, men – qarg‘aman, qarg‘a!“. Shox-shabba-yu o‘t-o‘lanlar orasidan xilma-xil jonivor-u darrandalarning tumshuqlari ko‘zga chalinardi. Ularning har biri o‘ziga nom so‘rardi, o‘z tabiat, sha’ni va mohiyatiga monand ism bilan atalishini talab qilardi. Boyagini osuda jimirlab turgan hovuz ham endi o‘ziga munosib ism so‘rab, qirg‘oqqa bosh urgancha yolvorardi, hatto siyrak kulrang bulutlar-u ko‘hna quyosh ham asl nomini so‘rayotgandek osmoni falakdan umidvor termilardi. Keyin... ularning barchasi aralash-quralash bo‘lib, jo‘rovoz bo‘lib shunday g‘alati manzara kasb etdiki, Pushkin beixtiyor „To‘xtanglar!.. Shafqat qilinglar!“ deya qich-qirib yuborayozdi. Faqatgina tirik mavjudotlar emas, balki dardi yo‘q, ishqdan mosuvo, befahm kimsalar tomonidan toptalgan so‘zlar ham o‘zlarining asl ma’nosini, begona ohanglar-u siyqa lafzlar bilan bulg‘anmagan rang va tarovatini qaytarib berishni talab etgancha uning murg‘ak ong qopqalarini zaif bir isyon ila beto‘xtov qoqardilar. Va ularning barchasi bu aql bovar qilmas ulkan vazifa mana shu uxlab yotgan bolaning qo‘lidan kelishi-ga ishonar edi.

U tuyqus seskanib ko‘zlarini ochdi. Mijjalari nam edi. Yengi bilan ko‘zlarini artarkan, to‘satdan yig‘lab yubordi. Nega, ne sababdan? Taqdir unga tayin etgan qismat yukidan voqif bo‘lgani uchunmi? Bu yuk uning o‘smir

yelkalariga og'irlik qilmasmikan? Axir, hali uning barcha qatori beg'am-bexavotir yashagisi, Natalyanı bir umr sevgisi, Karamzinga dildan ta'zim aylab o'tgisi kelardi; u hali yana ko'plab sho'x va qaltis she'rlar yozmoqni, eski jo'ralariga muruvvat bilan, yangi do'stlariga hayrat bilan ulfat bo'lmoqni, har qanday bahslarda mudom zafar qozonmoqni istaydi. Ammo, nega endi buning o'rniga u jamiki so'zfurushlar gunohini bo'yniga olishi, borliq mavjudotga nom topib berolmagan farosatsiz safsatabozlar jabrini tortishi kerak? Yo Rab, nega endi o'zgalar gunohi uchun u javob bermog'i lozim? So'zni asl ma'nosi bilan yakqalam qilmoq, betartib tovushlar olami ichra narsa-hodisalarning haqiqiy mohiyatini topmoq, turli-tuman kelgindilar, ro'dapo ruhoniylar, nemis professorlari istagancha buzib, butkul abgor qilgan adabiy tilga yangi ruh, yangi hayot bag'ishlamoq – nahotki, bularning barchasi bir odamning qo'lidan kelsa?!

U o'ksigancha to'lib-to'liqib yig'lardi. Chunki endi bolalik tugagan edi. Litsey binosining to'rtinchi qavatidagi dim xonalarda maza qilib uxlayotgan navqiron shuhratparast va xayolparastlar, bo'lg'usi shoir va donishmandlar, sodda va mug'ambirlar hamon bolalik og'ushida; qismat yolg'iz unigina shu mashaqqatli mehnatga saylab olgan edi. Natalyaning katalakdek hujrasida uni ilk bor bag'riga bosganida bolalik tugadi, deb o'ylagan, biroq unda ruhi erkin qolavergan edi. U payt dilida mas'ullik hissi yo'q edi: faqat shu tuyg'ugina insonning chinakam balog'atidan dalolat beradi. Endi, bundan buyon nimaiki qilmasin, qanchalik zo'r berib urinmasin, taqdir ato etgan qismat yukidan baribir qochib qutulolmaydi. Endi tamakining achchiq tutunida ham, sharobning ko'pirib toshgan mavjalarida ham, aylol lablarining beqiyos lazzatida ham doimo shu tuyg'u –

kimning huzurida, qachon zimmaga olingani noma'lum o'sha majburiyat tuyg'usining yuki bosib turadi...

Pushkinning eng yaqin yor-do'stlarigina emas, uni bazm-u tomoshalarda, sho'x-shan davralarda, sayr-u sayohatlarda chetdan kuzatadigan kishilar ham shoirda g'alati bir odat paydo bo'lganini payqadilar: u to'satdan jimgina g'oyib bo'lib qolar, izlab borilganda esa tirik jon ovozi yetmaydigan ovloq go'shalarda tanho o'zi xayolga cho'mib o'tirgan bo'lar edi. Bu hol o'sha sehrli Shohchor-bog' tongidan – jingalaksoch bir bola o'zining kimligi-yu dunyoga nega kelganini anglagan o'sha karomatli tushdan so'ng boshlangan edi.

*Rus tilidän  
Xayriddin SULTONOV tarjimasi*

---

*Sidoni Gabriel KOLLET*  
(Fransiya)

## IKKI KISHILIK STOL

– Ikki kishilik dasturxonmi? Qani, mana bu yoqqa marhamat qilsinlar, janob. O‘, xonimingiz nihoyatda lato-fatli ekan! Siz uchun ataylab deraza oldidagi joyni tanladik, ko‘rfaz manzarasidan bahra olib o‘tirasizlar-da! Qalay, ma‘qulmi? – deya mulozamat ko‘rsatdi ofitsiant.

Alisa xursand bo‘lib eriga qaradi:

– Ha, albatta! Bo‘lmasam-chi! – dedi quvonchdan ko‘zлari chaqnab. – Mark, azizim, bu yerda biz o‘zimizni xuddi dengizda, qayiq ichida tushlik qilayotganday his etamiz! O, qanday ajoyib! Bu yerni...

Ayolning gapi og‘zida qolib ketdi. Eri xotinining qo‘lini qattiq qisdi.

– U yerdan sal beriroqdagi joy ancha tuzukroq ko‘rinadi, chamamda.

– Anavi yoqdagi, deysanmi? Naq odamlarning o‘rtasida-ya? Lekin menga ko‘proq...

– Alisa, jonginam, iltimos.

Mark ayolining qo‘llarini yanayam mahkamroq qisdi. Bu gal u shunday harakat qildiki, Alisa beixtiyor eriga o‘girilib qaradi.

– Nima gap? Senga nima bo‘ldi?

– Tss..., – dedi Mark barmog‘ini labiga ohista bosib. U xotiniga bor vujudi bilan tikilib turardi. Alisani tamad-dixona o‘rtasidagi stol tomon boshladi.

– Nima gap, Mark? Tinchlikmi? – xavotirlanib so‘radi Alisa yana.

– Keyin aytib beraman, azizam. Kel, avval taom buyur-tiraylik. Xo‘sish, nima yeymiz? Mayda dengiz qisqichbaqa-siga tobining qalay? Yo qovurilgan tuxum xohlaysanmi?

– Istaganing, azizim, menga farqi yo‘q.

Ikki yosh bir-biriga mehr bilan jilmayib qo‘yishdi. Keyin yonlarida tinmay raqsga tushayotgan bir to‘da odamlarni maroq bilan kuzatib o‘tirdilar.

– Unday bo‘lsa, birinchisiga mayda qisqichbaqadan bo‘la qolsin, – dedi Mark. – Keyin tuxum va tuzlangan cho‘chqa go‘shti ham yeymiz. Yana jo‘ja kabob bilan italyancha salat olsak. Bugun bir maza qilib o‘tiraylik, a, Alisa? Shoshmang, – dedi u shunda ofitsiantga yuzlanib. – Yodimdan ko‘tarilayozibdi, yana ikki finjon qora qahvadan ham olib kelsangiz.

Shunday dedi-da, u yana Alisaga qarab gapida davom etdi:

– Haydovchimiz ham tushlik qilayotgandir hozir. Demak, taxminan ikki soatlardan so‘ng ketsak ham bo‘ladi. Bu yog‘idan tashvishlanma. Ikki soat davomida bemalol dam olsak bo‘ladi.

Bir muddat shunday gaplar bilan o‘zini nimadandir chalg‘itgan Mark, nihoyat, yengil xo‘rsinib, go‘yo ichidagi og‘ir bir toshni sal bo‘lsa-da qo‘zg‘atgandek biroz yengil tortdi. So‘ngra u hayotining mazmuniga aylangan, chiroyli shlapasi ustidan ro‘molini nafis tang‘ib olgan go‘zal xilqat – umr yo‘ldoshiga nigohlarini qadadi.

– Sen juda dilbarsan, jonim! – dedi u rafiqasining nurli chehrasidan ko‘zini ololmay.

– Manavi dengiz suvi esa sening jozibali ko‘zlaringga ajib zangorilik bag‘ishlab, husningni yanayam oshirgan. O‘zing ham bir ko‘rgin-a, Alisa! Buning ustiga, sayohat-

ma-sayohat yuraverib ancha vazn tashlagansan. Faqatgina... Sen o'zing ham shu malohatni qalbing bilan xuddi menday his qila olishing kerak, Alisa, eshityapsanmi?!

Ayol erining so'zlarini butun vujudi bilan tinglar, unga bo'lgan mehri yana-da oshardi.

Mark to'satdan jiddiy tortib, ayolga sinchkov ko'zlarini tikdi.

– Alisa, bilasanmi, hozir bu yerda senga notanish, ammo menga judayam tanish bo'lgan odam bilan bitta tamaddixonada o'tiribsan.

– Menga notanish bo'lgan odam?

– Ha... Ya'ni, o'sha odam – mening sobiq xotinim.

Shu payt ayolning ko'zları hayratdan katta-katta ochilib ketdi, u qanday so'z bilan ayni damda ichida kechayotgan kuchli g'alayonni ifodalashni bilolmay, qotib qoldi.

– Xo'sh, nima qipti?.. – deb og'iz ochdi u nihoyat. – Uning bu yerdaligining bizga nima ahamiyati bor? Axir... u sen uchun muhim inson emas-ku, Mark... – Alisa shunday deb o'zini biroz chalg'itgani bilan, baribir barcha ayollarga xos qiziquvchanlik ila erini qator savollarga ko'mib tashladi:

– Uning o'zi seni ko'rdimi? Yo sening unga qaraganngni payqab qolmadimi? Qani, qayerda turibdi? Mark, o'shani menga ko'rsatib yuborolmaysanmi?

– Hozir emas, iltimos. U bizni kuzatayotgan bo'lishi mumkin... Zimdan nazar tashla: Huv ana – jigarrang sochli, boshida shlapasi yo'q, yalangbosh ayol. Ko'rding-mi? U shu mehmonxonada turgan bo'lса kerak.

– Hmm, tushunarli.

Alisa ko'pgina ayollar orasidan, axiyri, uni ko'rib olishga erishdi. U ayol erining o'n besh oy muqaddam turmush o'rtog'i bo'lgandi.

– Bema'nilik, – dedi Mark g'ashi kelib. – Menga bu hol umuman yoqmayapti... Turgan-bitgani bema'nilik!

To‘g‘ri, biz madaniyatli kishilarday jimgina, janjalsiz ajralishdik. Keyin mening hayotimga farishta misol sen kirib kelding. Men seni sevib qoldim va sen ham men bilan bir umrga baxtiyor bo‘lishni istading. Bizning baxtimiz atrofdagi har qanday g‘alamislар ig‘vosi-yu hasadgo‘ylar hiylasidan omon qoladi! Menga ishon, azizam!

O‘sha boshyalang, jigarrang sochlari yelkasini qoplab, to‘zg‘itib yotgan ayol hech kim bilan ishi yo‘q, parvoysi falak, ko‘zlarini yarim yumgancha sigara tortib o‘tirardi. Alisa undan ko‘zlarini oldi-da, eri tarafga o‘girildi.

Dasturxonida qovurilgan qisqichbaqaga titroq qo‘llarini uzatdi-da, shoshilmay yeya boshladi. Oraga bir necha soniyalik sukonat cho‘mdi. Oxiri Alisa chidolmay so‘radi:

– Nega sen menga uning ko‘zlarini ko‘k ekanini aytma-ganding?

– Buni aytish sira xayolimga kelmagan ekan!

Mark xotinining nonga uzatgan qo‘llarini olib, ohista o‘pdi, Alisa xotirjam qiyofaga kirdi.

Asta-sekin tamaddixonani oqshom pardasi chulg‘ay boshladi, atrof tobora qorong‘ilik bag‘riga singib, devor-larga uzun-qisqa ko‘lankalar soya tashladi. Alisaning ham ko‘nglini qandaydir notinchlik bosib borar, nimadandir tashvishlanar, joyida tinch o‘tirolmasdi. Uning ko‘zlarini hadeb odamlar orasidan jigarrang sochli, sigara tutatib o‘tirgan ayolni qidirardi.

Mark turmush qurbanlaridan buyon xotiniga qildek ham yomonlik qilmagan, bor-budi bilan Alisani xursand qilishga urinardi.

Ular ancha payt gaplashmasdan ovqatlanishdi, miriqib o‘tirganday bo‘lishdi, ammo har ikkisining ham xayoli o‘sha „jigarrang soch“lida edi. Ora-orada Alisa qattiq kulib yuborar, Mark bo‘lsa uning har bir xatti-harakatidan hush-yor o‘tirar, Alisaning bosh burishlari-yu, qayerga ko‘z tash-

lashlarigacha nazaridan qochirmasdi. Ular buyurtma qilgan qahvalarini uzoq vaqt kutib qolishdi. Ufq shu'lasi ostida yotgan poyonsiz dengiz sathiga uzoq tikilishdi. Dengiz ko'zni qamashtirguday yal-yal tovlanib turardi.

— Mark, — dedi Alisa eriga biroz sarosima aralash. — U haliyam shu yerda.

— Bu seni bezovta qilyaptimi? — dedi Mark xotinining vahimasini pisand qilmaslikka urinib. — Qahvamizni boshqa biron xoliroq yerga borib ichaylikmi? Nima deysan?

— Yo'q, yo'q! Aslo! U menga nega halal bersin? Menimcha, u bu yerda yomon dam olmayotgan ko'rindi, raftorini ko'ryapsan-ku o'zing! Nima, endi uni deb shunday shirin o'tirishimizni buzishimiz kerakmi? Hecham-da!

Mark sigarasini olib tutatdi-da, xuddi ayni damda sobiq xotini chekayotgani singari burnidan pag'a-pag'a tutun chiqardi.

So'ng Mark jiddiy qiyofaga kirdi. U endi hech narsani yashirmay, bor jinoyatini fosh qilish fursati yetganini anglagan aybdor kabi so'zlay ketdi:

— Yo'q... Yo'q, — dedi u o'ychan bosh chayqab. — To'g'risini aytganda, u men bilan sirayam baxtli bo'lomadi. Ehtimol, men o'zim u kutgan baxtni berolmaganadirman? Ehtimol, u men tufayli baxtsizdir...

— E, sen uning yurish-turishiga bir qara. G'irt takasaltangku! Nega sen o'zingni gunohkor hisoblapping kerak, azizim?

Mark yuzlari kuchli hayajondan qizarib, nozik barmoqlari asabiy titrayotgan xotinining butun vujudiga mehr-muhabbat to'la ko'zlarini qadadi.

— Mening butun fikr-u xayolimni o'g'irlagan jinoyatchi bu — sensan, jonim... Sen... Sen naq farishtaning o'zginasan... Sening sevging... Sening ishq to'la nigohlaringni har on ko'rghanimda, beixtiyor entikib ketaman. Sening nigohlaring bo'lakcha, Alisa. Uni men qanday qilib sendek mas'ud qilishni bilolmadim, bor-yo'g'i shu, xolos.

– Uning o‘zi shunga munosib ekan!

Alisa yana asabiylashib, yengil qaltiray boshladi, yana o‘sha jigarrang sochli tannoz xonimga tez-tez alamnok qaradi. U ayol bo‘lsa hamon hech kim bilan ishi yo‘q, parvoysi falak, baland kursisi orqasiga boshini tashlagancha haliyam sigara tortib o‘tirardi. Uning nigohlarida horg‘inlik, loqaydlik va alam aks etardi.

– Sen haqsan, – deb iqror bo‘ldi Mark Alisaga yuzlanib. – Nimayam derdim? Baxtiqaro odamlarga faqat achinish kerak, xolos. – Keyin esa o‘zgacha bir g‘urur bilan xotiniga baland ovozda xitob qildi:

– Biz baxtiqaro emasmiz! Biz juda-juda baxtlimiz! Shunday emasmi, azizam?

Alisa indamadi. U erining yuziga sinchkov tikilib qolgandi. U Markning chehrasidan o‘zi uchun xufiya bir belgini, nosamimiy biron alomatni qidirar, erining qalin, qora sochlari-yu oppoq, uzun-uzun barmoqlariga ziyraklik bilan boqar ekan, ich-ichini ayovsiz qiynoq timdalardi. U ilk marotaba shuncha vaqt ardoqlagan, ishongan eridan shubha qildi. Qandaydir xavf borday hushyor tortdi. Xayolidan „Ehtimol, birinchi xotini haliyam Markning ko‘yida yurgandir?..“ degan fikr o‘tdi.

...Nihoyat, ular ko‘ngilsizliklarga makon bo‘lgan tamaddixonani tark etishdi. Mark hisobni to‘lagan zahoti haydovchisini chaqirdi. U go‘yo hech nima yuz bermagan-day yo‘l bo‘yi haydovchisi bilan chaqchaqlashib ketdi. Alisaning xayolidan esa o‘sha sigara tortib o‘tirgan Markning shirakayf sobiq xotini ketmas, u har nafas „Balki, u erimni qidirib, ortimizdan quvib kelayotgandir“, degan vahima bilan ortiga qarar, tashvishdan yuragi taka-puka urardi.

*Ingliz tilidan  
Qandilat YUSUPOVA tarjimasi*

## **XONIMLAR KUNI**

Inson bitta odamga bitta voqeani ming marta, har safar bir xil jumlalar bilan hikoya qilib berishi mumkinmi? Nahot shunday qilib bo'lsa?

Seni ko'rmay-bilmay sog'inayotganimning nechan-chidir kuni. Anqara-Istanbul orasidagi o'tgan yozdan qolgan shamollar xonamning ochiq derazalaridan kira-di. Atrofda kitoblar, daftар va yana allaqanday qog'ozlar sochilib yotibdi. Men esa yozishdan to'xtamayman. Narigi xonaga olib kiruvchi eshikdan g'arib bir kulgi-ning qo'rg'oshinday og'ir saslari eshitiladi... Hech qan-day maqsadsiz, orzu-umidlarsiz ayollarning qahqaxasi... Kulgi saslari tobora balandlaydi, to'lqin-to'lqin bo'lib xonamga yoyiladi. Narigi xonadagi ayollarning bir vaqt-ning o'zida ham kulib, ham kimnidir qarg'ashga, la'nat-lashga kuch topolgani meni hayron qoldirardi. Yaxlit bir suhbat ichida besh xil mavzu muhokama qilinadi. Dengizdan daryolarga tarqalayotgan suvlar kabi ajralgan mavzu oqimlari bir-biriga qorishib ketardi. Mening xayolimda esa faqat ishq dolg'alanayotir. Tushunyapsanmi, ular shu yerda! Narigi xonada o'tirishibdi. Hech narsadan bexabar g'iybat o'chog'iga o'tin qalashmoqda. Bugun xonimlar kuni bo'lgani uchun kimdir ularni biznikidagi ziyofatga chaqirgan. Xolalar, onalar, buvilar tuz yig'il-gan tizzalariga titroq qo'llarini qo'ygancha nimalarmidir vaysashadi. Ularning atrofida qaysidir qarindoshning

o'g'limi yo qizimi aylanadi. Eski gina-kudratlarning badbo'yи havoga yoyiladi.

Uy sohibining kech kelgan mehmonga qilgan ginasи, mehmonlarning bir-biridan qilgan o'tmisgina... Bu ginalarning hidi anjir va dolchin tayoqchalari hidiga qo'shilib xonani to'ldirib yuborgandi. Ha, havoda yana mening sog'inchimdan tarqalgan ismingdek latif bir is ham bor ediki, buni o'sha amma-xolalar sezishga ojiz.

O'mimdan turib tashqarilayman. Ikki qadam yursam senga, zinalar ostidagi maxfiy xonamga yetaman. Ammo.. men bu ayollarni tashlab keta olarmikanman? Ularsiz yashay oladi, deb o'ylaysanmi meni? Hay mayli...

Bu ayollarga aralashib ketolmayman, ammo uzoqlashish ham qo'limdan kelmaydi.

Kishibilmas bir xotirjamlik ila yerga cho'kaman. Tinglayman. Tinglarkanman, seni eslay boshlayman...

Esingdami, har bir yangi kun eskisini takrorlayverar, biroq u nimasi bilandir o'zining boshqalarga o'xshamasligini bildirib qo'yaverardi. Har bir lahzaning o'ziga xos ohangi bor edi. Narigi xonadagi ayollar ham yashaganmikan shunday kunlarni? Ular ham xonimlar kunida men kabi kimnidir... kimdandir o'zi-da bilmas nenidir kutganmikan? Ularning vaysashlarini ko'p eshitganman. Suhbatlasharkan, o'sha amma-xolalar ming xil mavzuni o'rtaga tashlaydilar. Men esa bu mavzular ichidan uchtagina harfli so'z – Ishqni qidirardim. Ilinj bilan boqardim ularning yuzlariga. Hech bir yangi narsani sezmasdim. Bu yerda qay bir ayolni g'iybat qilayotgan xolamni, aniq bilaman, boshqa yerda boshqa xotinlar g'iybat qilishyapti. Boya aytganimdek, bir odam ayni bir odamga bitta voqeani bir xil so'zlar bilan ming martalab aytib berishi va bundan ming martalab zavq ola bilishi mumkinmi? Mumkin ekan. Ular bir-birlariga o'n yil avval o'lgan o'gay tog'asining

xotini kim bilan ketib qolgani-yu, uch yil oldin ketib qaytmagan qo'shnilar haqida hikoya qilaveradilar. Buni hatto men yodlab olganman. Birdan ichim to'lib ketadi. Xonimlar kunida ham shunday xotirjam bo'lish mumkin-mi? Ularni yaxshi ko'raman, biroq yuragimning tubida nafratmi, kuduratmi, qandaydir mendan avval tug'ilgan sezim bor bu ayollarga nisbatan. Xonimlar kunida yig'ilgan bu urug'-aymoqlar bir-birlariga nima uchun talpini-shini bilarmikan?

Bola edim. Onam etagi bilan burnimni artib qo'yidiyu, ayollar orasiga qo'yib yubordi. Men bir chekkada ularning gap-so'zlarini, nigohidan taralayotgan allaqanday hidlarni va o'zimning feruzarang jimligimni tomosha qilib o'tirardim. Nima ham der edim ularning orasida? O'z o'rmim bo'lмаган joyda o'z so'zim bo'lishi mumkin-mi? Kimning qizi to'rda, kimniki poygakda o'tirganining menga nima farqi bor? Undan ko'ra timmay javrayotgan xolalarimning devorga tushgan soyasiga qarab, soyalar teatrida o'tiribman, deb tasavvur qilib qo'ya qolsam-chi? Ehtimol... ehtimol, umrimning eng baxtli damlari shu davralar ichra o'tayotgandir? Mayli, nima bo'lganda ham meni doim aytilgan emas, balki aytilmagan so'zlar ko'proq qiziqtirgan.

Axir, ko'rmaysizmi, ular xonimlar kunini nishonlash-mayapti. Men uni bir billur sukunat bilan qarshi olmoqchi edim. Nima deysiz endi, narigi xonada bazm bo'layotir. Ular baland pardalarda suhbatlashishardi. Bir-birlariga shu qadar ichki nigoh bilan qarashardiki, bilmagan odam bu xotinlar bir-birlarini ilk daf'a ko'rib turishibdi, deb o'ylardi. Mayli, menga nima? O'zimni amma-xolalarim-ning so'zlaridan taralayotgan islar oqimiga otaman. Su-zib borarkanman, ichimda kimdir, kun kelib sen ham shu befahm xotinlardan biri bo'lasan, deyotgandek bo'lardi.

O'tirgan yerimdan turib ketaman. Ichkariga kirishni xayolimga ham keltirmayman. Ko'nglim hech nima tilamasi. Hech narsa yozmoqchi ham emasman. Na o'qish, na qayernidir timirskilash, na o'y lash, na yashash... na o'lish... Hech narsani istamasdim. Ammo... axir, bugun xonimlar kuni-ku! Zinalardan ilgarilayman. Kirganimni ko'rib xotinlar bir jim bo'ladi-yu, ichlarida, salom ham bermaydi befarosat, degancha yana vaysashga tushib ketishadi. Xolam va qo'shni ayolning orasiga tiqilaman. Yana xonimlar kuni haqida o'ylay boshlayman. Kimdir bir lagan shirinlik qo'yadi oldimga. Yonimdagilarning gap xaltasi kattaroq ochilib, yuz martalab eshitganim – Rafiqa xonimning kechki sayrda erini begona ayol bilan qanday ushlab olgani haqidagi hikoya boshlanadi. Bu voqeani hali eshitmagan, davraga yangi kelgan kelinlar ham Rafiqa xonim ammasining qiziday oraga luqma tashlab qo'yadi. Men esa jimman. Faqat jim. Axir, bugun xonimlar kuni ekanini ular bilmasa, men aybdor emas-ku? Og'zimda yetilib pishgan anjirning ta'mini tuygancha ularni tinglab o'tirishdan boshqa ilojim yo'q. Men... doimgidek jimman.

*Turk tilidan  
Mirzohid MUZAFFAR tarjiması*

## NON

Qo'shtabaqa eshik ochilib, barakka osh-ovqat tarqatuv-chi kirdi. U qorda yalt-yult akslanayotgan keng, taram-taram tong yog'dusiga turib oldi. Har yoqdan: pastdan – kat ostidan, to'g'ridan, yondan, tepadan – to'rt qavatlari ustidan ikki mingta ko'z unga tikildi, madori qurib bitmaganlar katning yuqorisiga sudralib chiqib olardi. Bugun selyodka kuni. Yemak taqsimlovchining ketidan bir dunyo baliq zalvoridan qariyb ikkiga bo'lingan katta faner patnis olib kirishdi. Patnis ortidan ko'z qamashtirar oppoq pochapostinda nazoratchi ko'rindi. Selyodka ertalablarini yarimtadan kunora beriladi. Bunda qancha oqsil-u kaloriya taqsimlaganini hech kim bilmasdi, itga ham kerak emas bunaqa hisob-kitob. Yuzlab odamlar birgina so'zni shivir-laydi: dumchalar. Qaysidir „alloma“ boshliq mahbuslar psixologiyasini hisobga olib, nuqlu yo selyodka boshini, yo dumini tarqatishga buyruq bergandi. Unisining ham, bunisining ham afzalliklari ming marta muhokama qilin-gan: baliq dumida go'sht oz miqdorda bo'lsa ham mo'lroq bo'ladi, lekin baliq boshidan ko'proq huzurlanish mumkin. Jabralarini so'rib, boshini g'ajir ekansan, yemakni yutish jarayoni cho'ziladi. Selyodka tozalanmasdan beriladi, bundan hamma mamnun: axir, suyaklari, terisi bilan yeish mumkin bo'ladi-da. Biroq hozir hammaning og'zidan suvi qochdi, bugun selyodka dumlari berilarkan. Ustiga ustak, patnis ham yaqinlashdi va eng hayajonli

damlar boshlandi: kimga qaysi bo'lak tushishini o'zgartirib bo'lmaydi, e'tiroz bildirish ham befoyda, barchasi omadning qo'lida – dov ochlik bilan kechadigan o'yindagi qartaga bog'liq. Baliqni beparvolik bilan kesayotgan odam o'n gramm ko'p yo ozligi – o'n gramm-a! – qonli fojiaga olib kelishini tushunmaydi (yoki shunchaki unutib qo'yadi). Ko'zyoshlar haqida-ku gapirmasayam bo'ladi. Ko'zyoshlar tez-tez bo'lib turadi, lekin yig'layotganlarining ustidan hech kim kulmaydi – tushunadi.

Yemak tarqatuvchi yaqinlashar ekan, har kim o'ziga aynan qaysi bo'lak tushishini taxminlaydi. Har bir mahbus qayg'uga botmoqqa, sevinishga, mo'jizaga shaylanmoqqa, basharti hovliqib adashgan bo'lsa, tushkunlikka tushishga ham ulguradi. Ba'zilar hayajondan ko'zini qattiq yumib olgan, yelkasidan turtib, qo'liga ulushini tutqazishgandagina ko'zini ochadi. Kir qo'llari bilan selyodkani changallab ola-di, tezgina ezib-netib ko'radi – qanaqasi tushdiykin, quruq suyakmi yo yog'lirog'imi (holbuki Oxota selyodkalari seryog' bo'lmaydi, qo'lning bu harakatlari, aslida, mo'jiza-ga topinishdan boshqasi emas), so'ngra atrofidagilarning qo'lidagiga tezgina nazar tashlaydi, ular ham boshqalarga o'g'riqarash qiladi va baliq dumini paypaslab ko'radi. U selyodkani yemaydi. Yalab-yulqab, qoq suyagini qoldiradi. Keyin esa suyakchalarni chaynashga tushadi, avaylabgina chaynaydi, suyaklar ham eribgina ketadi. Endigi navbat nonga – ertalab bir sutka uchun besh yuz gramm non beriladi – chimdib-chimdib og'izga solinadi. Nonni hamma birdaniga yeysi – shunisi ma'qul, hech kim o'g'irlamaydiyam, tortib olmaydiyam, nonni asrashga kimda kuch bor deysiz. Faqat shoshmaslik kerak, suv bilan yamlamay yutmaslik kerak, chaynamaslik kerak. Misoli shakarday, obakidandonday so'rish kerak. Ana endi bir do'lcha choy-nonning kuyindilaridan qoraygan iliq suvni simirish mumkin.

Selyodka paqqos tushirildi, non yutildi, choy ichildi. Badanga issiq kirib, ayyor tomir urib qoladi, yotging keladi, ammo kiyinish kerak – kechasi adyoling bo‘lgan uvadasi chiqqan paxta nimchani egningga tashlaysan, yostig‘ing bo‘lib xizmat qilgan yirtiq-yamoq qavima bosma chakmon etagini arqon bilan bog‘laysan, shoshish kerak, eshik allaqachon lang ochiq, tikanli simto‘r ortida soqchilar va itlar turibdi...

Biz-karantindamiz, terlama karantinida, ammo bizni bekorchixo‘jalikka qo‘yishmaydi. Ishga haydashadi – ro‘yxat bo‘yicha emas, shunchaki darvozadan besh kishi-besh kishidan sanab o‘tkazishadi. Har kuni nisbatan yengilroq ishga o‘tishning ishonchli usuli bor. Faqat sabrbardosh kerak. Yengilroq ishga kam odam olishadi: ikki, uch, to‘rt kishi. Yigirma, o‘ttiz, yuz kishilab olinadigan ish – o‘ta og‘ir ish, ko‘pincha yer qazish bilan bog‘liq bo‘ladi. Garchi mahbusga ish joyini oldindan aytishmasa ham, u buni yo‘ldayoq biladi, bu dahshatli lotoreyada omad sabrli odamlarga kulib boqadi. Orqaga, begona qatorga qisilish, chetga chekinish va kichik guruhlarga bo‘lishayotganda oldinga intilish lozim. Katta guruhlar uchun eng nafi tegadigani – omborda sabzavot saralash, non zavodi, qisqasi, ish yemishga aloqador bo‘lsa bas. U yerda hamisha og‘izga tiqish mumkin bo‘lgan qoldiqlar, siniqlar, bo‘laklar topiladi.

Bizni safga tizib, aprelning loy yo‘llaridan olib ketishi-di. Soqchilar etigi ko‘lmaklarda dadil shaloplaydi. Shahar chegarasida safni buzish mumkin emas. Loy ko‘lmakni hech kim aylanib o‘tmaydi. Oyoqlar nam tortadi, lekin bunga birov e’tibor qilmaydi – shamollashdan hech kim qo‘rqmaydi. Ming martalab shamollashdi odamlar, ustiga ustak, eng yomoni ham allaqachon sodir bo‘lgan – o‘pka yallig‘lanishi, ha, yaxshi-da, og‘risang, kasalxonada oyoq-

ni osmondan qilib yotasan. Qatorlar orasida uzuq-yuluq shivirlashadi:

– Nonzavodga, eshityapsizlarmi, nonzavodga!

Odamlar bor, qachon qarama hammasini biladi va to‘g‘ri taxminlaydi. Shunaqalar borki, har yerda yaxshilikni ko‘radi va ularning jo‘shqin mizoji eng mushkul vaziyatlarda doimo qismat bilan murosa izlaydi. Boshqalar uchun esa aksincha, barchasi yomonlik tomon og‘adi va hatto biroz yengillikka ham shubha ko‘zi bilan, taqdir xatosi sifatida qaraydi. Bu tafovut shaxsiy tajribaga kamdan kam bog‘liq bo‘ladi...

Ilinjimiz amalga oshdi – biz nonzavod darvozalari qarshisida qaqqayib turardik. Qo‘llarimizni yenglarimizga tiqqancha yigirma kishi belteshar shamolda depsinmoqdamiz. Chetga o‘tib olgan soqchilar chekishmoqda. Darvozadan o‘yib ochilgan kichkina eshikdan qalpoqsiz, ko‘k xalatda bir kishi chiqdi. U soqchilar bilan gaplashib, oldimizga keldi. Hammamizni asta ko‘zdan kechirdi. Kolima odamni psixologga aylantirib qo‘yadi, bir daqiqada ko‘p narsani uqib olish kerak. Yigirma juldurvoqi ichidan nonzavod ichkarisida, sexda ishlash uchun ikki kishini tanlab olish lozim. Bu odamlar boshqalardan baquvvatiroq bo‘lishi, g‘isht to‘la zambilg‘altakni ko‘tara olishlari kerak. Ular o‘g‘ri, kazzob bo‘lmasliklari kerak, negaki u holda ish kuni har xil uchrashuvlar, oldi-berdi yozishmalarga ketib qoladi. Ular ochlik tufayli o‘g‘irlik jariga yetib bormasliklari kerak, nega deganda sexda ularni birov qorovullamaydi. Yana qochishga moyil bo‘lmasliklari kerak. Ular...

Mana shularning barchasini bir daqiqada yigirmata mahbusning aftidan uqib olish kerak bo‘ladi.

– Chiq, – dedi menga yalangbosh kishi. – Sen ham, – barmog‘ini bigiz qildi seckilli bilarmon sherigimga. – Shularni olaman, – dedi u soqchiga.

– Mayli, – dedi soqchi beparvogina. Hasadgo'y nigozhlar bizni kuzatib qoldi.

Odamda beshta sezgi hech qachon birdaniga ishlamaydi. Diqqat bilan o'qiyotganimda radioni eshitmayman. Radioeshittirish tinglayotganimda satrlar dikonglab ketadi, garchi mutolaa avtomatizmi saqlanib qolsa-da, shunchaki satrlarga ko'z yogurtiraman va nogoh hozirgina o'qiganimni umuman eslolmayotganimni payqayman. Mutolaa jarayonida xayollaring tarqoqlansa ham shunday bo'ladi – aftidan, allaqanday ichki dastaklar ishlab ketsa kerak. Xalq maqoli – ovqatlanayotganimda, kar va gungman – barchaga ma'lum. „Ko'rman“ so'zini ham qo'shib qo'yish darkor, chunki ishtaha bilan tanovul qilinayotganda, ko'rish funksiyasi ta'm bilish sezgisiga yordamga o'tadi. Shkaf ichini paypaslayotganimda sezgilarim barmoqlarim uchiga jamlanadi, hech narsa ko'rmayman va eshitmayman. Hozir ham nonzavod bo'saxonasidan o'tishim bilan xayrixoh nigohlarni (bu yerda sobiq va g'irt mahbuslar ishlaydi) ko'zim ko'rmasdi, yalangbosh ustanning yarimtakki g'ishtlarni ko'chaga tashishimizni, narigi sexlarga o'tmasligimiz, o'g'irlik qilmasligimizni, shundoq ham qo'limizga non tutqazishini tushuntirar, ammo-lekin uning gaplari qulog'imga kirmasdi. Men qaynoq sex haroratidan, uzun ichakday cho'zilgan qish davomida badanim sog'ingan haroratdan bahra olardim.

Men non isidan, qaynoq moy hidi qovurilgan un isiga aralashib ketgan bo'lkaning quyuq iforidan yayrardim. Odamning ko'nglini sust ketkazadigan bu ifor zarrasini ertalablari hali yeylimagan nonimni hidlab tutib olardim. Lekin hozir bu is bor qudrati ila bechora burun kataklarimni yorib yuboray derdi.

Usta mubtaloligimga nuqta qo'ydi.

– Angrayib bo'ldingmi, qozonxonaga yur-chi.

Yerto'laga tushdik. Yog' tushsa yalaguday supurilgan qozonxonadagi go'lax stol oldida shеригим о'tirardi. Go'laxning ham egnida ustanikiday ko'k xalat, pechka yonida chekib turibdi. O'txonaning cho'yan eshikchasi teshigidan alanganing goh qizg'ishlanib, g'oh sarg'ishlanib to'lg'onayotgani ko'rinish turibdi, qozonxona devorlari olov talvasasidan titrab, guvullaydi.

Usta stolga choynak, bir do'lcha qiyom, bir bo'xanka oq non qo'ydi.

— Qorinlarini to'yg'az, — amr qildi go'laxga. — Yigirma daqiqalardan keyin kelaman. Ammamning buzog'iday cho'zilmasdan, tez-tez yeb-ichinglar. Kechga yana non beramiz, maydalab olinglar, yo'qsa lagerda tortvolishmasin.

Usta ketdi.

— Hah, urg'ochi-yey, — koyindi go'lax qo'lida bo'xanka ni aylantirib. — O'ttiz grammni urib qopti-ya, maraz. Hali shoshmay tur.

Ustaning ortidan chiqib, zum o'tmay qo'lida yangi bo'xanka bilan qaytib keldi.

— Qaynoqqina, — deb bo'xankani seckilli shеригимга uzatdi. — O'ttizligidan. Ko'rmaysanmi, yarim oq bilan aldamoqchi bo'ldi. Qani ber-chi. — Usta bizga qoldirgan nonni shartta oldi-da, o'txonaning og'zini ochib, nonni guvullab-uvullayotgan olovga tashladi. — Ana shunaqa, — dedi u tirjayib bizga o'girilgancha.

— Nega tashlading? — dedim. — O'zimiz bilan opketardik.

— Hali qo'llaringga tutqazamiz, — dedi go'lax. Na men, na sepkildor shеригим bo'xankani bo'lishga jur'at etolmasdik.

— Pichoq-michog'ing yo'qmi? — so'radim go'laxdan.

— Yo'q. Pichoq nimagayam kerak?

Go'lax bo'xankani ikki qo'li bilan osongina ikkiga bo'ldi. Nonning issiq, xush bo'yi taraldi. Go'lax bar-mog'ini nonning mag'ziga tiqib ko'rди.

– Fedka qurmag'ur zap pishiradi-da, – deb alqadi u.

Lekin Fedka kimligini surishtirishga vaqtimiz yo'q edi. Ovqatga tutindik, tilimiz kuyib-kuyib non va qaynoq suvni oshaladik. Butun badanimizdan qaynoq ter sel bo'lib oqardi. Shoshardik – usta allaqachon qaytib kelgandi.

Usta zambilg'altakni yarimtakki g'ishtlar yoniga kel-tirib qo'ydi, belkurak ham olib kelib, birinchisini o'zi solib berdi. Ishga kirishib ketdik. Darrov ma'lum bo'ldiki, ikkovimizga ham zambilg'altak o'ta og'irlik qilarkan, belimiz chiqib, qo'llarimiz shalvirab qoldi. Boshimiz aylanib, gandiraklab ketdik. Ikkinci safar zambilni men to'ldirdim, birinchisidan ikki barobar kamroq yuk soldim.

– Bo'ldi, bo'ldi, – deb yubordi sherigim. U mendan ham battar oqarib ketgandi.

– Dam-pam olinglar, yigitlar, – dedi kulib yonimizdan o'tib ketayotgan novvoy hech bir istehzosiz. Itoatgo'ylik ila cho'kdik. Usta yonginamizdan o'tib ketdi, lekin g'iring demadi.

Tin olgach, yana yeng shimardik. Biroq har ikki zambildan keyin tag'in o'tirib olaverdik – yarimtakkilar hech kamaymasdi.

– Chekib olinglar, yigitlar, – dedi qayoqdandir paydo bo'lgan haligi novvoy.

– Tamakimiz yo'q.

– Mana, men beraman popiris. Faqat tashqariga chiqish kerak. Bu yerda chekish mumkin emas.

Tamakini ikkiga bo'lib, allaqachonlar esimizdan chiqib ketgan huzur ila tortib-tortib chekdik. Men bir necha marta asta-asta tortib, avaylabgina popirisimni o'chirdim, qog'ozga o'rab, qo'ynimga yashirdim.

– To‘g‘ri qilasan, – dedi sepkildor sherigim. – Men o‘ylab ham ko‘rmabman.

Tushlik mahaligacha shunchalik ko‘nikib ketdikki, qo‘shti xonalarga ham mo‘ralaydigan bo‘ldik. Pechlardan g‘iyqillab temir shakl va tovalar chiqarib olinar, hamma yoqni non bosib ketgandi. Vaqtı-vaqtı bilan g‘ildirakli vagonchalar kelib turar, pechdan chiqqan nonlar yuklanib, kechasi biz qaytadigan yerga olib borilmaydigan allaqa-yerlargadir olib ketildi. Ha, bu oq non edi.

Panjarasiz kattakon derazadan quyosh botayotgani ko‘zga tashlandi. Eshikdan sovuq kira boshladı. Usta keldi.

– Qani, tugatinglar. Zambilg‘altakni o‘scha yerda qoldiraveringlar. Urvoq ham tashimabsizlar-ku. Bir haftadayam tugatolmaysizlar bu uyumni, landavurlar.

Qo‘limizga bir bo‘xankadan tutqazishdi, nonni maydalab, cho‘ntaklarimizni to‘ldirib oldik... Ammo cho‘ntakka qanchasiyam sig‘ardi?

– Shimining ichiga tiq, – amr qildi sepkildor sherigim.

Izg‘irin hovliga tashqariladik. Shom tushgan. Partiya allaqachon saflanibdi. Bizni lagerga olib ketishdi. Lager vaxtasida tintib o‘tirishmadi – hech kimning qo‘lida non yo‘q edi. Joyimga kelib, olib kelgan nonimni qo‘snilarim bilan baham ko‘rdim. Yotdim-u, nam tortgan, yaxlagan oyoqlarim isishi bilanoq uxbab qolibman.

Tuni bo‘yi bo‘xanka va o‘txonaning olovli og‘ziga non tashlayotgan go‘laxning shum basharasi ko‘z o‘ngimdan lip-lip o‘tib turdi.

Rus tilidan  
Saidjalol SAIDMURODOV tarjiması

## IQROR

Mamlakat sharqida joylashgan N shaharchasini bilasizmi? Bilmasangiz, o'kinmang sira, o'kinishga arzimaydi. Bunaqa shaharlar tiqilib yotibdi, hammasi bir go'r, gugurt qutisidek bir xil. Bitta-yu bitta ko'chasi yozda bilq-bilq tuproq, qishda, ayniqsa, qishning oxirlari – fevral oyida loy, balchiq, markaziy maydonida uchta cherkov qad rostlagan, uchta qovoqxona erta-yu kech ochiq, kinoteatri ol-didan nuqul odam arimaydigan fayzsiz shaharchani ko'z oldingizga keltiring. U yerlarda doim diqqating oshadi... yuraging siqiladi...

Men ana shunaqa shaharchada uzoq yashadim. Lekin siz meni mutlaqo tanimaganingiz uchun bu maskanda yashab, qanchalar qiynalganlarimni tasavvur ham qilolmaysiz. Darvoqe, gap men haqimda emas, demak, mening shikoyatlarim noo'rin. Baxtimga, u yerdan ko'chib ketganimga ancha bo'lgan. Men mana shu ovloq, noobod makonda uchratib, hamon unutmagan chinakam inson haqida hikoya qilib bermoqchiman. Negaligini hozir tushunib olasiz.

U oddiygina muhandis edi. Ismini aytganim bilan biron nima o'zgarib qolmaydi. Biz u bilan juda inoqlashib ketdik, nima sababdan shunday bo'lganini hozir hatto eslolmayman. Nafsilamrini aytganda men, aslida, odamlar bilan chiqishib ketolmaydiganlar toifasidanman. Shuning uchunmi, nari borsa uch-to'rtta o'rtog'im bor, xolos,

ular ham uylanish – iblis o'ylab topgan kashfiyat, deb hisoblaydigan ashaddiy eski bo'ydoqlar. Ular ko'pincha ayollar naslining tuzoqlaridan qanday hiyla-nayranglar bilan qutulib qolganlarini gapirib maqtanib yuradilar. Lekin muhandisning benuqson oilasini ko'rib havasim kelgani-da, ba'zan, o'ttiz yil muqaddam bir qizni... tashlab ketib juda katta xatoga yo'l qo'ymadimmi, deya o'ylab qolaman... E, nimasini aytay, endi foydasi bormi eslashning. O'tdi-ketdi, qaytib kelmaydi baribir. Qolaversa, o'zim haqimda emas, muhandis haqida hikoya qilib beraman, degandim, shekilli.

Xullas, mening tanishim yo'l qurilishi boshqarmasida yetakchi mutaxassislardan bo'lib, olib borilayotgan ishlardan doim ko'z-quloq bo'lib turishi lozimligi uchun shu shaharchaning o'zida istiqomat qilar edi. Tashqi ko'rinishidan u oddiy, bo'sh-bayov, o'rtta bo'y, o'ttiz beshga chiqqan, ko'zoynakli, sochlariqa oq oralagan yigit edi, o'zining sohasini suv qilib ichib yuborganidan tashqari o'ta bilimdon, buning ustiga kamtar va xushmuomala – nimasini aytasiz, tom ma'nodagi ziyoli kishi edi. Yana-yam soddaroq aytadigan bo'lsam – haqiqiy inson edi.

Ikkovimiz ham „ijtimoiy taomil“ degan narsani yomon ko'rardik. Biz doimo biron yerda ko'rishib, suhbatlashib o'tirardik va ochig'i (chunki men ham o'zimga yarasha nimanidir bilar edim), bir-birimizni juda yaxshi tushunar edik. Men muhandis do'stimning uyiga deyarli har kuni borardim. Yashirib nima qilaman, shoirlar vaf etguvchi „oshiyon“ nimaligini o'sha yerda his qildim. Injener, uning yoshgina mallasoch rafiqasi hamda do'mboqqina qizchalari havas qilarli darajada ahil va hamjihat hayot kechirishar edi. Uyda osoyishtalik, xotirjamlik, o'zaro hurmat va yakdillik hukm surardi. To'g'risi, bu xonadonga kelib, yolg'izligimni unutar edim, bir kunlik hayotim

menga olam-jahon ta'sir etardi, buning o'rmini boshqa hech narsa bosolmasdi.

Men ularning do'sti edim, deb bemalol ayta olaman. Faqat tan olishim kerak, qadrdon do'st deb bilishmasdi, shekilli. Chunki muhandis oilaviy sharoiti, turmushi haqidada sira gap ochmasdi. Yolg'on bo'lmasin, faqat bir marta, o'shandayam tasodifan yuz bergen voqeа tufayli biroz ko'nglini ochgan edi. Men ana o'sha voqeа haqida gapirib bermoqchiman.

Aprelning oxirlari, havo biram yoqimli, go'zal edi. Ehtimol, mana shuning ta'sirida qulfi dilimiz ochilib ketgan bo'lsa ajab emas.

Men kechki payt muhandisning uyida ovqatlandim. Yeb-ichib bo'lgandan keyin ham turib ketmay dasturxon atrofida o'tiraverdik. Odatdagidek o'tgan-ketganni eslab, gurunglashib o'tirdik. Ko'p o'tmay rafiqasi stolni yig'ishtirdi-da, qizlari bilan oshxonaga chiqib ketdi.

Muhandis bilan yolg'iz qoldik. Kaminda so'nggi o'tinlar yonib tugamoqda edi, alanganing shu'lasi quyuqlashib borayotgan oqshom qorong'isida odamga alohida xayoliy bir kayfiyat baxsh etardi. Biz bir necha daqiqa alanganing jilvakor o'yiniga maftun bo'lib tomosha qildik. Mening ko'nglimdan o'tmisht bilan bugungi kunni bog'lashga undovchi fikrlar kechardi, hayajonlanardim, pirovardida, so'zlar quyilib, mening ixtiyorimsiz to'lib-toshgan yuragimdan to'kila boshladi. Men hayotimning ma'lum damlari haqida gap ochdim; bu voqealar yigirma yashar yigitcha uchun fojia edi, qolaversa, keyingi o'n yil davomida xotira sifatida yolg'iz o'sha damlarda ko'rgan-kechirganlarim xayolimda muhrlanib qolgandi. Bir vaqtlar jism-u jonimga o't qo'ygan voqealar bugun azoblamasdi. Undan keyin adoqsiz hasratlarimni birov eshityaptimi, yo'qmi, menga farqi yo'q edi. Men bu eski, siyqasi chiqqan, le-

kin o‘zim uchun hamon yoqimli qissani so‘zlab berayotgandim, chunki bu mening boshimdan o‘tgan kechmish edi. Nima desam ekan, siz bunga o‘xshagan voqealarni minglab o‘qigansiz kitoblarda, son-sanoqsiz odamlarning boshiga tushgan: boy-badavlat aslzodalar oilasi... latofatli, husnda tengi yo‘q qiz... kambag‘al yigit... Yashirincha uchrashishlar... hadik va xavotir ichidagi bo‘salar... ota-onalarning taqiqlari... ayrılıq... „Hech qachon!“, „Bir umr!“ degan qasamlar... Oxirida esa... tamom...

„Shu tariqa hamon bo‘ydoqman, – deya hikoyamni tugatdim, – o‘shandan buyon uylangim kelmaydi – xohlamayman, tamom-vasalom!“

So‘nggi so‘zlarni qandaydir kibr-havo va yasama harakat bilan qo‘srimcha qildim. Keyin nafasimni rostlab: „Lekin siz bilan tanishgach esa...“ deya davom ettirdim.

Men to‘xtab, biroz tin oldim. Yana u oilaviy baxtimga havas qilyapti, deb o‘ylab yurmasin... Oraga jimlik cho‘kdi. Muhandis olovdan ko‘z uzmay, churq etmay o‘ti-rardi. Oxiri lablari: „Biz bilan?“ deya pichirladi.

Uning bu so‘zlari allanechuk g‘alati, juda g‘alati ohangda chiqdi. Bu savolda kutilmagan bir nima bor edi, go‘yo mana shu ikki so‘zdan iborat jumla zamirida alam va musibat yashirin edi. Lom-mim demadim. Biz noqulay bir sukunat bag‘rida indamay o‘tirardik, daf’atan muhandis go‘yo uyqusiragan odam uyg‘onib ketgani kabi kerishdi-da, bir nima deb ingradi, so‘ng tamaki olib tuttdi va boshidan o‘tgan voqeani hikoya qilishga kirishdi. Avvaliga u shoshilmasdan, xuddi kerakli va ta’sirchan so‘zlar izlayotgandek to‘xtab-to‘xtab gapirayotgan bo‘lsa, tobora ravon va ta’sirli ohangda so‘zlay boshladi: „Demak, sening nazaringda, men go‘zal va baxtiyor hayot kechiryapman ekan-da?.. Ehtimol, shundaydir... Lekin baxt deganda biz nimani tushunamiz?.. Men oilamni yaxshi

ko'raman, ishimdan ko'nglim to'q... odamlar bilan muro-sayi madora qilaman, nima ham derdim, baxt... mana shudir. Faqat bir paytlar...“

U bir narsani aytgisi keldi-yu, lekin ikkilandi, xuddi aytishini ham, aytmasligini ham bilolmay, boshi qotgan odamdek o'yga toldi, oxiri, og'ir so'lish oldi va uzuq-yuluq boshlangan, pirovardida, to'xtay deb qolgan hikoya ravon bir ohangda davom etdi: „Bilasanmi, talabalik davrimda men oshig'-u beqaror edim. Hm, oshig'-u beqaror emish, shunaqayam ahmoqona ta'rif bo'ladimi? Odam yo sevadi, yo sevmaydi – bu tuyg'uning mezoni, o'lchovi yo'q. Falsafa to'qimayman deyman-u, baribir beixtiyor... o'zim ham sezmay qolaman, men muhandislikka o'qirdim, u – til va adabiyot fakultetida tahsil olardi. U mendan bor-yo'g'i ikki yosh kichik edi. Qayerda, qachon tanishganimizni... eslolmayman. Talabalik davrida ikki yoshning tanishib qolishidan oson ish bormi dunyoda?.. Xullas, biz bir-birimizga ko'ngil qo'ydik.

Uni mohitobon, sohibjamol deyolmayman. Kursdosh-larim hatto mening xushtorligimdan kulishardi. Lekin u qiz juda boshqacha edi, hech kimga o'xshamaydigan bir fazilati bor edi. Ko'ngilchan, qandaydir o'ziga jalb etadi-gan ohanrabosi bordek... men buni tushuntirib berolmay-man, hatto o'sha paytda ham tushuntirib berolmasdim“.

U kulimsirab qo'ydi.

„Men muhandislikka o'qirdim... Qisqasi, uni sevib qoldim, birgina men emas, ko'pgina talabalar mening ko'yimga tushgan edi, lekin u meni tanladi, holbuki o'sha paytda ham ko'rinishim bir ahvol edi.

Biz tez-tez uchrashib turardik, birga sayr qillardik, to'g'risini aysam, adoqsiz suhbatlarimizdan biron ta-jumla esimizda qolmasdi, shart ham emasdi, bu suhbatlar bir bahona edi, biz bir-birimizga to'ymas edik...

yashirib nima qildim, totli bo'salardan boshim aylanib ketardi... Men go'yo osmonda yurardim, u meni sevgani uchungina emas, balki mendan ko'ra kelishganroq yoki aqlliroq boshqa yigitni emas, aynan meni sevganidan faxrlanardim, bo'lmasa qancha yigitlar unga oshig'-u beqaror edi.

Ikki yil shu taxlit davom etdi, oxiri, ikkovimiz ham Budapeshtdan ketadigan vaqt yetdi. Keyingi o'quv yilining boshlanishini intizor bo'lib kutardim, kun sanardim.

Bu juda g'alati, men shu chog'gacha his qilib ko'rma-gan tuyg'u edi! Men o'sha paytda ham xuddi hozirgidek edim, endi she'rlar yoza boshlaganimni tasavvur qil! She'r deyishga arzimas edi, aslida. Biroq unga manzur bo'lardi, ular haqida hech kim hech narsa bilmasdi. Bunda bexabar kursdoshlarim meni logarifmlar jadvali-yu o'zgarmas miqdorlar dunyosidan boshqa dardi yo'q deb hisoblardi. Men bo'lsam ijod qilardim, she'r yozardim, yoddan o'qib yurardim... Ularni ko'nglimni rom etgan o'sha dilbargagina berardim, u esa bu she'rlar birinchi bo'salar kabi faqat ikkovimizga tegishli, derdi.

Biz istiqbol haqida zarracha tashvish chekmasdik, shuning uchun bu mavzu bizga yot-begonaligicha qolgan-di. Oila qurish haqida gaplashish xayolimizga ham kel-masdi, shunday bo'lishi tabiiy – qachon ikki yosh bir-biri ni sevsa, o'zgacha bo'lishi mumkin ham emas, to'g'rimi?! Avvalo men durustroq ish topishim, u esa o'qishni tuga-tib olishi kerak edi. U istiqomat qilayotgan talabalar sha-harchasidagi yotoqxonani yaxshi bilardim, chunki unga ko'plab xat-xabar yuborganman.

Universitetni tugatgan kezlarim bir yerda muqim ya-shamaganim tufayli xatlarimga javob yozib yuborishning iloji yo'q edi.

Muhabbat vaqt va masofaga teskari tarzda susayib boradi, deyishadi. Ehtimol, bu menga taalluqli emas, men bundan mustasnoman. Chunki mening hislarim kamyish tugul zarracha o'zgarmadi, balki kuchayib borardi, men ilgari uni qanday sevgan bo'lsam, shunday sevardim, faqat bunga bir qadar ko'nikib ketdim, shekilli. Bu tuyg'u bir lahza bo'lsin yuragimni tark etganini eslommayman. Qolaversa, unga shunchalik o'rganib qolgan edimki, har kuni gazeta o'qish, ovqat yeyish, yuz-qo'lni yuvish singari hayotimning bir qismiga aylanib qolgandi. O'yashimcha, agar odamlar tish og'rig'i bilan tug'ilganda edi, hayotlari davomida hech kim tish og'rishi mumkinligiga ishonmagan bo'lardi. Aksincha, agar og'rimasa, bunga biron bir kasallik belgisi sifatida qaralardi. G'alati-a, to'g'rimi?"

U pashshani haydayotgandek qo'l silkitdi.

„Yana falsafa to'qiyapmanmi?.. Nima deyotgandim? Ha... Yillar o'tdi, men ishga kirdim, u haqida o'ylaganim o'ylagan, ishonchim komilki, u ham men haqimda o'ylardi. Keyin, esingda bo'lsa, „oltin davr“ deb nom olgan yuksalish yillari boshlandi. Menga o'z yurtimda yaxshi ish taklif qilishdi. Ko'nglimdan shuni unga xabar qilish fikri o'tdi. Uni deyarli bilmasligimni ana o'shanda anglab yetdim. Uning yuz-ko'zini juda yaxshi eslayman – rasm chizishni bilganimda edi, rasmini fotoapparatdan ham tiniqroq, aniqroq qilib chizib bera olardim. Biroq uning turar joyini, tug'ilgan manzilini bilmasdim. Faqat tug'ilgan shaharchasining nomini bila-man. Ko'chasining nomi, qaysi uyligini ko'rsatmay xatni yuboraverdim. Tabiiyki, javob ham, maktubim ham kelmadni. O'zim borib qidirishga vaqtim, bitta-yarimtasini yollashga esa pulim yo'q edi. Men topolmasligimga ko'zim yetib taqdirga tan berdim: o'zi shunaqaman:

kurashish zarur paytda jon-jon deb taslim bo‘lib qo‘ya qolaman.

Ittifoqo, gazetada „Bahor ilhomlari“ tanloviga yuborilgan she’rlarni o‘qib qoldim. Bunday tanlov o‘tkazish odad tusiga kirgan, eng yaxshi she’rlarni saralab gazetalarda bosshardi. Gazetani qanday o‘qishimni bilasan... sidirg‘asi-ga... Xullas, uchinchimi, to‘rtinchimi she’rdan keyin birdan o‘zim yozgan she’rga ko‘zim tushdi-yu, hang-mang bo‘lib qoldim. Yanglishmog‘im mumkin emas – men o‘z she’rlarimni yoddan bilaman. „Iqrornoma“ degan bu she’rimni behad yaxshi ko‘rar edim...

She’rni tahririyatga kim yuborganini, albatta, topishim shart edi. Agar u yo‘llagan bo‘lsa, nihoyat, uni topaman. Boshqa odam bo‘lsa-chi?.. Baribir nimadir oydinlashadi-ku!

Tanlov shartlariga binoan she’rlar muallifi e’lon qilinmagandi. Men tahririyatga xat yubordim, keyin o‘zim bordim, biroq bosh muharrir to tanlov natijalari ma’lum bo‘limguncha, shoirning ism-sharifi hamda turar joyi oshkor qilinmaydi, deb turib oldi – aytishdan bosh tortdi. G‘olibni O‘rtayer dengizi bo‘ylaridagi mamlakatlararo ikki kishilik sayohatga yo‘llanmalar kutmoqda edi. Yana besh-o’n kunga emas, naq ikki oyga! Meni shashtimdan qaytarishi mumkin bo‘lgan yirik mukofot ekan. Lekin men ortga chekinmadim... Oxir-oqibat, muharrir mening maktubimni she’rni yuborganga berib qo‘yishga ko‘ndi. Men o‘sha zahotiyiq o‘tirib yoza boshladim. Ishq dardida o‘rtangan yurak tug‘yoni to‘g‘onni o‘pirishga qodir toshqinga o‘xshaydi. Maktub, asosan, dilizhori, o‘tinch, gina va yana izhori muhabbatdan iborat edi.

Xat jo‘nab ketdi. Men ikki oycha devonadek yoki telbakezik odamdek es-hushimni yig‘ishtirolmay javob kutib yashadim. Javobga intizorman, lekin negadir qo‘rqa-

man – yuragim bezillaydi: bekor qilayotgandirman, balki, endi foydasi yo'qdir?! Hayotim o'zaniga tushib olgan jilg'adek bir tekis oqyapti-yu... Ehtimol, uning turmushi ham iziga tushib ketgandir... Endi nima bo'ladi? Hammasi ostin-ustun bo'ladimi? Kutishga arzirmikan? Unaqada maktub jo'natmaslik lozim edi..."

Muhandis do'stim bir nimani eslashga uringandek jim bo'lib qoldi. Tamakisini ketma-ket tortdi-da, burqsib havoga ko'tarilayotgan tutunning yuqoriga jijimador o'rplashini kuzatib xayol surib qoldi. Men sabrsizlik bilan hikoyaning davomini kutardim, hatto: „Xo'sh, o'sha ekanmi?“ deya dag'dag'a qilishimga oz qoldi. Lekin isti-hola qildim. Muhandis xo'rsinib hikoyasini davom ettirdi: „Ikki oy o'tgach javob xati keldi. Xatjiddagi tanish dast-xatni ko'rib yuragim qinidan chiqib ketay dedi. Xatjildni ochishga, ochig'i, yuragim dov bermay bir necha soat o'tirgan bo'lsam kerak! Ha, bu o'sha. O'sha, bu – o'sha! Tahririyatga she'rni o'sha yuborgan ekan, mening she'rلrimni tabarruk xotiralar kabi hamon ko'z qorachig'idek asrab, ardoqlab yurar ekan. U meni unutmabdi, hech qachon unutmasa kerak, u meni kutgan, hatto hozir ham kutyapti, meni chin ko'ngildan sevadi. Hatto biznikiga kelmaysanmi, deb so'rayapti?“

Bo'pti, mayli, yetar. Men bu voqeanning nima bilan yakunlanganini bilaman-ku! Albatta, tole yor bo'lgan, ko'rdim-ku ularning turmushini – bir so'z bilan aytganda, baxtli oila!

„Do'stginam, bu yog'ini aytmasang ham bo'ladi. Haqiqiy, chinakam ishq-muhabbat tarixi! Demak, oxir-oqibat, sen o'z yoringni topding, sevganing o'zing bilan – yoningda. Bundan ortiq baxt bormi dunyoda, oshna?..“

Butun hikoyasi davomida bir marta ham qaramagan muhandis ilk bor mening ko'zlarimga tikildi. U yana tama-

kini huzurlanib tortdi-da, yonib bitayotgan kaminga qaradi. Qorong‘ilik quyuqlashdi, menga uning yuz-ko‘zi arang ko‘rinardi. Nima uchundir o‘zimni behuzur sezardim. Hozirgina jo‘shib aytgan dil so‘zlarim quyuqlashayotgan qorong‘ilik qo‘yniga singib ketgandek edi. Men yana so‘z qotishga botinolmadim, do‘stim esa lom-mim demasdi.

Shu vaziyatda birmuncha vaqt o‘tirdik. Men hozir g‘aroyib bir hodisa yuz beradigandek indamay kutardim. Nihoyat, do‘stim qaddini rostladi, o‘chay deb qolgan tamaki qoldig‘ini kaminga uloqtirdi-da, hirqiragan ovozda so‘z qotdi: „Maktub... O‘sha maktub... U kecha keldi“.

*Rus tilidan  
Olim OTAXON tarjimasi*

## O'LIMDAN KEYINGI O'LIM

Dehqon Puavre kuyovi Per Gaslenning peshtaxtasi yonida aravasidan tushib, otini yo'lak chetiga qoqilgan temir halqaga bog'ladi, mahkammi-yo'qmi, tortib ko'rди, keyin qamchisini o'ynatib qassobxonaga kirdi.

– Kim bor? – deb baqirdi.

Mudrab yotgan ko'ppak bor bo'yicha kerishib, po'saxonani to'sib qo'ydi va bir vovullab, nariroqqa borib cho'zildi. Ichkarida hech zog' yo'q, payshanba emasmi, peshtaxtalar bo'm-bo'sh. To'nkada so'yilgan novvosning chorak go'shti. Qorayib ketgan, pashshalar g'o'ng'illab o'rab olgan. Shiftga osilgan ko'chma ilgakda buzoq yuragi o'rtasidan yorib ilib qo'yilgan. Bir burchakda, mis tog'orada qon yuqi suyaklar va sarg'imtir yog' – aynishni boshlaganidanmi, kasalxona va o'likxonadagi singari ko'ngil aynitar o'limtik hidi anqiydi.

– Biron tirik jon bormi? Hoy, Gaslen!.. Qayerdasan?

Gaslen ko'chaning narigi betidagi Gado qahvaxonasi dan chiqdi. Labini yengiga artib, trubkasini tutatgancha chopib keldi.

– Shu yerdaman! Shu yerda!..

U yalangbosh, yenglari tirsagigacha shimarilgan edi; yuziga tig' tegsa, yog' tomadi. Qizil dog' bo'lgan oq peshbandi butun gavdasini yopib turibdi – bo'ynidan tortib yog'och boshmoqlarigacha. Po'lat zanjirga osilgan

pichog'i chap sonida lapanglaydi. U qaynotasining oldiga kelib, qo'lini uzatdi.

– Sog‘-omonmisiz?

– Omonman, kuyovto‘ra, omonman.

– Otingizga suli tashlab beraymi?

– Ha, yo‘g‘-a, ertalabdanoq bo‘kib olgan... Men to‘g‘ri

Shessian yarmarkasidan kelyapman, kuyovto‘ra!..

– Xo‘sh, qalay, yaxshi o‘tdimi?

Puavre bosh chayqadi:

– Bir navi, bir navi... Chidasa bo‘ladi... Narx-navo hali joyida... – Keyin esa muomalasini sal o‘zgartirib, bunday dedi: – Xo‘sh, xo‘sh, Mansonerga kelganimda, bolakay Avgust musibat haqida aytib qoldi...

– Ha, ha, shunaqa bo‘lib qoldi endi...

– Shunga otni aravadan chiqarmay kelaverdim... Otga bir paqir suli berdim-u, shu yoqqa qarab haydadim...

– Ul-bul icharsiz?

– Ha, yo‘q demasdim. Tomog‘im qaqrab ketdi. Demak, shu gap rostmi, yolg‘on emasmi, xotining qazo qildimi?

Qassob trubkasini olib, ichidagi kulini boshmog‘iga urib-urib qoqdi.

– Kecha tunda uzildi, soat ikkida... Balki, ikki yarim-dadir... xullas, shu vaqt atrofida...

– Tunda degin, – Puavre bosh chayqab qo‘ydi, – ana ko‘rgilig-u mana ko‘rgilik! Unga nima bo‘lgandi o‘zi? Og‘ir kasalmidi, yo zarb yeganmidi?

– Yo‘g‘-e, unaqa emas, Puavre, zarb yemadi... Qorni shishib o‘ldi... Shishaverdi, shishaverdi... Biram baqir-di-yey! Ey Xudoyim-ey, yomon baqirdi!.. Keyin o‘lib qoldi... Shunaqa gap... Lekin bir narsani hech aqlimga sig‘dirolmayapman...

– Xo‘sh, nima ekan?

– Xullas, gap bunday... Ikki hafta oldin, balki, o'n ikki kun oldindir... balki, undan ko'proq yo kamroqdir, xullasi kalom, qizingiz menga aytdiki... Adashmasam, u meni piyonista, to'ng'iz, deb so'kdi, chunki biz, Baku, Mote va men ozgina otvolgandik. Shunda undan meni tinch qo'yishini so'radim... jahl-pahlsiz, muloyimgina tu-shuntirdim! Bir qarasam, haddidan oshib, bo'lar-bo'lmas gaplarni qatorlashtirib tashladi. Pichoq borib suyakka teg-di. Bir shapaloq tushirdim, keyin qorniga tepdim. O'zingizdan qolar gap yo'q, Puavre, buni hazil tariqasida, achchiqlanmasdan qildim. Men unga yomonlik tilamagan-dim. Keyin yarashib oldik... Ertasi kuni: „Qornimda nima borligini bilmayman, lekin nimadir bor, maxluq-paxluq bormi, deyman, ichimni kemiryapti!“ deb shikoyat qila boshladi. Lekin bu holat kelib-ketib, molni xaridorlarga o'tkazishiga xalal bermadi. Uchinchi kuni bukchayib qol-di. Ko'rpa-to'shak qilib oldi. Qorni shisha boshladi. Tin-may baqirishga tushdi. Oxir-oqibat, oyoqni uzatvordi... Yer yutsin! Ayol kishining qorniga hazil-huzul qilib tepil-sa, o'lib qolishini qayoqdan bilibman.

Puavre ensasini qashib, dilidagini tiliga chiqardi:

– Xo'sh, xo'sh! Ana bo'lmasam! – Keyin biroz qayg'u aralash taqdirga tan bergandek so'zлади: – Lekin bunga biz aybdor emasmiz! Buniyam qismati onasinikiga o'xshabdi, rahmatli xotinimni aytayapman... Ustiga daraxt qulab, til tortmay o'lgandi. Bilasan-ku, fermadagi yonib bitgur kat-takon yong'oq daraxtini!

– Ha, ha! – dedi Gaslen xo'rsinib. – Siz, ehtimol, qizingizni ko'rgingiz kelayotgandir... Tepada u, Puavre.

– Albatta, kuyovto'ra... Qani, boshla.

Ikkovlon do'kon ortidagi xonaga o'tishdi, qorong'i pillapoyadan ko'tarilib, nimochiq eshik oldida to'xtashdi.

Qaynota kuyovga so'z qotdi:

- Kir, sen birinchi!
  - Yo‘q, siz birinchi, Puavre!
  - Yo‘q, kuyovto‘ra, o‘zlaridan bo‘lsin!
- Ikkovlashib oyoq uchida ichkarilashdi.

Puavre boshidagi kartuzni marhumaga hurmat ma’nosida yechib, qo‘lida aylantirib turaverdi. Qisiq ko‘zlar moshdek ochilib, do‘rdoq lablarini vahimadan qimtib oldi. Keyin xonaga alangladi.

To‘sakda yuzlari bo‘zdek oqargan va cho‘zilgan, ustiga oqlik yopilgan ayol sokingina yotardi. Chalishtirilgan qo‘llarida xoch. Jasadning bosh tarafida bir kampir duo o‘qimoqda, yonida ikkita sham yoqilgan, shamlarning ikki tarafida boshqa but, ularga xira nur tushmoqda. To‘s yog‘ochidan yasalgan kropilo muqaddas suv to‘la qizg‘ish sopol xumchaga solingan.

Puavre cho‘qinib olib, to‘sakka yaqinlashdi. Bir muddat qiziga tikilib qoldi va egilib, bir necha marta peshonasidan o‘pmoqchi bo‘ldi, lekin taraddudlanib turaverdi, chunki u o‘ziga ham tushuniksiz vahima to‘riga tushgandi. Nihoyat, u dag‘al panshaha qo‘lini marhumaning qo‘liga qo‘ydi-yu, xuddi qizib turgan temirni ushlab olganday darhol tortib oldi. Keyin xona o‘rtasida qaqqayib turgan kuyovining oldiga kelib pichirladi:

- Rostdanam o‘libdi! Muzlab yotibdi! O‘zing kechir, Egam, biram sovuqli!

Ular o‘lim qarshisida dovdirab-sovdirab, o‘ng‘aysiz-langancha pastga tushishdi.

- Rabbim, biram sovuqli! – Puavre yog‘och boshmoqlari zinalarga to‘qillashiga hamohang shu gapni takrorlayverdi.

Gaslen esa:

- Sarg‘ayib ketgan! – dedi.

Do‘konga tushgach, bir-biriga qarab qolishdi.

– Dadillanib olish uchun jinday olarsiz? – so‘radi kuyov.

– Jonim bilan! Aql bovar qilmaydi, besh kun oldin ot-day edi-ya...

Shoshilmay ko‘chani kesib o‘tib, qahvaxonaga kirishi-di. Bir shisha isqotini oldilariga qo‘qqaytirib, birmuncha fursat jim o‘tirishdi. Puavre stakanlarni to‘ldirdi.

– Sog‘lig‘ing uchun, – dedi u.

– Sog‘lig‘ingiz uchun, Puavre, – dedi qassob.

Keyin anchagacha go‘shtning narxi, yaylovlar, Shes-san yarmarkasi haqida valaqlashib o‘tirishdi. Puavre ho‘kizlarini avvalgi narxlarda pullayolmaganidan o‘kindi.

– Agar ispanlar va amerikaliklarga sotolmasak, nima qilardig-a?

Ikkita shishani ag‘anatib, dilxiraliklar ketib, o‘rinlari-dan turishganda, Puavre so‘rab qoldi:

– Baribir, kuyov, sen bilan gapni bir joyga qo‘ymadik. Qachon ko‘mamiz?

– Ha, bu juda mushkul masala... Ertaga juma – men mol so‘yaman.

Qaynota „ha-ha“lab turdi:

– To‘g‘ri, to‘g‘ri.

– Ertaga ko‘molmayman-ku!

– Albatta, yo‘q. Albatta.

– Shanba kuni bozor...

– Bunisiyam to‘g‘ri.

– Go‘shtni tashlab qo‘yolmayman-ku, aynib qoladi.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri.

– Ja bosh qotdi-ku, Puavre...

Keyin jimib qolishdi. Puavrening peshonasi tirishdi.

Oxiri gapiga sirli tus berib:

– Men senga bir gapni aytsam... Mayyit tamomila bu-zilib qoladi! – dedi.

- Buzilib qoladi? Ha, to‘g‘ri.
- So‘yadigan moling-chi?
- Shu-da.. Shu-da! Nima qilsam ekan, Puavre? O‘zingiz ayting, nima qilay?

Puavre iyagini ushlab jiddiy o‘yga toldi, keyin qo‘l siltadi:

- Yana bitta shisha ochmaymizmi?

*Rus tilidan  
Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasи*

## XANJAR

Ko'kda jazirama oftob, har qadam bosganida oyoqlari iligigacha qizib yotgan tuproqqa ko'miladi. Ust-boshi changga botgan, bo'ynidan, yuzidan oqqan terlar changga qorishib loyga aylanadi. Boshiga bog'lagan ro'molchaning bir uchini tishlari orasiga olib chaynab, qo'li bilan ikki yoniga ishoralar qilar, o'ziga o'zi gapirardi. To'rt tomonga tuproq to'zg'itib tez-tez yurib borarkan, birdan to'xtadi. Og'zidagi ro'molcha uchini mahkam tishladi. Tupurmoqchi bo'ldi, lekin og'zi qurib, tili tanglayiga yopishgandi. „Men, – dedi o'ziga o'zi, – ko'rsatib qo'yaman unga. Men o'g'irlilik qiladigan odammanmi, bu ishda o'lim bor“. Yana tez-tez yura boshladi. Oyoqlarini kuydirgan tuproqni ham sezmadni. Keyin nimagadir yo'l chetiga chiqib, dala tomon burildi. Qurigan ekin poyalari oyoqlari ostida charsillaydi. Sal narida xirmon mashinasи guvullaydi, ishchilarning g'ala-g'ovurlari eshitiladi. Xirmon mashinasiga e'tibor ham bermasdan, oldidan o'tib ketdi. Ko'zлari qisilgan, kichkina yuzi olqindiday bo'lib, qorayib ketgandi. Peshonasidagi ajin izlariga ham loy to'lgan. Bir oyog'i qatqaloq yorig'iga tushib, qayrildi. Qattiq og'ridi. Og'riq zo'ridan turgan joyida o'tirib qoldi. Tuproq etini qizigan temirday kuydirdi. Jaziramaning azobi... Tuproqning qaynoqligi... Shaxd bilan o'rnidan turdi... Birpas alanglab qoldi. Keyin yerdan bir tutam qurigan ekin poyasini olib chaynay boshladi. Chaynarkan, og'zi qurib, yuzi burishdi. Tuflab tash-

ladi. Keyin yana bir tutam oldi. Shunaqangi charchabdiki, ko‘zi tinib ketaverdi. Sarosimaga tushdi. Nima bo‘lyapti, qayoqqa ketyapti? Shu zahoti esiga tushdi: „Benomus, ol-choq. – dedi zarda bilan, – nima qilsam qilaman. Shuni bilki, bu ishda o‘lim bor. Men o‘g‘irlilik qiladigan odamanmi? Shuncha yildan beri Chuqurovadaman, or-nomus bilan ter to‘kdim“. Keyin yana toldi. Oftob kuydirgandan kuydirdi.

Shu kuni ro‘paradagi yo‘ldan o‘tganlar dala o‘rtasida, oftob tig‘ida, tep-tekis, yarqirab bir bo‘yra kabi yastangan ovulda biroz oldinga egilib, qimir etmay turgan odamni ko‘rdilar. Uning ko‘zları yumilgan... Bir yong‘oq daraxti ostida uch yoshli, tishlari oppoq, kulib turgan bir bola... Bola shod-xurramlik bilan onasining bo‘yniga osiladi. Bola terlab-pishgan, yuz-ko‘zidan ter oqadi. Bolaning ko‘ylagi yirtilgan, negadir tinmay yig‘laydi.

Qari ona, sochlari oppoq... Belini ushlab turib, allanimalar derdi. Onaning qo‘llari qurishib ketgan...

Tishini tishiga bosdi. „Benomus... Senga ko‘rsatib qo‘yaman hali! Men o‘g‘irlilik qilganman-a! Yarim tunda Muharram og‘aning paxtasini o‘g‘irlaganman, shundaymi? Meni haydatasanmi ishdan?“ Kunyurar shamoli asta-sekin esa boshladи.

Bir qadam tashlab to‘xtadi. So‘ngra tez-tez yura boshladи. Chang-to‘zon daladan yo‘lga o‘tdi. Oldinda birov ketyapti. Ko‘z qiri bilan qaradi. Asta-sekin shom cho‘kayotgani uchun oldinda ketayotganni taniyolmadи. Qadamlarini tezlatdi. Oldida ketayotganga yetib olib: „Hey“, – dedi. Narigi kishi qayrilib qaradi. „Ali... senmisani?“ – dedi sevinib. Ali to‘xtadi. „Yaxshi ish qilmading, Husayn“, – dedi. Husayn: „Men, – dedi, – unga qasddan qildim bu ishni“. Ali esa: „Sening orqangdan nima qilsa qildi... Aytmagan gapi qolmadi... O‘g‘ri dedi. Benomus

dedi. Dala ishchilarining obro'sini bir tiyin qilgan shular bo'ladi, dedi. O'g'li „Qayerdan bilay“, dedi. Shu ishni qilib rasvo bo'lmasliging kerak edi“. Husayn: „So'kdimi?“ – deb Alining yoqasidan oldi. Ali: „Qo'yvor yoqamni! Men unisini bilmayman“ – dedi. „Nimaga bilmaysan?“ „Bilmayman...“ „So'kmadimi?“ „Bilmayman...“ „Yana nima dedi?“ „Bilmayman...“

„Men uning xotini bilan yotdim, dedi. Shundaymi?“ „Bilmayman, lekin u juda benomus odam“ „Demak, yuzta odamning ichida shunday dedi-a?“ „Olchoq u“. „Voy onangni...“ Ali: „Butun Chuqurovada undan o'tadi-gan uyatsiz odam yo'q. Boshliq emas, naq ishchilarning boshiga bitgan balo u! Sening bir qop paxtangni shuncha ishchilar ichida og'aga ko'rsatib, pastga urishi shartmi-di? Hammaga yomonlik qiladi, birorta ta'zirini beradigan chiqmadi. Birorta mardning oldida qilolmaydi bu ishini. Qolaversa...“ Husayn Alini qo'lidan tutib to'xtatdi. Qonga to'lgan ko'zlarini uning nigohlariga qadadi. „Gapir, – dedi, – xotini bilan yotdim, dedimi?“ Ali kiftini uchirdi: „Bilmayman...“

Shu on Husaynning qo'lida xanjar yaraqladi. „Ayt, – dedi. – Ayt!“ Ali labini burishtirdi: „Bu xanjarni menga uradiganga...“

Husayn Alini nafrat bilan itarib, ortiga qaytdi. Yugurdi. Dalalardan, butazorlardan o'tib, nafasi tinqilib to'xtadi, keyin yana yugurdi. Oyoqlari qontalash bo'ldi. Ayni damda oyning yuzini bir parcha bulut qopladi. Har bulut qoplaganda Husaynning yuragi seskanaverdi.

Husayn qalin butazor qorong'isida yotib, qo'lidagi xanjarni otar, dir-dir titrar, bor kuchi bilan kerishardi. Oy mag'rib tog'lari ortiga botdi. Husaynning ko'zi qarshisi-dagi qop-qora tog'larda, ko'kdagi to'lin oyda. Oy hech botgisi kelmasdi. Sal narida, xirmon boshida ishchilar

xurraq otib uxlashardi. Xirmonning o'ng tomonida boshliqning pashshaxonasi shabadada asta-asta silkinadi. Oy tog'lar ustida turib qoldi. Husayn xanjarning dastasini mahkam ushlab olgan...

Husaynda bir qayg'u, bir titrash... Husayn turtinib-surtinib pashshaxona tomon borardi. Nafas ham olmas, ohista pashshaxona yoniga yotdi. Pashshaxona ichidagi odam maza qilib xurraq otar, alahsirardi.

Husayn pashshaxonaning qorung'i tarafiga cho'zilgan... Narigi kishi yotoqda xurraq otib, ag'dariladi... Husaynning xanjar tutgan qo'li, bilagi zirqiradi... Xuddi bilagi uzilib tushadiganday... Yuragi gumburlayotganday. Husayn cho'chib ketdi. Nariroqda soya g'imirladi... Husayn g'azab bilan xanjarni sharaqlatib tuproqqa otdi. Turtinib-surtinib qishloqqa qarab yugurdi.

*Turk tilidan  
Maryam OSIYO tarjimasi*

## CHUNKI BIZLAR QASHSHOQMIZ

Shu kunlarda hamma narsa yomon tomonga o'zgaryapti. O'tgan hafta Xasinta xolam olamdan o'tdi. Yakshanba kuni ichimiz achimagan holda u kishini tuproqqa qo'yganimizdan so'ng osmon ko'zyoshlarini tiyolmadi. Bundan dadamning qattiq jahli chiqди, chunki arpa bo'shoqlari endigina oftobda qurishni boshlagan edi. Kuchli bo'ron bo'layotgani uchun hosilning ustini o'rashga imkonimiz bo'lmasdi. Ayvonda bir-birimizning pinjimizga tiqilgancha, yomg'ir butun hosilni payxon qilganini kuzatib turdik.

Kecha esa, opam Tacha o'n ikki yoshga to'lganida, dadam unga tug'ilgan kunida sovg'a qilgan sigirni daryo oqizib ketganini bildik. Uch kecha oldin subhi kozibda daryoning suvi ko'tarila boshladи. Men u xlabelotgan edim. Birdan daryoning qirg'oqlaridan eshitilgan kuchli shovqindan uyg'onib ketdim va qo'llimda choyshab bilan yotoqdan sakrab tushdim. Xayolimda go'yoki ustimga tom qulayotgandek edi. Keyinroq bu shunchaki daryoning shovullashi ekanini tushunib, yana uyquga ketdim.

Uyg'onganimda ko'kning qovog'i solingan, daryo shovqini yana-da balandroq eshitilardi. Toshqin suvining hidi negadir qo'lansa edi.

Tashqariga qaraganimda daryo suvi allaqachon ir-mog'idan tepaga ko'tarilib ketgan edi. Ko'cha bo'ylab sekin-asta ko'tarilib, „Nog'ora“ deb ataluvchi ayol-

ning uyi sari harakatlanardi. Suvning molxonaga yopirilib kirib, darvozadan chiqib ketgani eshitildi. Nog'ora xonim jonsarak bo'lib, jo'jalarini ko'chaga uloqtirdi. U yerda jo'jalar oqimdan yashirinib jon saqlab qolishi mumkin edi.

Muyulish yaqinida daryo marhuma Xasinta xolamning molxonasi chetidagi xurmo daraxtini oqizib ketdi. Bu qishloqdagi yagona xurmo edi, demak, endi bu suv toshqini yaqin yillardagi eng katta toshqin bo'lishini hamma biladi.

Men va opam tushda yana tomosha qildik. Suv loyqa va quyuq bo'lib, ko'prik ustidan ham oshib ketgan edi. Biz soatlab tomosha qilib turdik. Keyin odamlarning gapi-ga qulq solish uchun tor va chuqur vodiy bo'y lab yurdik. Suv pastga tushib, daryo yaqinida shovqin solib pishqirardi. Odamlarning og'zi ochilib-yopilar, birorta so'zini eshitib bo'lmas edi. Ular ham vodiy bo'y lab yurib, daryoga qarar, uning toshqini qanchalik ko'p talafot yetkazgani ni tasavvur qilishga urinardi. Teparoqda dadam Tachaga sovg'a qilgan sigir La-Serpentinani topdim. Sigirning bir qulog'i oq, ikkinchisi qizil, ko'zlar chiroyli edi.

Men sigirimiz bunday paytda nega daryoni kechib o'tmoqchi bo'lganini bilmayman. La-Serpentina beorom emas edi. Jonivor uyqusida yurib, hech bir sababsiz o'zini cho'ktirib yuborganga o'xshaydi. Ertalab molxona darvozasini ochganimda, sigir ko'zlarini yumgan holda turgandi. Shuning uchun unga nimadir bo'lgan. Ehtimol, uxlayotganida qovurg'asiga muzdek suv urilgan-u, jonivor cho'chib uyg'onib ketgan. Jon talvasasida qochmoqchi bo'lgan, ammo suv uni oqizib ketgan. Men uning yordam so'rab mo'raganini tasavvur qildim.

Sigirimizni daryo oqizib ketganini ko'rgan odamni topib, undan sigir yonida buzoq bormidi-yo'qmidi, shuni

so‘radik. Erkak eslay olmadi. U faqat suv yuzasida si-girning tuyoqlari chiqib turganini, keyin cho‘kib ketganini ko‘rganini esladi. Suvdan singan daraxt shoxlarini tortib olish bilan band bo‘lgani uchun kuzatishga vaqtি bo‘lma-gan. Shuning uchun biz buzoqcha hanuz tirik ekanı yoki onasiga qo‘silib daryoga cho‘kib ketganini aniq bilmay-miz. Xudoning o‘zi ularga madadkor bo‘lsin. Uyimizda yana muammo ko‘payadigan bo‘ldi. Dadam peshona teri bilan La-Serpentinani sotib olgandi. Uni Tachaga ber-ganining sababi – opamda ozgina mablag‘ bo‘ladi va u ulg‘aygach, boshqa ikki opam kabi yomon yo‘lga kirib ketmaydi.

Dadamning aytishicha, opalarim kambag‘al bo‘lgani-miz uchun yomon yo‘lga kirgan ekan. Opalarim doim hayotidan norozi edi. Yoshi ulg‘aygach, yomon erkaklar atrofida o‘ralashib qoldi. Ular juda tez yengil hayotga kirib ketdi. Dadamning qattiq jahli chiqib, opalarimni uy-dan haydab yubordi. Ular Ayutla yoki boshqa shaharga ketdi, aniq bilmayman. Lekin bir narsa aniq, ular yomon yo‘ldan qaytmadi.

Shu narsa dadamning Tacha borasida xavotirga tushi-shiga sabab bo‘ldi. U Tacha ham ulg‘aygach, ikki opasi izidan borishini istamas edi. Uni yaxshi xonadonga uza-tishni o‘ylardi. La-Serpentina esa Tachani egrи yo‘ldan qaytaruvchi himoyachidek edi. Sigir tufayli opam kam-bag‘allikni his qilmas edi. Endi esa qiyin bo‘ladi. Chun-ki aynan shu sigir uchun opamga uylanishni istovchilar topilishi mumkin edi.

Hozir esa yagona umid buzoqning omon qolgani-da. Ilohim, onasiga qo‘silib daryoga tushib ketmagan bo‘lsin! Agar buzoqdan ham ayrilgan bo‘lsak, Tacha opam ham yo‘qchilikdan yomon yo‘lga kirib ketishi mumkin. Onam ham buni istamaydi. U doim qaysi gunohi uchun

Xudo unga ikki yengiltak qiz bergenini aytib kuyunadi. Onamning oilasida yengiltak ayollar bo'lman. Ularning hammasi Xudojo'y va iboli ayollar bo'lgan. Har safar ikkisi haqida o'ylaganda yig'lab shunday deydi: „Xudoning o'zi ularga rahm qilsin!“

Dadam esa ular haqida o'ylashni ham istamaydi. Yomonga aylanganlarni qaytarib bo'lmasligini, endi faqat Tacha opalari kabi bo'lmasligining oldini olish kerakligi haqida o'ylardi. Tacha juda tez ulg'ayyapti.

– Ha, – derdi dadam. – Har kim unga ko'z suzyapti.

Shuning uchun Tacha dadamning eng katta muammo-siga aylangandi.

Tacha esa hozir yig'layapti, chunki La-Serpentina daryoga cho'kib o'ldi. Qizil ko'yakdag'i opam oldimda turgancha sigiriga achinib ko'zyosh to'kardi. Men uning yelkasiga qo'limni qo'yib, taskin berishga urindim, ammo u tushunmadi. Uning tanasi titrayotgandi. Yuziga loyqa suv sachrab, daryoga sho'ng'igandek ko'rinaldi.

*Ingliz tilidan  
Feruzbek ZIYODULLAYEV tarjimasи*

## TO‘Y

„Emanlik“ degan so‘zni eshitishim bilan a’zoyi badanim jimirlab, yuragimga pichoq sanchilgandek bo‘ladi. Menga shunday laqab qo‘yishlariga, aslida, o‘zim sababchi ekanim, bu yerda hech kimning aybi yo‘qligi, hammasiga o‘zim aybdorligim esimga tushib, yurak-bag‘rim ezilib ketadi.

Bu ko‘rgiliklar bir qiz tufayli ro‘y bergandi. Ismi Xatte bo‘lib, ularning qo‘rg‘oni qishlog‘imizning ro‘parasidagi tepalik ustida qad rostlagan, otasini „Sulaymon Qo‘ng‘ir“ deb atashardi. Qo‘rasidan tortib molxona-yu o‘tlog‘igacha o‘sha tepalikda edi. U paytlarda likavitsaliklar o‘zlariga tegishli tepalikdagi qo‘rg‘onda alohida-alohida yashashardi. Faqt juma va hayit kunlari qishloq markaziga tushib kelishar, masjidda juma, hayit namozini o‘qib, yana qo‘rg‘onlariga qaytib, tashqariga chiqishmasdi. Uylanadimi, bola tug‘iladimi, ma’raka-yu to‘y-to‘rkin o‘sha yerda, qo‘rg‘on ichida o‘tardi.

Bolalarning qanday dunyoga kelishini bilmadim-u, bi-roq xotin olishga kelganda qiyinchilik ko‘p bo‘lardi. Bir-onbir qizni yoqtirib qolgudek bo‘lsang, butun boshli tog‘ atrofini gir aylanib yurishga to‘g‘ri kelardi. Tog‘ning tegrasini Shahriston desa ham bo‘lardi. Ustiga-ustak, har bir qo‘rg‘on boshlig‘ida o‘qlangan miltiq, o‘n-o‘n beshta bo‘ribosar it bo‘lib, odam u yoqda tursin, qo‘rg‘on ichiga pashsha ham uchib kirolmasdi. Shuning uchun qiz bilan yigitning gaplashishi tugul, diydorlashuv ham amri mahol edi.

Agar biror qizni ko'rmoqchi bo'lsang, haftalab qo'rg'on atrofida tentirab yurishing – shunda ham baxting kulsa – ota-onasiga yo'liqib qolishing hech gap emasdi.

Uning, ya'ni mening Xatteyimning otasi o'ta badjahl, qovog'i soliq, hamisha qo'ng'ir ayg'ir minib yurgandan, odamlar uni Sulaymon Qo'ng'ir deyishardi. Otining uzangisi bronzadan, suvlig'i yaltiroq, jilovi zar uqalik, yuganiga rangli matolardan jilo berilgan. Sulaymonning kamzuliga tikilgan rango-rang tasmalar bilan butun boshli bir tog'ni ikki marta aylantirib chiqsa ham ortib qolardi. Juda qattiqqo'l va kamgap edi. Lekin uning qizi Xatte bir qo'shiq boshlasa, tirik jon borki nafas olmay tinglardi.

Qizning ovozi yuragimga ignadek sanchildi-yu, shu ovoz egasi mening taqdirim, deb qo'ydim ichimda. Lekin buni qanday qilib unga bildirish mumkin? Agar biron-bir bayram munosabati bilan qishloq markaziga tushganida ham boshqa gap edi. Lekin otasi uni qo'rg'ondan tashqariga chiqarmasdi. Shuning uchun ularning qo'rg'oni atrofida erta-yu kech tentirab yurishdan o'zga chora topolmasdim. Nihoyat, bir kuni ro'molini menga qarab silkitganini ko'rib qoldim. O'sha kuniyoq Polvon xolanikiga yugurdim. U kampir turli giyohlarni terib, qaynatib, yanchib, uqalab, atrofdagi ovul va qo'rg'onlarga kirib, dori-darmon tarqatib yurardi. Shuning uchun nafaqat yon-atrofdagi odamlar, hatto itlarga ham tanish bo'lib ketganidan, hamma xonadonlarning darvozasi unga ochiq edi.

– Xatte Sulaymonavaning qo'rg'oniga kirib: „Bir xushbichim yigitning jarohatlangan yuragiga senda malham topiladimi?“ deb so'rab ko'rgin. Agar dardimga davo topib kelsang, yung bo'yash uchun qizil bo'yoq sovg'a qilaman, – dedim.

Polvon kampirning bunaqa ishlarga suyagi yo'q edi. Shuning uchun nimaga shama qilayotganimni darrov tu-

shuna qoldi. Ertasiga barvaqt turib, to'ppa-to'g'ri Xattenning xonadoniga kirib bordi:

– Hasanjondan senga otashin salom. Unga yoqib qolibsan. Senga uylanmoqchi.

– Menga ham yoqadi. Nayining ovozini eshitdim. Yaxshi chalar ekan, – deydi unga Xatte.

– Lekin bilib qo'y, agar otam sezib qolsa, qo'ydek bo'g'izlab tashlaydi. Shuning uchun bu haqda hech kim-ga og'iz ochma.

Kampir keltirgan xushxabarni eshitib, yuragim qinidan chiqib ketayozdi. Ota-onam mening quyoshim qaysi tomon dan chiqayotganini sezsalar ham sir boy berishmasdi.

Faqat bir safar otam:

– O'g'lim, qo'ng'iroqni hadeb chalaverma, o'tlog'ingga yana kimdir yo'l solayotganga o'xshaydi, – dedi.

Otamning bu gapini eshitib a'zoyi badanim zirqirab ketdi. Polvon kampirmi Xattenikiga yogurtirdim. Ammo u malham o'rniga zahar olib keldi.

„Hasanjon tayoqqa bog'langan ro'molimni ko'rgan kuni jarlikda miltiq va xanjar bilan kutsin“, deb tayinlabdi Xatte.

Kampir boshqa hech narsa demadi.

Kech kirishi bilan hamma narsa oydinlashdi. Baklar hududidan ko'chirma qilingan nog'orachilar dang'irdung'ur qilib Likavitsa tomon yo'lga tushdilar. Ularni Deli Mahmud chaqirtirgan ekan. Sozandalar ertasi kuni Sulaymon Qo'ng'irkida karnay-surnay chalishar emish. Demak, Deli Mahmud, o'g'li Ibrohimni Sulaymonning qizi Xattega uylantirmoqchi.

Bu xabarni eshitib tomog'imga suyak tiqlgandek bo'ldi. Na nafas olaman, na chiqara olaman. Agar Deli Mahmuddan boshqa odam bo'lganida ham mayli edi. Bir chorasin topardim. Uyini ag'dar-to'ntar qilishim, qo'rasigami, uyigami o't qo'yishim mumkin edi. Le-

kin Deli Mahmud bilan hazillashib bo‘lmasdi. Bir to‘da kallakesarlarni boshlab borib Batak ovulini xonavayron qilgan g‘irt qaroqchi u.

Modomiki Sulaymonning o‘zi Xatteni unga bermoq-chi ekan, Xudodan boshqasi qizni uning qo‘lidan tortib ololmaydi.

Faqat bir narsa, Xattening „Jarlikda kutsin“, de gan so‘zigina zimiston yuragimda umid uchquni ni so‘ndirmay turardi. Ertasiga qorong‘i tushishi bilan qo‘shotar miltig‘imni yelkamga osib, Sulaymonlar tepaligining ro‘parasidagi burgut qoyaning ustiga chiqishim bilan nog‘oralarning tak-taka-tum, tak-taka-tumi eshitildi. Likovitsa qishlog‘idan chiqqan kuyovnavkarlar turnaqator bo‘lib, Sulaymon Qo‘ng‘irning qo‘rg‘oni tomon tepalik-ka ko‘tarila boshladi. Bunday qarasam, ilgari Xatte o‘tirib dam oladigan xarsangtoshga latta bog‘langan tayoq suyab qo‘yilibdi. Demak, Xudoning rahmi kelgani shu bo‘lsa kerak, dedim ichimda.

Xatte kuyovnavkarlar yetib kelmasidan oldin ochsa kerak, deb o‘ylagandim. Ammo unday qilsa, Deli Mahmud ning odamlari uni quvlab, tutib olishlari mumkinligini sez-gan bo‘lsa kerak, sabr qilib qorong‘i tushishini, mehmonlar obdan yeb-ichib dumalab qolishlarini kutgan ko‘rinadi.

Rostdan ham xuddi shunday bo‘lib chiqdi. To‘ychi-lar kelishgan. Ular yeb-ichib, soz chalib, yarim kechaga-cha qo‘sinq aytishgan. Ana shundan keyin Xatte oyisiga qarab, Siz charchab xoldan toydingiz, buzoqlarga o‘zim xashak berib kela qolay, deb bir quchoq somonni olib tashqariga chiqqan-u, ortga qaytmagan. Oradan xiyla vaqt o‘tib, qizdan xabar olish uchun ukasi Resimni uning or-tidan jo‘natishgan. U bo‘lsa uyga quruq qopni ko‘tarib kirgan. Shu zahoti ona bechora hushdan ketgan. Sulay-mon yirtqich hayvondek bo‘kirgan, to‘ychilar ayyuhannos

solistgan. Pichoq, xanjar, to'pponchani belbog'ga qistirib, miltiqni qo'lga olib, kim otliq, kim yayov qizni qidirishga tushishgan.

Men bo'lsam shuncha vaqt ichida jarlikka tushib, damimni chiqarmay kutib turdim. Uch yuz qadamlar nariдан oyoq tovushini sezdim. U yetib kelishi bilan:

– Meni xohlagan joyingga olib qoch, – dedi.

Men kallavaram uni olib tog' tomongami, biron bir g'orgami yashirinib, to to's-to' polonlar bosilguncha, kutib o'tirish o'rniga qizni yetaklab to'ppa-to'g'ri o'z qishlog'im, Kurshovoga kelib o'tiribman.

Qishloqqa yaqinlashganimizda tong ota boshladı. Shundagina Xatteni yaqiniroqdan ko'rdim: tishlari sadaf-dek oppoq, lablari maymunjon qoni bilan yuvilgandek qip-qizil, yuzlari olmadek tarang, unga yaqinroq borishga ham jur'at etolmadim. O'shanda „Hali ulugurarman“, deb o'ylagandim. Ammo bizning sanoqli vaqtimiz qolganini qayoqdan ham bilibman.

Tong yorishganda uyimizga yetib keldik. Qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar bir zumda atrofimizni o'rab olishdi. Shunday go'zal qiz qishloqqa kelin bo'lib tushayotganidan hammaning og'zi qulog'ida edi. Otam bo'lsa:

– Domlaga yuguringlar, tezroq kelib ularni nikohlab qo'ysin, shoshilish kerak, bo'lmasa, anavi azamatlar kelib qolishlari mumkin, – dedi.

Sulaymonlar tepaligidagi azamatlar atrofga zir yugurib, hamma yoqning to's-to' polonini chiqarib, Xatteni qidirgan. Yerga kirganmi, osmonga chiqqanmi, toza garang bo'lishgan. Shundan so'ng uni baqirib chaqirishga tushishgan. Bir vaqt Sulaymonning:

– Hoy, krushovkaliklar! Eshityapsizmi! Mabodo bizning bir qizimiz siz tomonda emasmi? – degan ovoz eshitildi.

– Qanaqasiga biz tomonda bo‘lmasin?! – dedi otam baqirib. – Faqat endi u sizniki emas, bizniki! U endi bizning qizimiz bo‘ladi, ana shunaqa!

„Bizniki“ degan so‘zni eshitishlari bilan ularning dami ichiga tushib, qotib qolishdi. So‘ng birdan „dodvoy“ ko‘tarildi. Go‘yo bir gala bo‘ri o‘kirgandek bo‘ldi. Oradan ko‘p o‘tmay Deli Mahmudning odamlari bizning qishloq tomon ot qo‘ydi.

Yonimda turgan o‘ch-to‘rt kishi:

– Yer bilan yakson qilib tashlashmasidan tezroq juftakni rostlash kerakka o‘xshaydi, Hasanjon! – dedi.

– Yoningga tusholmayman, bor-yo‘g‘i ikkita o‘qim qolgan, bu bezorilarning xurjun to‘la o‘q-dorisini bor, – dedi otam ham.

Ular tobora yaqinlashib qolganidan, toshga tekkan ot taqalarining tovushi yaqqol eshitilib qoldi. Miltiqlarning gumburlashi tog‘dan aks sado berardi.

Deli Mahmudning „Hamma yoqqa o‘t qo‘ying“, degan hayqirig‘i eshitildi.

Bir vaqt atrofimga qarasam, o‘zimdan boshqa hech kim qolmagan. Sekin ortga tisarilib, hujraning eshigini ochdim-u, ichkariga kira solib narvondan boloxonaga, undan tomga chiqib oldim. Ammo Xatte ko‘rimadi. Pastda, hovlida qolib ketibdi. Hovlida esa Deli Mahmudning odamlari. Pastga tushishga yuragim dov bermadi...

– Bu yerda nimani yo‘qotib qo‘yding, iflos?! – qiziga o‘shqirdi Sulaymon.

– Yo‘qotganimni topdim, ota! – hovlida turgan otasiga derazaning ichkarisidan javob qildi qiz.

– Hoziroq bu yoqqa chiq, – o‘shqirdi ota, – bo‘lmasa kallangni sapchadek uzib tashlayman.

– Yo'q, ota. Tirigimcha bu yerdan chiqmayman, – javob qaytardi Xatte.

– Kim bilan qocheding? – so'radi Deli Mahmud.

– Men bilan, Mahmud og'a! – javob qildi unga bo'g'iq ovozli kimsa va Xattening yoniga kelib turdi.

– U kim edi, deb so'radingmi?

– Kim bo'lardi? Otamning ukasi, amakim Salim.

U shu vaqtgacha uylanmagan, birorta qizga sovchi ham qo'yмаган.

Sababi, uning o'ng qo'li mayibligidan na yer chopishga va na o'roq o'rishga yarardi. O'zi bizning uyda yashab, dasturxonimizdan ovqat yer, bolalarga kamoncha, turli o'yinchoqlar yasab berar, yoz oylarida jo'xorizorni bo'rsiqlardan qo'riqlardi.

Yuzini sepkil bosgan, so'yloq tishlari kurakka o'xshardi. Uning qo'lidan bunchalik mardlik va jasorat kelishini xayolimga ham keltirmagandim. Demak, kelar ekan!

– Qizni men opqochib keldim Mahmud og'a! – dedi Salim va sog'lom chap qo'liga barabanli nagan oldi.

– Deli Mahmud, – deb qichqirdi u yana. – Qo'limda bitta nagan. Bitta o'qi bor.

Agar oralaringda Xatte uchun jonini tikishga tayyor biror mard bo'lsa, o'rtaga chiqsin. Otishamiz. Kim tirik qolsa, Xatte o'shaniki.

Deli Mahmudning odamlari shovqin ko'tardi. Ammo Deli Mahmud so'zni qisqa qildi:

– Kim birinchi bo'lib otadi? – so'radi u.

– Birinchi bo'lib siz tomon ota qolsin, – dedi amakim.

– Ibrohim, – dedi Deli Mahmud o'g'li tomon o'g'rilib, – anavi sho'rtumshuqni tezroq bir yoqlik qil-da, bu yerdan ketaylik.

Hamma ortga tisarilib, hovlining o'rtasida Ibrohimning yakka o'zi qoldi. U miltig'inining u yoq-bu yog'ini qarab,

nishonni aniqladi. Uzoq mo'ljalladi. So'ngra miltig'ini tushirib yana mo'ljalga oldi. Salim bo'lsa panjaraga su-yangancha uning ko'ziga tik qarab kular ekan:

– Yaxshiroq nishonga ol, Ibrohim Deli Muhammad, agar meni tirik qoldirsang, onang bergen oq sutini qusdraman! – derdi.

Atrofda jimjitlik hukm surganidan, uning sekin aytgan so'zlarini hamma eshitdi.

Ibrohimning miltig'i gumburlab ketdi. Hovlini tutun qopladi...

Ko'p o'tmay havo yorishdi. Salim esa panjaraga su-yangan ko'yi hamon qaqqayib turardi.

Shu payt Deli Mahmudning bolasi qochib qolsa bo'ladimi. Demak, qo'rqib ketgan. Deli Mahmud bo'zarib qichqira boshladi.

– To'xta! Qayt orqangga! Senga aptyapman, qayt!

Ibrohim esa otining egariga mahkam yopishib ol-gancha yeldek uchib borar, chakmoni ortidan varrakday o'ynoqlardi.

Deli Mahmud o'g'lining ortidan o'q uzdi. Ammo o'g'il to'xtamadi.

Shundan so'ng Deli Mahmud Salim tomonga o'girildi:

– Salim og'a, mening xotinchalish bolam bu qizga munosib emas. Baxtingni bersin.

Ular otlarining boshini ortga burib, jo'nab qoldilar.

Pana-pastqamda pisib yotgan odamlarimiz asta-sekin hovliga to'planishdi. Men ham boloxona tomidan tushib, Xattening yoniga bordim. Ammo Salim bilan Xatte bir-biridan ko'z uzmay tikilib turishardi.

– Hasanjon, – dedi Xatte menga ko'zi tushib, – men shu yerda, Salim bilan qolaman.

Men Salimning yoqasiga yopishdim. Ammo otam bizni ajratib qo'ydi.

– Qiz Salim bilan qolishiadolatga to‘g‘ri keladi. Agar amaking bo‘lma ganda, bu yerda kelin u yoqda tursin, hech birimizdan nom-nishon qolmasdi.

Otamning gapini boshqalar ham quvvatladi...

Shunday qilib, Xatte Salimga xotin bo‘ldi.

Keyin nima bo‘ldi, deysammi?... Nima desam ekan? Yaxshisi, indamaganim ma’qul. O’shanda o‘zimni qayerga qo‘yishni bilmay, o‘rmonning ichidagi emanzorda bir necha oy odamlarning ko‘zidan yashirinib yurdim. O‘shandan beri menga „Emanlik“ deb laqab qo‘yib olishgan.

Bir kuni ketib ketmadim, qolib qolmadim. Uyga qaytib keldim, hech kim hech narsa so‘ramadi. Men ham hech kimga indamadim.

Pichoq qayray boshladim... Ularni bir yoqlik qilishga qaror qildim. Biznikilar tong otishi bilan dalaga chiqib ketishdi. Xatte suv olgani hovliga tushdi. Salim ostonada o‘tirib uni qo‘riqlardi. Men charxlangan pichoqni mahkam qisib, ortidan unga yaqinlashdim. Boshyalang qulog‘iga gul qistirib olgandi. Za‘fargulmi, popukgulmi, ko‘zim xiralashgan shekilli, unchalik farqiga bormadim. Shu payt qulog‘ining orqasidagi xuddi otamnikiga o‘xshash jo‘xori donasidek so‘galiga ko‘zim tushib qoldi. Go‘yo, Salimas, o‘z otamga tig‘ urayotgandek bo‘ldim... qo‘limdagi pichoq qanday yerga tushib ketganini sezmay qoldim. Salim o‘girilib menga qaradi. So‘ngra yerda yotgan pichoqni olib belbog‘imga qistirdi-da:

– Burgutni o‘limtik bilan emas, yangi go‘sht bilan boqib, qo‘lga o‘rgatiladi. Bu yerkardan uzoqroqqa ket! – dedi.

O‘sha ketganimcha qaytib u yerkarda bormadim. Ammo hech qayerda uzoq turolmadim. Ketish oson ekan, ammo qaytishga kelganda... Butun boshli bir hayotga qaytish mushkul ish.

## JUDOLIK

Yoz paytida shuvoq hidi anqib, boshing aylanadigan damlar bo‘ladi. Eh, ayniqsa, kechalari... Tepangda oymomo asta suzadi. Yuraging hapriqib ketadi. Ko‘ngilni mast etguvchi islar taralmish bunaqangi oydin tunlarda beixtiyor shirin, totli xayollarga tolasan. E, yo‘q, bu hatto xayol ham emas – ichingga g‘ulg‘ula solib, zor-intizor etguvchi allatovur boshqacha narsa. Tomorqa etagigami, qariqizlar ichigami berkinib olasan-da, yuraging tushuniksiz, sirli sevinchdan orziqib ketadi. Afsus, bunday sokin tunlar hayotimizda kam bo‘ladi.

Shunday kechalardan biri butun umrga miyamga mixlanib qolgan.

O‘shanda o‘n ikkida edim. Tomorqamizda tizzamni quchib, ko‘zimdan yosh chiqquday bo‘lib oyga termilib o‘tirardim. Nogoh shu yaqin-o‘rtada kimdir yig‘layotgani qulog‘imga chalindi. Alanglab qaragandim, qo‘schnimiz Nechay cholga ko‘zim tushdi.

Ushoqday bo‘lib qolgan ramaqi chol oq surp ko‘ylagi-da allanimalarni aytib-aytib yig‘lagancha tentirardi.

Uch kun oldin Nechay cholning muloyim, yuvosh kampiri o‘tib qolgan edi. Chol-kampir yolg‘iz o‘zlari turiшar, bolalari ota uyini tark etgandi.

Birovni ozorlantirmagan Nechay kampir bu dunyodan jimgina ko‘z yumdi. Qo‘ni-qo‘snilar o‘lib qolganini ham ertalab bilishdi. „Ko‘rmaysanmi endi... bechora Nechay

kampir uzilibdi-ku“, – deyishdi odamlar. Qabr kavlab, kampirni tuproqqa berishdi, tamom-vassalom. Men hozir boyaqishning saxt-sumbati qanaqaligini ham eslolmayman. Hovlisida „tu-tu-tu“lab tovuqlarini chaqirib yurardi. Qishloqda birovning dilini og‘ritmagan, hech kimning g‘iybatini ham qilmasdi. Kechagina oramizda edi, bugun esa yo‘q.

...O‘sha oydin, sururbaxsh kechada yolg‘iz odamga qanchalik qiyin bo‘lishini anglab yetdim. Hatto tevarak-javonib so‘lim, ona yer nechog‘lik iliq, yurakka vahm tushmasa-da, yakka-yolg‘iz odamga oson tutmaslik lozimligini tushundim.

Bir burchakka biqinib oldim.

Cholning tizzasidan pastga tushib turgan ko‘ylagi oy nurida ko‘zni olgudek oqarib ko‘rinardi. U bitta-bitta odimlab, ko‘zyoshlarini halpillama yengiga artardi. U menden sal nariga kelib o‘tirdi.

– Hechqisi yo‘q... hozir sal o‘zimga kelvolay... bir dardlashamiz, – dedi sekin o‘ziga chol, ammo baribir ko‘zyoshlarini tiyolmasdi. – Uch kundan beri o‘zimni qo‘yarga joy topolmayapman. Biror nima qilib o‘zimni chalg‘itay desam, hech ishga qo‘lim bormaydi.

Asta-sekin u yupandi.

– Yuragim ezilib ketyapti, Paraskovya: jilla qursa rozi-rizolik so‘ramading-a?! Dilingni siyoh qilgan joyim bormidi? Aytib-aytib ketmaysanmi – sal bo‘lsayam yengil tortardim. Endi esa armonda qoldim... Eh-h... – Chol bir on jimib qoldi. – Mana, seni yuvib-tarab, kafanga o‘rab, joyingga qo‘ydik. Sergey yoshulli tobut yasadi. Yig‘lab-siqtab oldik. To‘g‘ri, odam uncha ko‘p bo‘lmadi. Asal, mayiz solib, bo‘tqa qaynatdik. Seni Davidovnaning yoniga, bir chetga qo‘ydik. Juda bop-da, quruq yer. O‘zimgayam o‘sha yerdan mo‘ljallab qo‘ydim. Yolg‘iz boshimga ne

qilishgayam hayronman. Kulbayi vayronamizni mixlab, Petkanikiga jo‘navorsammikin?.. Ammo yurak betlamaydi: o‘zi-ku yaxshi, xotinini... o‘zing bilasan-ku, g‘ing demasayam, bir tishlam nonni zahar qilib beradi. Peshonam qursin!.. Nima qil deysan?

Jimlik cho‘kdi.

Ishtonimni ho‘llab qo‘yay dedim. Xayolimda hozir Nechay kampir og‘ir-bosiq tovushda gapirib yuboradigan-dek tuyulib ketdi.

– Boshimni qay devorga urishni bilmay garangman, – deya hasratlanishda davom etdi Nechay chol. – Bundan ko‘ra bo‘ynimga sirtmoq solganim ming marta yaxshi edi. Kecha tunda birpasga ko‘zim ilinibdi, bir payt qarasam, katakdan chiqib kelayotganmis san, qo‘lingda bir g‘alvir tuxum. Bunday qarasam, tuxum emas, endi yorib chiqqan jo‘jachalar ekan. Sen bo‘lsang ularni bitta-bitta og‘zingga solarmis san. Yeb turib, kamiga maqtab ham qo‘yarmis san... Yo Rabbim! Uyg‘onib ketdim, tushim ekan... Seni o‘zimcha uyg‘otmoqchi bo‘libman, yo‘qli ging esimdan chiqib ketibdi. Paraskovyajon... Ruhing chirqillab yuribdimi?! – Nechay chol tag‘in ko‘zyosh qilishga tushdi. Ho‘ngrab yuborsa bo‘ladimi! Etim jimirlab ketdi. Biram o‘kradi-ye, odamni ezvoradi: – E-e-e... uv-uv... Meni yolg‘iz tashlab ketaverasanmi? Bu choli tushmagur endi qayga bosh uradi, deb o‘ylamadingmi? Bir og‘iz aytganingdayam mayliyi, shahardan do‘xtir yetaklab kelardim... Ana, odamlar davoranyapti-ku. E yo‘q, be yo‘q, oyoqni uzatvording. Buni men ham eplay olaman... – Nechay chol burnini tortib-tortib ko‘zyoshlarini artdi, chuqur xo‘rsindi. – U yoqlarda bir o‘zing qiynal-mayapsanmi? Ko‘ngling tusasa bu yoqqa chiqavergin, xo‘pmi? Tushlarimga kirasan. Mayli, tez-tez kirib tur, faqat odamni qo‘rqitvormagin. Bir qarasang, jo‘jalarni...

yana kim bilsin, deysan... – Nечай бобо пичирлаб гапирганидан гапининг ярмини ешитмай қолдим. – Гуноҳ исх қилиб қо'ымасамми, деб қо'рғаман-да... Нима кипти? Қазиб олишган холатлар ham bo'larkan-ku. О'ша Кра-үшкінода bir kampirni qazib olishipti... ingrab yotgan ekan-da. Qabrinis ochib olishipti... Shu ikki kundan beri qulq solaman, jimjitga o'xshaydi. Yo'qsa qazib olmoqchi edim... Aytishlaricha, odamni qattiq uyqu bosarkan, keyin uni hamma o'lib qolgan deb o'ylarkan, u esa o'lмаган, shunchaki qattiq uyquga ketgan bo'larkan...

Bu gaplardan yuragim tovonimga tushdi. Emaklab tomorqadan chiqdim-da, bobomning oldiga chopib bordim va hammasini oqizmay-tomizmay aytib berdim. Bobom egniga kiyimini tashladi. Ikkovlashib tomorqaga o'tdik.

– O'zi bilan o'zi gaplashyaptimi yo o'zicha kampiri bilanmi? – so'radi bobom.

– Kampiri bilan. Endi qandoq qilaman, deb maslahat solyapti...

– Tentirashiga o'laymi, qari takas. Go'rini ochishdan ham toymaydi. Yo kayfi bormikin?

– Yo'q, ichvolsa ashula aytib, Xudoni eslab qoladi, – dedim. Cholning bu odatini bilardim.

Nечай chol qadam tovushlarimizni eshitib, jim qoldi.

– Kim bor? – qat'iy ohangda so'radi bobom.

Nечай chol anchagacha indamay turaverdi.

– Kim bor deyapman?

– Senga nima kerak?

– Senmisan, Nечай?

– Ha, nimaydi...

Biz unga yaqinlashdik. Nечай chol tatarchasiga chordinan qurib o'tirardi, bizga yovqarash qildi – noroziligi qovog'idan bilinib turibdi.

– Yana kim bor edi?

– Qayerda?

– Shu yerda-da... Kim bilandir gaplashding, o'zim eshitdim.

– Ishing bo'lmasin.

– Hozir kattakon kaltakni olaman-da, uyinggacha tirqiratib haydab solaman, ortingga qaramay ura qochasan. Oqsoqol bo'lsang, aqlingni yeb qo'ydingmi nima balo... Uyat emasmi?

– Men u bilan gaplashib o'tiribman, birovga xalal bermayapman.

– Kim bilan gaplashyapsan? U yo'q, kim bilan gaplasasan?! O'ldi-ketdi. Yerning tagida endi.

– U men bilan gurunglashyapti, men eshitib o'tiribman, – o'rlandi Nechay chol. – Birovga og'ir-yengili tushayotgani yo'q. O'zing-ku kelvolib qulqoq tashlab qo'ygan...

– Qani ketdik, – bobom Nechay cholni yerdan dast ko'tarib oldi. – Biznikiga kiramiz, menda bir shisha qo'lolasidan bor, maydalaymiz, zora yengil tortsang.

Nechay chol qarshilik qilmadi.

– Chidolmayapman, jo'ra, holim qolmadi.

Nechay chol oldinga tushvolib, qoqilib-qoqilib ketar, nuqul yengi bilan ko'zyoshlarini artardi.

Bu oshning tagiga bosvorsa bo'ladigan oriqqina, g'am adoyi tamom qilgan chol bechoraning ortidan qarab turib, ko'zimga yosh kelaverdi, lekin bobom gardanimga tushirib qolishidan hayiqib unsiz yig'lardim. Boyaqish Nechay boboga yuragim achishib ketdi.

– Bu bevafo dunyoga kimga oson bo'pti deysan? – deb bobom unga taskin berardi. – Ko'z ochib ko'rganiningni yerga qo'yish osonmidi senga? Judolikdan dili kuyganlarning hammasi marhumlarning yoniga qo'yilaversa nima bo'la-di? Unaqada men necha marta go'rga kirishim kerak edi? Bardam bo'l. Na iloj, chidaysan-da endi.

- Rahmim kelyapti-da unga.
  - Bo‘lmasam-chi, rahming keladi-da... Hech kim sendan yozg‘irayotgani yo‘q. Lekin bu dunyoda o‘lim deganlariga chora yo‘q. Sabr qilasan endi, qo‘lingdan kelgani shu. Bir kun kelib o‘zing ham omonatingni topshirasan. Chida.
  - Aqlim yetib turibdiku-ya... ammo manavi yerim yonib ketyapti, qaniydi alamim bosilsa. Ichib ham ko‘rdim, foydasi bo‘lmayapti.
  - O‘tib ketadi. Petka nega kelmadi? Anavilari-ku olisda, lekin bunisi-chi?
  - Xizmat safariga ketibdi. O‘h, bunchayam og‘ir bo‘lmasa, yoshulli!.. Yetti uxbab tushimga kirmagandi-ya...
  - Dunyoning ishlari shunaqa ekan: odam hayotligida bilinmaskan, o‘lganidan keyin esa oh-voh qilishga tushamiz. Ammo-lekin g‘am-alamdan aqlni yo‘qotish ham... turgan-bitgani ahmoqlik.
- Ushbu daqiqalarda men uchun haligi sokin, oydin tun o‘z fusunkorligini yo‘qotgan, miyamni band etgan sohir xayollar ham allaqayoqqa gum bo‘lgan, boyagi tushuniksiz sevinchdan nom-nishon qolmagandi, axir, bir munis ayol rixlatga ketdi.
- Yuzlari qoshiqday mana shu cholning qayg‘usi nafosatli olamni panalab qo‘ygandi. Faqat miyamga achchiq shuvoqning gurkiragan isi o‘rnashib qolgan.
- Bobom Nechay cholni biznikida olib qoldi.
- Ikkovlon polga ko‘rpa to‘sab, ustlariga po‘stin tashlab olishdi.
- Senga bir voqeani aytib bersam, – shivirlashga o‘tdi bobom. – Mana sen urushga bormagansan – u yoqlarda ne savdolar bo‘lganini bilmaysan... U yoqlarda, jo‘ra... bundan beshbattarlari bo‘lgan, men senga aytsam. Xuldas, gap bunday: men sanitar bo‘lib xizmat qilardim,

yaradorlarni front ortiga tashirdik. Shu desang, bir kuni yo‘ldamiz, studebekkerimiz liq to‘lgan. Hammasi ingraydi, sekinroq haydashimizni so‘raydi... O‘zim qatori haydovchimiz Mikolay Igrinev imkon qadar ravon haydashga intiladi, imillab ham bo‘lmaydi: chekinyapmiz axir. Muyulishga yetganimizda, oldimizdan bir yengil mashina chiqib qoldi. Ofitseri to‘xta degandek qo‘l silkiydi. Bizga esa azroilning o‘zi yo‘ldan chiqsayam to‘xtamaslik qat’iy buyurilgan. To‘g‘ri-da: u yoqda yana qancha yaradorlar yo‘limizga intiq kutib yotibdi. Hujum qilayotgan bo‘lsak ham mayli edi, chekinyapmiz axir. G‘ir etib o‘tib ketdik. Yengil mashina bizni quvib o‘tib, yo‘lga ko‘ndalang turvoldi. Ofitserning qo‘lida nagan. Ilojsiz to‘xtadik. Keyin ma’lum bo‘lishicha, ularning bir ofitseri og‘ir yaralangan ekan, boshqa tomonga ketishlari kerak ekan. Haligi qo‘lida nagan ushlagan ofitser bilan bir amallab yaradorni kuzovga olib o‘tdik. Mikolay kabinada o‘tiribdi: uniyam yonida bir kapitan bor, ahvoli chatoq. Mikolay bo‘lsa uni bir qo‘li bilan ushlab olgan, bir qo‘lida rul. Qisqasi, amal-taqal qilib joylashdik. Haligi og‘ir yaralangani inqillaydi sho‘rlik. Bosh-ko‘zi qonga belangan, qotib ham qolibdi. Yetkazib borolmasak kerak, deb o‘yladim o‘shanda. Yoshgina yigitcha, leytenant ekan, soqol-murtini endi qirtishlay boshlagan bo‘lsa kerak o‘ziyam. Boshini tizzamga oldim – harma yengil bo‘lsin, degandim, lekin qayoqda!.. Gospitalga yetib keldig-u, yaradorlarni tushira boshladik... – Bobom o‘h-o‘hlab, jim bo‘lib qoldi. Popiris tutatdi. – Mikolay ham qarab turmad... Yordamlashdi... Unga leytenantni uzatdim... „Tamom, joni uzildi“, dedim. Mikolay esa leytenantning yuziga shundoq tikildi-yu... O‘h-ho‘... – Yana jimlik. Uzoq jim qolishdi.

- Nima, o‘g‘li ekanmi? – sekin so‘radi Nechay chol.
- O‘g‘li ekan.

- Ey Xudoyim!
- Ihm... – Bobom burnini qoqib-qoqib tashladi.
- Keyin nima bo'lди?
- Nima bo'lardi, ko'mdik... Komandirimiz Mikolayga uyiga borib kelishi uchun bir haftaga javob berdi. Ketdi. Ammo-lekin xotiniga o'g'lini ko'mganini aytmabdi. Hujjatlari bilan ordenini yashirib qo'yibdi, bir hafta uyida turib, keyin qaytib keldi.
- Nega aytmabdi?
- Aytib bo'larkanmi?.. O'lganini bilmasa, bedarak ketdi deb eshitsa, jilla qursa ilinji bo'ladi, bundoq deb aytishga esa... til bormaydi. Necha marta og'iz juftlabdi-yu, miq etmabdi.
- Yo Rabbim, yo Rabbim, – yana chuqur xo'rsinib oldi Nechay chol. – O'zi tirik qoldimi axir?
- Mikolami? Qaydam, keyinchalik bizni har tarafga tarqatvorishdi... Xullas, mana shunaqa gaplar. O'z jigarg'o'shasini-ya! Aytishga oson. Yoshgina yigit-a... ketdi.  
Chollar og'izlariga tolqon solvolishdi.  
Derazadan ichkariga oyning mo'l-ko'l, lekin sovuq tantanali yog'dusi quyilib turibdi. Charaqlaydi-ya!.. Quvonchmi, qayg'umi, farqi yo'q – oy nur sochaveradi!

*Rus tilidan  
Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi*

---

*Uilyam SAROYAN*  
(AQSH)

## URUSH

Urush qon-qonimizga singib ketgandi. Bizni ko'p yemaslikka, hech nimani behuda isrof qilmaslikka o'rgatdilar – narx-navo osmonda. Urush markalarini sotib olishga chaqirdilar. Biz Atlantika ummoni orqali urushga minglab askar jo'natardik, bu esa katta xarajat talab qiladi, albatta. Bizni pul topishga hamda donasi yigirma besh tiyin turadigan urush markalarini sotib olishga da'vat etardilar. Miss Gammaning aytishicha, biz bolalar ham ustiga harbiy libos kiygan og'alarimiz kabi askarmiz. Paradlar uyushtirildi – askarlarning saf tortib shaxdam qadam tashlashini ko'rdik. Biz ularning Janubiy Tinch ummoni vokzalida poyezdlarga joylashishini ko'rdik. ularning vokzalda qolgan onalari, opa-singillari yig'isini eshitdik.

Germanianing qo'li qonga botdi. Nemislар bus-butun mamlakatlarni dunyo xaritasidan o'chirib tashlashardi. O'rmonlar, dalalar, shaharlar – hamma-hammasi og'ir snaryadlar zarbidan kunpayakun bo'lardi. Germaniya hatto Atlantika ummonida ham jinoyatga qo'l urdi: „Luzitaniya“ g'arq bo'ldi. Uni nemis suvosti kemasi yo'q qildi.

Mana shu og'ir savdolar bois bolalar alog'-chalog' tush ko'rardi. „Luzitaniya“ haqida o'ylaganim sari aqldan ozardim. Nafratdan yonardim. Ha, nemislар – badkirdor, qattol xalq. Ular bizga o'xshamaydi. Ularni Charli Chaplinning „Nishonga ol, o't och!“ kartinasida ko'rdik. Kinoteatrda joyimizda o'tirolmay urush qahramoni –

Charlini olqishlab qichqirardik. U yurgan yo'lida xato qilar, biroq oxir-oqibat zafar qozonardi. Ekranda kayzer ko'rindi deguncha haqoratlardik. U Germaniya edi. Charli esa uni kulgili qilib ko'rsatardi. Biz tinimsiz kulardig-u, ammo allanechuk bo'lib qolardik. Chunki bu shunchaki komediya ekanini bilardik, hammasidan xabarimiz bor.

Dunyodagi eng katta manfur kayzer edi, biz undan nafratlanardik.

Nafrat atrofga yoyilgandi. Bir amakivachcham bor, kichkinagina bolakay. Ismi Simon. Tili chiqdi-yu, shunday dedi:

– Kayzerning kallasini uzib olaman!

Birov uni kayzerdan nafratlanishga o'rgatmadni. Bu nafrat havoda suzib yurardi.

Biz, besh nafar bola, orqa hovlidagi yong'oqqa tir-mashardig-u, shoxda o'tirgancha kayzerni yo'q qilishning turli usullarini o'ylab topardik. Oramizdan, ayniqsa, bir bola qiyonoqlar ixtirosining xilma-xilligi bilan ajralib turardi. Ismi Albert Sevin edi. Ko'rinishidan mishiqi bola edi-yu, ammo yon-atrofda undan o'tadigan beshafsat qiyonoqlar ixtirochisi yo'q edi. Uning maqsadi kayzerni deyarli o'lim yoqasiga olib borib, unga dam berish, keyin esa oldingidan ham qattiqroq qiyonoqqa duchor etishdan iborat edi. Shu orqali kayzer ming bor o'ldirilar, har qalay qaytadan qiyash mumkin bo'lsin uchun tag'in tirik qoldirilardi. Biz o'ylab topgan eng yengil qatl – otuvga hukm qilish edi. Hech kim uning shunchaki o'lib ketishini istamasdi. Hamma uning o'zi yetkazgan ozorlari bilan yaxshilab azoblanishini istardi.

Ba'zi topilmalarimiz juda alomat bo'lardi. Charli Chapplinni eslardik-da, turli kulgili azoblarni, har xil kutilmagan sovg'alar va shu kabilarni o'ylab topardik. Masalan, kayzerni tantanali marosimga chaqirib, katta kursiga o'tirishni

taklif etamiz. Bu, aslida, elektr stul bo‘ladi. Kayzer kursiga o‘tiradi-yu, hech narsadan bexabar tanovul qila boshlaydi va banogoh biz tokni ulaymiz. Uni darrov jizg‘anak qilib tashlaydigan kuchlanishga qo‘ymaymiz, albatta, biz tokni ohista ko‘tarib boramiz. Keyin zaldagilar uni o‘rab oladi, ijirg‘anib „Luzitaniya“ni eslatadi. Buni oramizdan qay birimiz o‘ylab topganimizni eslolmayman-u, lekin o‘sha kun yodimdan chiqmaydi.

Yozning yorug‘ kunlaridan biri edi, bizning daraxtda ham shodlik avjida. Necha soatdan beri odamni qyinoqqa solish, ammo uni o‘lgunicha azoblamaslik haqida to‘xtovsiz bahslashardik.

Biz bilan qo‘shti San-Pablo ko‘chasida bir nemis oilassi yashardi. Ajoyib kishilar edi, o‘ta vijdonli, soddadil. Ularning, taxminan, ukam Grikor tengi o‘g‘illari bo‘lib, ismi German edi. Muloyim, biroz odamovi yigitcha. O‘zimizning vodiyyda tug‘ilganiga qaramay, yengilgina nemischala talaffuzda so‘zlashardi.

Kayzerni qiyash borasida gap boshlanarkan, men ham bolalarga qo‘shtildim, biroq buni azbaroyi o‘yin hisoblardim. Axir, aslida, birortamiz zolim bo‘lib qolishni istamasdik. Kattaroq bolalar esa g‘azablanib, biror nima qilishni istab qoldilar, shunda kimdir Germanni eslatdi. Bilasizmi, xuddi otalariga o‘xshaydigan bolalar bo‘ladi. O‘sha mishiqi Albert Sevin va yana bir bola – Edgar Rayflar qo‘ydek yuvosh Germanga nisbatan nafrat o‘tini yoqdilar.

Hammasi bizning yong‘oq daraxtida boshlanib, zum o‘tmay butun mavzega tarqaldi. O‘ntacha bola Germanning adabini berib qo‘yishga qaror qildi. Ukam Grikor ular ortidan ketdi, men ham ergashdim. Albatta, Germanga yomonligim yo‘q edi, lekin uyda o‘tirishga-da toqatim yetmasdi. Agar uyda qolsam, o‘zimni naq o‘lib qoladi-

ganday his qilardim. Ukam Grikor bilan yonma-yon katta bolalar ortidan borardik. Ochig'i, bunda biz ishtirokchi emas, tomoshabin edik: bizning hovlida boshlangan voqeanning oxirini ham ko'rishni istardik.

To'da San-Pablo ko'chasiga o'tdi. Edgar Rayf Germanlarning uyiga borib, eshigini taqillatdi. Qolganlar ko'chaning narigi betida kutib turishdi. Eshikni Germanning onasi ochdi. Edgar Rayf u bilan so'zlashib, bolalar oldiga qaytdi.

– Uyda yo'q ekan, – dedi Edgar. – Onasining aytishi-cha, shaharga ketgan, hali-zamon kelib qolarmish.

– Ishqilib, hozir ko'rmasin-da, – dedi Grikor armanchalab.

Ammo German keldi. Kimdir ko'cha bo'ylab ketayotganini ko'rgach, barcha uni o'rab oldi.

– Nemismisan? – deb so'radi kimdir.

German tasdiqladi:

– Ha.

– Sen ham kayzerni yomon ko'rasanmi? – dedi allakim.

– Yo'q, men hech kimni yomon ko'rmayman.

Shunda birov Germannning yuziga tushirdi. Boshqasi oyog'idan chalib yiqitdi. Yana allakim uning ustiga chiqib olgach, qolganlar uni mushti, oyog'i bilan do'pposlay ketdi.

Barchasi ikki daqiqa atrofida ro'y berdi. Qanday tez boshlangan bo'lsa, xuddi o'shanday, zumda tugadi. Axir kichik askarlarmiz, bizni tartib posbonlari deyishadi.

Germanning burnidan qon tirqirab oqa boshlagach, undan qayta so'rashdi:

– Endi-chi, endiyam kayzerni yomon ko'rmaysanmi?

– Yo'q! Sizdan nafratlanaman! – dedi u qichqirib.

Bolalar Germannning baribir kayzerdan nafratlanmasligini tushungach, turib olishiga qo'yib berishdi. Ustidan

kulib, yig‘lashiga masxaromuz taqlid qilishdi. Ortidan ergashib turtdilar, ketidan tepdilar, urdilar, uyiga yetib olguncha yo‘l bo‘yi mazax qildilar. U uyiga chopmadi, qadamlab ketaverdi. Zina pillapoyalaridan ko‘tarilarkan, uydan chiqqan onasining unga ko‘zi tushdi. Ona o‘g‘liga otilib, uning uyga kirib olishiga yordamlashdi. Qattiq iz-tirobdanmi, mushtumzo‘rlarga biror og‘iz gapirmadi ham. Bolalar uy qarshisida xaxolashib turdilar, tortishdilar, keyin tarqaldilar.

O‘sha kecha to‘sakda yotarkanmiz, ukamdan so‘radim:

– Grikor, nemislarni yomon ko‘rasanmi?

U avvaliga tushunmadi:

– Nima?

– Nemislarni yomon ko‘rasanmi? – savolimni takrorladim men.

Ukam bir muddat jim qoldi, ammo uning qattiq o‘yga tolgani bilinib turardi.

– Nemislarni yomon ko‘ramanmi, yo‘qmi, bilmadim-u, – dedi nihoyat, – ammo bir narsani jinimdan battar yomon ko‘rib qoldim: ularning bugungi qilmishlari-ni. Mana shu nafratimni qo‘zg‘aydi.

*Rus tilidan  
Alisher FAYZULLAYEV tarjiması*

## KUNLARNING BIRIDA

Yog'ingarchiliksiz kelgan iliq dushmanba tongi ham o'tdi. Hali tajribasiz tish doktori Aurelio Eskover kallayi saharlab uyg'onib, soat oltida ofisini ochdi. U hanuzgacha shakl berilishini kutib yotgan noto'g'ri tishlarni shisha idish ichidan olib, plastir qolipga solib ko'ra boshladi. Ko'rsatilgan tartib bo'yicha ishlash uchun o'lchov asboblarini stol ustiga qo'ydi. Yoqasiz yo'l-yo'l ko'ylik kiyib olgan, bo'yni tilla ilmatugma bilan yopilgan va bunga qo'shimcha ravishda bog'ichli bog'lama taqib olgani uchun nafasi naq bo'g'ilib qolayozgandek edi. Doktor qad-qomati tik va ozg'indan kelgan bo'lib, shu ko'rinishida kar-soqov odamdek taassurot qoldirardi. U, odatta, narsalarini tartibga solayotganida, tish arrasini dental kursi yoniga itarib borar va noto'g'ri tishlarga u bilan say-qal berardi. Vaholanki ko'rinishidan hech narsani o'ylamayotgandek tuyular, tish arrasi unga kerak bo'limganda ham uni oyoqlari bilan to'xtovsiz bosib ishlatardi.

Soat sakkizdan o'tgandagina derazadan osmonga tikelish uchun ozgina vaqt ishini to'xtatdi. Tashqariga aftoda boqarkan, qo'shni uy eshigi yuqorisida quyosh taftida o'zini quritayotgandek o'ychan turgan ikkita burgutga ko'zi tushdi. Aftidan, choshgohga borib yana yomg'ir yog'sa kerak, degan o'nda ishini davom ettira boshladi. O'n bir yashar o'g'li chinqiroq ovoz bilan uni fikridan chalg'itdi:

– Dada!!!

- Nima?
- Mayor, ularning tishini olib qo‘ya olasizmi yoki yo‘qmi, shuni bilmoxchilar?

– Meni bu yerda emaslar, deb ayt.

Aurelio Eskover tilla tishga oro berayotgan edi. Utishni qo‘lida ushlagancha, yarim yopiq ko‘z bilan tekshirardi. Shu payt o‘g‘li narigi xonadan yana qichqirib keldi.

– Ular aytdilarki, siz shu yerda ekansiz, chunki ovoziningizni eshitibdilar.

U bir muddat tishni tekshirib turdi. Ishini tugatgandan so‘ng, qo‘lidagilarni stol ustiga qo‘ydi-da:

– Juda yaxshi bo‘pti-da, – dedi.

Aurelio Eskover tish arrasini yana qayta ishlata boshladi. Buyumlarini saqlaydigan javon tortmasi ichidan bir necha bo‘lak brij oldi va yana tilla tishga sayqal berishni davom ettirdi.

– Dada!

– Yana nima?..

– Ular haliyam eshik tagida turibdilar, – so‘zida davom etdi bola. – Ular aytadilarki, agar tishlarini olib qo‘ymasangiz, sizni otib tashlarkanlar.

U shoshilmasdan mutlaqo bosiqlik bilan joyidan qo‘zg‘alib, tish arrasining tepkisini bosishni to‘xtatdi va uni kursidan nariroq surib yo‘ldan hamma narsani olib tashladi. So‘ng xonaning o‘rtasida turib oldi-da, o‘g‘liga qarab:

– Yaxshi. Ayt ularga, kirib meni otsinlar, – dedi.

U javon chetiga bir qo‘li bilan suyanib, bir qo‘lida eshik qarshisidagi kursini aylantirib turardi. Mayor eshik ostonasida paydo bo‘ldi. Yuzining chap tarafidagi soqoli olingan, boshqa tarafi esa aksincha, og‘riqdan shishgan va chamasi, besh kunlik olinmagan soqolda edi. Aurelio Eskover uning ma'yus ko‘zlaridan tunlarni og‘riq bilan o‘tkazganini ko‘rdi. U javonni barmoqlari bilan yoparkan, muloyimlik bilan:

- O'tiring, – dedi.
- Xayrli kun! – dedi mayor.
- Sizga ham.

Kerakli asboblar sterilizatsiya uchun qaynatilayotgan vaqtda, mayor o'rindiqning bosh qo'yadigan joyiga boshini qo'yib o'mashib oldi va o'zini biroz yaxshiroq his qilgandek bo'ldi, ammo hali-hamon sovuq nafas olardi. Doktorning hujrasiga ko'z yogurtirdi. Yog'ochdan yasalgan o'rindiq, oyoq bilan bosib ishlatiladigan tish arrasi, keramika va shisha idishlar, hamma-hammasi juda eskirgan edi. O'rindiq qarshisida yelkagacha uzunlikda tutilgan eski parda turardi. Mayor doktor yaqinlashayotganini ko'rib, og'zini yirtgudek ochdi. Aurelio Eskover uning boshini chiroq tarafga burdi. Infeksiya tushgan tishni yaxshilab tekshirgach, ehtiyyotkorlik bilan qo'lini bukib, mayorning jag'ini yoparkan:

- Anesteziyasiz bo'ladi, – dedi.
- Nima uchun?
- Chunki sizda maddalagan joy bor.
- Tushunarli, – mayor doktorning ko'zlariga qarab kulishga harakat qildi.

Aurelio Eskover bo'lsa unga iljayib ham qo'ymadi. U ish stolidan sterillanib bo'lgan asboblarni olib kelib, qaynoq suv ichidagi bir juft qisqichga qo'l uzatdi. U o'z ishini shoshmasdan, xotirjamlik bilan bajarardi.

Poyabzalining uchi bilan tufdonni mayorga yaqinroq joyga surarkan, qo'lini yuvish uchun tagiga chinoq qo'yilgan jo'mrak yoniga bordi. U ishlarining hammasini odatiy xotirjamlikda, hatto mayorning yuziga ham qaramagan holda bajarardi. Biroq mayor undan ko'z uzmasdi.

Bemorning og'riyotgan tishi kech ildizlagan aql tishi bo'lib chiqdi. Doktor oyoqlarini sal ochib, issiq qisqich bilan og'riq tishni qisdi. Mayor o'rindiq tutqichini mahkam ushlab olib, butun kuchini oyoqlarida jamlab, tanasini qotirib turdi va shu onda buyragida muzdek bo'shliqni his

qildi, biroq miq etmadı. Doktor ishini tugatib, mayordan nariroq turib oldi-da, xushmuomalalik bilan bo‘lmasa-da, hech qanday ginasiz dedi:

– Ana endi siz menga yigirmata o‘ldirilgan odam uchun badal to‘laysiz-da.

Mayor jag‘ suyaklarining g‘ichirlaganini sezdi. Ko‘zлari jiqla yosh. U og‘riq tishi olib tashlanganini his qilmaguncha nafas olmay o‘tiraverdi. Nihoyat, ko‘zyoshlari orqali buni his qildi. Endi unga besh kunlik og‘riqlar begona, chunki u hamma azobdan forig‘ bo‘lgandi. Terga botib charchab qolgan mayor uzun yengli ko‘ylagi tugmalarini yechib, shimming cho‘ntagidan dastro‘molchasi oldi. Aurelio Eskover esa unga dastro‘molcha o‘rniga toza mato uzatarkan:

– Ko‘zyoshlaringizni artib oling, – dedi.

Mayor doktorning aytganini qildi. U endi qaltirardi. Aurelio Eskover qo‘l yuvayotganida chinoqning yuqori burchagida chang bosgan o‘rgimchak to‘rida bolalagan o‘rgimchakni va o‘lik hasharotlarni ko‘rdi. U orqasiga o‘girilib mayorga:

– Uyquga yotishdan oldin namakob bilan og‘zingizni chaying, – dedi.

Mayor o‘rmidan turib, tugmasini ham qadamasdan eshik tomon yurarkan:

– Hisobni jo‘nating, – dedi.

– Sizgami yo shaharcha ma‘muriyatigami? – uning pul to‘lamasdan chiqib ketayotgani Aurelio Eskoverning ensasini qotirdi.

Mayor ortiga ham qaramasdan eshikni yopdi va tash-qarigi oynadan ko‘rinish berarkan:

– Bu salomingizga yarasha alik, – dedi.

## SAVDOGAR

Andrey Andreyevich Sidorovga onasidan to'rt ming so'mlik meros qoldi. O'ylab-o'ylab bu pulga kitob do'kon ochishga qaror qildi. Bunaqa do'kon judayam zarur edi. Shahar odamlari jaholat va xurofot botqog'iga botgandi; chollar faqat hammomga borishar, amaldorlar qartavozlikdan boshqani bilishmas, ochko'zlik bilan aroqxo'rlik qilishardi. Xonimlar g'iybat bilan band; yoshlar g'oyasiz, biror maqsadsiz yashar; qizlar ertadan kechgacha erga tegish haqida xayol surib, grechixa yormasi yeyishdan bo'lak ishlari yo'qdek edi. Erkaklar xotinlari huzuridan bo'shamas, ko'cha bo'ylab esa cho'chqalar izg'ib yurardi.

„O'yla, yana-da chuqurroq o'yla! – xayol surardi Andrey Andreyevich. – Fikr qil!“

Nihoyat, do'kon uchun yordamchi yolladi. Keyin Moskvaga borib, u yerdan juda ko'p eski va yangi mualiflar kitoblarini, ko'plab darsliklarni olib keldi hamda bu ezgulikning barini joy-joyiga terib qo'ydi. Birinchi uch haftada xaridorlar umuman kelishmadi. Andrey Andreyevich peshtaxta orqasida o'tirib, Mixaylovskiyni o'qir va sog'lom fikrlashga intilardi. Qachonki uni, masalan, „Hozir baliq bo'tqasi yeb olsam chakki bo'lmasdi“, degandek xohish-istiklar bexosdan qitiqlab qolsa, darhol: „Eh, qayerga keluvdim-a!“ – deya yuksak g'oyalarni tutib qolishga urinardi.

Har kuni ertalab do'konga ro'mol o'rab olgan, paypoqsiz oyog'iga charm kalish kiygan qiz sovqotgancha hovliqib yugurib kiradi va deydi:

– Ikki tiyinga uksus bersangiz!

Andrey Andreyevich unga nafrat bilan javob qaytaradi:

– Adashib kiribsiz, xonim!

Uning oldiga og'aynilaridan birortasi kelib qolgan paytda yuzini ma'nodor va sirli qilib ko'rsatishga urinadi. Eng oxirgi tokchadan Pisarevning uchinchi tomini topib olib, changini puflab tozalaydi va bu bilan go'yoki do'konida yana nimalardir bor-u, faqat ko'rsatishdan cho'chiyotgandek qiyofaga kirib deydi:

– Ha, otaginam... Bu o'zi bittagina, faqat senga aytdim, hech kimga emas... Ha... Qisqasi, azizim, aytib qo'yay, yaqin orada qo'lidan qo'y may o'qib chiqsang, dunyoning sir-asroridan boxabar bo'lasan... tushunyapsanmi, ha-a, shunaqa...

– Qara-ya, og'ayni, xuddi oldingga uchib kirib-chiqib yurishmagandek!

Uch haftadan keyin birinchi xaridor keldi. Oqishga moyil, suzgichlar bilan kelgan semiz bu janob qizil gardashli furajka kiygan, butun ko'rinishi pomeshchik ekanni aytib turardi. U „Ona tili“ning ikkinchi qismini so'radi.

– Sizda toshqalam ham yo'qmikin-a? – so'radi u yana.

– Menda bo'lmaydi-da...

– Esiz... Bo'lsaydi-ya... Arzimagan narsa uchun bozorga borgim kelmaydi, axir...

„Chindan ham, toshqalam olmay bekor qilibman, – o'yladi Andrey Andreyevich xaridor ketgach. – Bu yerda, viloyatda biryoqlama ixtisoslashib bo'lmaydi, ommani ma'rifatli qilishga aloqador hamma narsalarni sotaverish kerak, qanday bo'lmasin, bunga imkon topish lozim“.

U Moskvaga yozib yubordi va bir oy o'tmasdan aynan uning do'koni oynasida perolar, qalamlar, ruchkalar, o'quvchilar daftarlari, toshtaxta va maktab uchun kerakli boshqa ashylar ham ko'rinish qoldi. Endi do'konga onda-sonda o'g'il bolalar, qizchalar kela boshladi. Savdo biroz yurishib, hatto bir kunda bir so'm-u qirq tiyin pul tushirgan paytlari ham bo'ldi.

Bir kuni charm kalish kiygan qiz shoshgancha uchib kirib keldi. Andrey Andreyevich unga nafrat bilan boqib, adashib kirganini aytish uchun og'iz juftlagan edi, ammo u qichqirgudek dedi:

– Bir tiyinga qog'oz va yetti tiyinga marka bera qol!

Shundan so'ng Andrey Andreyevich pochtaga xos gerbli markalar, mavridi kelganda veksel (pul qarz olganlik haqidagi tilxat) ham olib kelib qo'ydi. Sakkiz oy o'tganda (do'kon ochilgan kundan hisoblaganda) uning oldiga perolar xarid qilish uchun bir xonim keldi.

– Sizda mabodo gimnaziyachilar sumkasi yo'qmi? – so'radi u.

– Afsus, xonim, bunaqasi yo'q edi-ya!

– Eh, esizgina-ya! U holda menga ko'rsating-chi, qanaqa qo'g'irchoqlaringiz bor, faqat arzonroq bo'lsin.

– Xonim, qo'g'irchoq ham yo'q edi-da!.. – dedi qayg'uga botib sotuvchi.

U uzoq o'ylab o'tirmay Moskvaga yozib yubordi, tez orada uning do'konida sumkalar, qo'g'irchoqlar, barabانlar, qilichlar, garmonlar, koptoklar va turli xil o'yinchoqlar ko'rinish qoldi.

– Bularning bari arzimas narsalar! – dedi u o'z og'aynilariga. – Mana ko'rasiz, men hali o'quv qo'llanmalar, aqlni charxlaydigan o'yinlar tashkil qilaman! Men-да, tushunyapsizmi, fanning nozik qirralarini tarqatishga asoslangan ta'lim-tarbiya bo'limi bo'ladi...

U Moskvaga badantarbiya uchun toshlar, kraket, triktrak, bolalar bilyardi, bolalar uchun bog' anjomlari va o'ntalik juda aqlli, bilimni oshiradigan ikkita o'yin yozib yubordi. Undan keyinroq esa mahalliy aholi uning do'konini yonidan o'tib ketayotib, yuqori darajada mam-nuniyat bilan ikkita velosipedni ko'rib qolishdi: biri katta, keyingisi kichikroq. Savdo ham yuksalib ketdi. Ayniqsa, Rojdestvo bayrami arafasida savdo juda zo'r bo'ldi, chunki Andrey Andreyevich derazaga archa bezatuvchi narsalar sotilishi haqidagi e'ltonni yopishtirib qo'ygandi.

— Men bularga tozalik anjomlarini ham keltiraman, tu-shunyapsizmi, — dedi u og'aynilariga, qo'llarini ishqala-gancha. — Faqat Moskvaga borib kelishimga imkon bersangiz bo'lgani! Bundan keyin menda har qanaqasiga ilmiy takomillashgan suzgichlar ham bo'ladi, qisqasi, esingiz og'ib qoladi. Fanni, otaginam, e'tiborsiz qoldirmoq mumkin emas. Yo'-o'q!

Savdodan ko'p pul tushganda u Moskvaga ketdi va u yerdan naqd pul va kreditga bir yarim minglik har xil tovarlar sotib oldi. Bular ichida suzgichlar ham, yozuv stollari uchun oliy sifatli chiroqlar ham, gitaralar, bolalar gigiyenik ishtonlari, so'rg'ichlar, charm hamyonlar, hayvonot dunyosiga xos jamlanmalargacha bor edi. Ayni damda u besh yuz so'mga ko'zni oladigan hayratomuz idish-tovoqlar sotib oldi va bundan quvonib ketdi, negaki chiroyli narsalar nozik didni rivojlantiradi, fe'l-atvorni muloyimlashtiradi.

Moskvadan uyga qaytgach, u yangi tovarlarni ochiq javon va peshtaxtalarga saranjomlashga tushdi. Eng yuqoridagi peshtaxtani tozalayotganda nimadir bo'ldi-yu, javon bir necha bor tebranib ketdi va Mixaylovskiyning o'n tomlik kitoblari bir-biriga urilib ag'darildi. Bittasi

uning boshiga urildi, qolganlari birin-ketin pastga, chiroqlar ustiga tushib ketdi, ikkita chiroq sindi.

– Har holda... qanday qilib ular qalin-qalin kitoblar yozishganikin-a! – ming'irladi Andrey Andreyevich qashingancha.

U kitoblarning barini yig'ishtirdi va arqon bilan mahkam bog'lab, peshtaxta ostiga bekitdi. Shundan ikki kun o'tib unga xabar berishdiki, baqqol qo'shnisi qarindoshini qiyngan uchun mahbuslar rotasiga hukm qilinibdi, shuning uchun uning baqqollik do'koniga ijaraga berilar-kan. Andrey Andreyevich juda xursand bo'ldi va do'konni o'zi olib qolishini bildirdi. Do'konni sotib olgach, tezda devor teshilib, eshik ochildi va ikkala do'kon qo'shilib bitta bo'ldi, tovar bilan liq to'ldi; do'konning ikkinchi qismiga kirib yurgan xaridorlar odat bo'lib qolganidan choy, shakar, kerosin kabilarni so'rashardi, shunda sotuvchi ko'p o'yab o'tirmay baqqollik mollarini ham olib kelaverdi.

Hozirgi vaqtda ushbu qahramonimiz – shaharda eng ko'zga ko'ringan savdogarlardan. U idishlar, tamaki, qatron, sovun, teshikkulcha, gazlama, attorlik va bo'yoqchilik mollari, miltiqlar, charmlar va hatto go'sht, xullas, yangi ish boshlagan paytida yetti uxlab tushiga kirmagan narsalarni ham qilt etmay sotadigan bo'lib ketgan.

Aytishlaricha, u bozor ichkarisidan ijaraga yerto'la olib, alohida „nomer“li oilaviy hammom ochish niyatida ekan. Kitoblar esa, ya'ni qachonlardir uning peshtaxtalalida yotgan kitoblar, shu jumladan, Pisaryovning uchinchi tomi ham allaqachon har pudi uchun bir so'm-u besh tizinga sotilib ketgan.

Tug'ilgan kun va nikoh to'ylarida burungi oshnayog'aynilar, qaysiki, endilikda Andrey Andreyevich ma-

zax qilib ulug‘laydigan „amerikaliklar“ ba’zan unga taraqqiyot haqida, adabiyot yoki oliy ta’limotdan gap ochishadi.

– Andrey Andreyevich, „Yevropa axborotnomasi“ning oxirgi sonini o‘qidingizmi? – so‘rashadi undan.

– Yo‘g‘-a, o‘qimadi-im, – javob beradi u, qalin zanjir-chani o‘ynagancha ko‘z qisib qo‘yarkan. – Buning bizga aloqasi yo‘q. Biz bundan ko‘ra ancha ma’qulroq ish bilan shug‘ullanamiz.

*Rus tilidan  
Shahzoda HAKIMOVA tarjimasি*

## BAYRON SINTRA SOHILIDA

Bayron Sintrada hamrohlari bilan kelisholmay qoldi. Ular qaysi yo'l bilan ortga qaytish masalasida tortishib qolishdi. Bunday kezlarda xizmatkorlari aksiga olganday hamisha g'animlariga moyillik ko'rsatishi Bayronni yana ham darg'azab qildi.

Xiyobon darvozasidan o'tishlari bilan u yo'lni boshqa tomonga soldi. Yakshanba. Qayerdandir musiqa eshitiladi. Jahldan tushish uchun masxara bo'lishini tamomila unutgancha cho'loqlanib likanglagancha zinalar bo'ylab Yugura ketdi. Uning nigohi qarshisida tobora yangi nishabliklar, yo'lakchalar va beqiyos manzara paydo bo'ldi: dengiz qurshovidagi yashil adirlar ko'm-ko'k osmon ostida yashnab yotardi. Zinalardan chiqib borarkan, sira ham zo'riqmadni. O'zini yuqoriga ko'tarilayotgandek emas, balki parvoz qilayotgan lochindek his qildi. Birorta ham tirik jon yo'q. Hatto qushlar ham. U emin-erkin tin olarkan, yolg'izlik allalaydigan osuda makon ham bor ekan-ku, degan fikr ko'nglidan kechdi.

Olsidagi bog'-u rog'lar, ulardan ham narida yastagan dengiz yaqqol ko'zga tashlanadigan qal'a devoriga tutash yo'l bo'ylab tentirab yurganda ilkis bir qizga duch keldi. Qiz mo'jazgina tashlandiq va ship-shiydam tosh qorovulkxona, qal'a devori yonida turardi. U go'yo nomalum topshiriq bilan qayerdandir yuborilganday, qo'qisdan ro'parasida paydo bo'ldi. Qizning oppoq ko'ylagi

shamolda mayin hilpirardi. Chuchvaraday burni-yu qu-yoshda qoraygan chehrasidan samimiyat yog'ilardi. Tiy-rak ko'zlarida shijoat va shod-u xurramlik jo'sh urardi. Qiz notanish kimsaga tortinchoqlik bilan asta salom ber-ganday bo'ldi, holbuki ovozi va nigohida salomlashishdan ko'ra ko'proq mazmun mujassam edi, lekin buni Bayron anglay olmadi. U qizning salomiga alik olib to'xtadi. Qiz hamon joyidan jilmasdi.

Qiz niholday ohista sollanarkan, quruqshagan lablarini yalarkan, nim tabassum bilan Bayronga tikildi. Portugal qiz-juvonlarining bejirim lablari yurakka g'alayon soladi! Aqiqday tovlanadi. Yetilib, tasodifan yorilgan meva-ga o'xshaydi. Kavkaz qizlarining lablarini biroz eslatgani bilan, aslida, lablarining chekkalari yaproqlar bandiday ko'zga yaqqol tashlanmaydi. Bayron mavhum niyatli kim-sa kabi juda kulgili va qat'iyatsiz ko'rinyotgan bo'lsam kerak, deb o'yaldi.

U odmi va xotirjam qiyofa kasb etishga urindi. Azal-dan axtarib yurgan sirli manzarani nihoyat mana shu yashil yuksaklikda topganday bo'ldi.

Tog' havosi va ro'parasidagi qizning tarovati unga cheksiz ilhom baxsh etdi. Cho'ponlardan qolgan gulxan kuli tagidagi cho'g'dan o'rmonga o't ketganday, Bayron-ning qalbida ham allaqanday sirli ishtiyoq alanga oldi. Hatto visol onlari ham baxsh eta olmaydigan, faqat sirli tushlardagina nasib etadigan g'aroyib zavq-u shavqdan qalbi ilk daf'a junbishga keldi. Yuragi qinidan chiqquday gupullab ura boshladi.

Lekin tezda ehtirosini jilovladi, ro'parasidagi pari-vashga mahliyo bo'lib tikila boshladi, azbaroyi andisha va jur'atsizlik iskanjasida qoldi, ayni paytda koinot gultoji bo'lgan bashar farzandiga qalbida cheksiz hurmat-ehtirom mavjlandi.

Xayolidan shunday fikrlar kecharkan, goh bir joyda haykalday qotib qolar, goh esa qizning atrofida parvona bo'lardi; o'z navbatida qiz ham undan nigohini uzmas, go'yo har bir harakatini yutoqib kuzatardi. Bayron nimadir deb pichirlardi. U gapiryapman, qizga xushomad qilyapman, deb o'ylardi. Ular bir-biriga shu asno tikilar, parvona bo'lardi; odatda, biroz kichikroq va yirikroq ikki jonivor bir-biri bilan payvasta bo'lishdan oldin goh yaqinlashib, goh yiroqlashib, bir-birlarini shu asno kuzatadilar, hadiksirab hidlaydilar. Bayron qizga har qancha mahliyo bo'lmasin, aql-u hushini yo'qotmadi. Ayni paytda ko'zlarining beg'ubor oqi-yu munchoqday qorachig'iga sinchiklab razm soldi. Orada ma'lum masofa borligiga qaramay, sambitday qomati va shaloladay sochlaring ifori, hatto oftobda unniqqan oq ko'ylagining atri mast qilganday bo'ldi. U qayta-qayta shaydo bo'ladigan bo'z yigitga o'xshardi, qolaversa, qalbidagi qaynoq kechinma shunchalar jo'shqin ediki, goh qanot baxsh etsa, goh daf'atan mahv etardi. Nihoyat, endilikda chinakam hayrat va loqaydlik nima ekanini teran anglab yetgandi.

Yo'laklar singib ketgan qoramtilr butalar orasidan Bayron daf'atan odamlarning ovozlarini eshitdi. U shirin uyqudan uyg'onganday cho'chib tushdi va ajablangan qiz bilan xayrlashishni ham unutib, baland-u past zinalar bo'y lab yana ildamlab ketdi.

U yolg'izoyoq so'qmoqlar-u nishabliklar bo'y lab yana uzoq sayr qildi. Bu yo'laklar-u nishabliklar bo'y lab yana o'zi ancha oldin chiqib ketgan qasrga qaytib keldi. Hamrohlari uni tosh o'rindiqlarda ko'zları to'rt bo'lib kutib o'tirardi.

Lissabonga Bayronning taklifiga zid ravishda avval kelingan yo'l bilan qaytishdi. Bayron og'ziga tolqon solib olganday lom-mim demasdi. U qo'zichoqday yuvosh

tortib qolgan, qolaversa, nainki hamrohlariga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lar, balki har bir ashyoni avaylab qo'lga olardi.

Keyingi kunlar uning hayotida eng osuda va go'zal tushday kechdi. Dengizga tikilib o'zi bilan o'zi gaplashayotganining guvohi bo'lgan lissabonlik yalangoyoq baliqchilar uni telbaga ham chiqarishdi, lekin baliqchilar yanglishgandi. Bayron yolg'iz emasdi, ayni paytda arvohlar bilan gaplashgani ham yo'q. U Sintrada ya-shaydigan, ko'z-qulog'i, qarindosh-urug'lari, ism-shari-fi-yu boshpanasi ham bor siymo bilan sirlashgandi. Le-kin muhimi bu emas. Bayron bu siymoni biron-bir meva yoki qimmatli tosh nomi bilan atamoqchi ham bo'ldi, le-kin g'aroyib qiyofasiga rahna soladi va ranjitadi, degan o'yda bu fikrdan voz kechdi. Nihoyat, uni xayolan Jajji xilqat deb atay boshladi. Biroq uning ismini ovoz chiqarib aytishga ham botinmasdi. Faqat xayolan takrorlab, lablarni qimtigancha entikardi, xolos. Uni shu asno qalbida avaylar, ismini takrorlagani sayin sharob ichganday mast bo'lardi.

Bayron ko'p o'tmasdan Lissabonni, Portugaliyani tark etdi. Boshqa o'lkalarni kezarkan, odamlar bilan suhbatlashish, ayollar bilan hazil-huzul qilish asnosida qalbidagi sirni oshkor qilmas, aksincha, avaylab saqlardi, so'zlar, ashyolar va qiyofalar zamirida ko'z qorachig'iday avaylar, pinhona eslab huzur qilardi.

Bayron gaplardagi ayrim so'zlarni u bilan chog'ishtirar, bunday so'zlarni boshqalardan eshitgan pallalarda ham qalbi beixtiyor zavq-u shavq bilan to'lardi. Uning imzosi-da Sintra tepaligidagi qizni eslatadigan, arang ko'zga tashlanadigan nuqtaday chiziqcha paydo bo'ldi. Limon, tuz, yog' va gulxayriga ko'zi tushganda uni eslardi. Yigirma chog'li odamlar davrasida ovqatlanayotgan kezlarda ham

bir chimdim tuzga nazar tashlab, yam-yashil Sintra bilan Jajji xilqatni ko'z oldida gavdalantira olardi. Lekin qiz-juvonlarning qiyofalari, gap-so'zlari va xatti-harakatlariga har qancha sinchiklab nazar solgani bilan Jajji xilqatning tirnoqcha ham nishonasini topa olmasdi.

Xotirasida barhayot Jajji xilqat uning dardiga davo bo'lardi, shu bois u bilan bog'liq xotiralarni barcha uchrashuvlar, ayollar va hayotdan ham a'lo bilardi. Dengiz sohillarida yolg'iz qolgan kezlarda esa hatto tasavvur ham qilib bo'lmaydigan chinakam mo'jiza sodir bo'lardi: Sintradagi lojuvard sohil beqiyos olamga aylanardi, cho'loqlanib yugurishi – sarbaland parvoz tusini olardi, o'sha uchrashuvda qalbida jo'sh urgan ehtirosli kechinmalar esa oshusta ruhning bokira tuyg'ulariga do'nardi.

G'aroyib sarxushlik Bayronni bir yilcha bezovta qildi. Keyin tong arafasidagi arvoхlar va tushlar singari Jajji xilqat qiyofasi tobora xira tortib so'na boshladи, nihoyat, ortiq bezovta qilmay qo'ydi. Bayron o'zini yetimday g'arib seza boshladи. Qalbida shiddatli hayot girdobi yana qaynab toshdi, uchrashuvlar va to'qnashuvlar yana bir-biriga zanjirday ulanib ketdi, ular bilan yonma-yon alamzada nafrat ham qora tug'ini baland ko'tarib borardi. Sintradagi sirli lahzalardan keyin bunday qismat yana ham zahmatli va alamlı tus oldi, chunki endilikda unga turmushning yovuz qoidalari orzular sultanatiga ham daxl qiladiganday va ulardan qutulib bo'lmaydiganday, najot yo'qday tuyulardi.

*Rus tilidan  
Abduhamid PARDAYEV tarjimasi*

---

*Roziya TUJJOR*  
(Eron)

## **YANA BIR YULDUZNING BOTISHI**

Chol o‘lgan edi. Chunki ancha vaqtlardan buyon cholning katta ko‘zoynagi tokchada turar, uning o‘ng ko‘ziga tushgan darz kundan kunga kattalashib borardi. Kampir – Hamdam uchun bu hodisaning yuz berishiga ishonish unchalik ham qiyin emas edi. Aks holda devorga chirmashib o‘sadigan siren guli qurimagan, bog‘chadagi payvand qilingan nok daraxtining tanasiga shira tushmagan, yerto‘laning yomg‘ir ivitib yuborgan zinalari qulab tushmagan bo‘lardi.

Shu sababli ham Hamdam soatlab undan yodgor qolgan poyalari kalta charm qoplangan divanda o‘tirar va uning yodi bilan to‘lgan barcha kunlarni eslardi. Chol hamisha mana shu yerda o‘tirardi. Xuddi mana shu yerda. Ustiga quroq matodan jild tikilgan va mana shu divanning ustiga solingan to‘rtburchak shaklidagi ko‘rpachada o‘tirgancha, Hamdamga e‘tibor ham bermasdan va uning ovozini eshitmasdan, ikki to‘lqinli kichkina yashil radiosiga qulqoq berib o‘tirardi.

Chol vafot etganidan keyin kunning aksar vaqtida ana shu divanning ustida o‘tiradigan, sarg‘aygan oriq barmoqlari bilan ko‘rpachanening qurama jildini silaydigan ham Hamdamning o‘zi edi. Ammo endi uning o‘rnidan turib borib tokchadan ko‘zoynakni olishga, so‘ngra eski gazetalarini yoyib, undan allaqachon tugab ketgan urush xabarlarini o‘qishga yoki ikki to‘lqinli radioning yashil

chirog'ini yoqib, chol eshitishni yoqtiradigan kuyni eshitishga hafsalasi yo'q edi. Faqatgina ayrim paytlari hassasining uchi bilan divan ostidagi bo'g'chani tortib chiqarib, undagi latta-puttalardan quroq tikishni yoqtirardi. Ammo u qo'liga igna olib quroq tikishni boshlashi bilan chol qarshisida paydo bo'lar, quyosh bilan Hamdamning o'rtasida turvolib, unga tushayotgan nurlarning yo'lini to'sardi. Axiyri Hamdam e'tiroz bildirishga majbur bo'lardi:

- Chetga tur. Ishimni qilishimga xalaqit berma.
- Ammo chol qaysarlik qilar, uning boshida turvolib:
- Mening dorilarim qani? Ovqatim qani? Tarvuz suvidan tayyorlangan sharbatim qani?! – deyaverardi.

Hamdam oh chekar, qo'lidagi ignasini latta-puttalarning bir chekkasiga sanchardi-da, uyning bir burchagiga otib yuborardi. So'ngra yog'och hassanинг ajdarho shaklida yasalgan dastasini mahkam ushlagancha qiyinchilik bilan o'rnidan turar, ammo to qarshisiga qarayman degunicha chol birdaniga yuqorilab ketar va shiftning bir burchagiga qo'ngancha o'rgimchakka o'xshab to'r to'qiy boshlardi.

Shu choq qo'shni ayolning gaplari Hamdamning miyasida charx urardi:

- Ko'zingga har xil narsalar ko'rindigan bo'lib qolibdi, kampir. Ikk-i-uch kun kuyovingning uyiga, nevaralaring oldiga borib turgin. Ham bir havo almashtirasan, ham har xil xayollar miyangdan chiqib ketadi.

Hamdam yana divan tomonga qaytib borardi. O'sha ko'rpachaning ustida o'tirar va soatlab to'g'riga qarab temilardi. Faqat biror luqma ovqat yeb olish va dorilarini ichish uchungina o'rnidan turar, so'ngra yana divanning ustida o'tirib olardi. Bu safar g'ujanak bo'lib olgancha ertalabgacha uxlardi.

Ko'zini ochishi bilan yana chol shiftdan pastga tushib kelar, ingichka va uzun qaddini tik qilgancha uning qarshisida turvolardi:

– Hamdam, senga shakar solingen piyolani xonaning o'rtasidan olib qo'y, deb aytmaganmidim? Oyog'im bilan turtib yuborib, hamma joyga shakar to'kilib ketishini xohlaysanmi?

Hamdam hali yuz-qo'lini yuvmasdan turib, hassaning uchi bilan shakar solingen piyolani o'ziga qarab surar va uni divanning ostiga yashirardi. So'ngra o'midan turib igna bilan to'qilgan gilamning ustidan yurib tahorat olardi.

Yuz-qo'lidan suv tomchilari tomib turgancha qaytib kelib, divanning ustiga o'tirar va kichkina stolchani oldiga tortardi. So'ngra joynamozini solib, o'tirgan holda namozini o'qirdi. Ammo hali salom berib namozini tugatmasidan uning to'q-to'qi eshitilardi:

– Kampir, bog'qaychim qayerda? Uni bu yerdan olib qo'yma deb aytmaganmidim? Nuqlu axtargan narsamni joyidan topolmayman...

U zo'rg'a namozini tugatar, so'ngra o'rnidan turib igna urgandek sanchiyotgan oyoqlari bilan yurib borib ko'rpalari taxmoni ostidan bog'qaychini olar va uni tokchaga qo'yib qo'yardi.

– Oxirgi marta o'zing shu yerdan o'tganding. Nega xayolingni joyiga qo'yib yurmaysan, chol? Nimaga hamma narsani mendan so'raysan?

Ammo choldan javob bo'lmasdi. Xuddi „Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Xudodan boshqa hech kim yo'q ekan“, deganlaridek. Hamdam yig'lab yuborardi. Shu paytda qo'shni ayol kelib qolar, eshikning og'zida turib olgancha derdi:

– Ko'zingga har xil narsalar ko'rindigan bo'lib qolibdi, kampir. Yolg'izlik sening esingni og'dirib qo'yibdi... Qizing, qizing, qizing, qizing...

Chol o'lgan edi. Buni bir qancha vaqtlardan beri tokchada yotgan o'ng ko'zi siniq ko'zoynak, zanglagan bog'qaychi, qurigan siren guli, shira tushgan nok daraxti... aytib turardi. Hamdam ba'zida to'g'ri to'rtburchak shakliga ega bo'lgan va yam-yashil bo'lib turgan may-sazor tomonga qarab ochiladigan derazaning yoniga borardi. Ammo chol o'lidan keyin xuddi uning hamma joyiga kul sepilgandek ko'rinaridi.

Maydonchada to'p ketidan yugurayotgan bolalar ham uning yoshligini eslatardi. Bu manzara go'yoki Hamdam uchun bir ko'zguday bo'lib, unga bundan o'ttiz to'rt yil oldingi vaqtni ko'rsatayotgandek edi. Ammo qachonki Hamdam uni tomosha qilishdan char-chasa, ular ham birin-ketin uchayotgan to'plari bilan birgalikda osmonga parvoz qilishar va kunbotarga qaragan darvoza tomon uchib ketishardi. Hamdam ularni to ko'rinxay ketgunlaricha kuzatib qolardi. Shundan so'ng yana asta-sekin yurib, divanga borib o'tirishga majbur bo'lardi. Yana soatlab xayol surar va uydagi hamma narsaning va millari chol o'lgan vaqtga kelib to'xtab qolgan devor soatining ustiga qo'ngan g'uborga tikilib qolardi. So'ngra daraxtlarning soyasidan kun botishiga qancha vaqt qolganligini bilardi. Faqatgina tong chog'ida qo'shni ayolning kelishidan ertalabki soat yetti bo'lidanligini anglandi. Ayol oriq va beso'naqay bo'lib, sochlari siyrak va ko'zları g'ilay edi. Kelardi-da, eshik ostonasida turib olardi. U hech qachon ichkariga kirishga va eshikning oldida turgan polyakcha stulga o'tirishga hafsal qilmasdi.

Ammo ko'zları bilan uyning barcha burchaklarini kezib chiqar va og'zidan suvi oqib derdi:

— Ko'zingga har xil narsalar ko'rinxadigan bo'lib qolib-di. Nega aytmaysan, qizing, qizing, qizing, qizing...

Yo'q, u ko'rmasdi. Yuqorida, shiftga yopishib olgan cholni ko'rmasdi. Bir shisha sutni uning qo'liga berardi, ko'zlar bilan uyning ichini aylanib chiqardi. Hamdam sabri – sariq sabri bir gul kabi ochilib ketmasidan oldin uning tezroq ketishini istardi. So'ngra qizim kelib qolar, de gan umidda hamma joyni saranjom-sarishta qilib qo'yardi.

Chol o'lganidan beri qizining ham qadami bu yerlar dan uzilgan edi. Doim: „Ishim ko'p, – derdi. – Bolalarim, erim...“

Hamdam yolg'izlikka chidardi. Bir necha soatlab, bir necha kunlab... Ana shu yolg'iz kunlarida va yolg'iz soatlarida qizi to'g'risida ham o'ylardi. U bir zamonlar jajji qizaloq edi. Jingalak qop-qora sochlari peshonasi ga tushib turar, ko'zlar ham tasbeh donalariday qop-qora edi. Dadasining tizzasida o'tirib o'ynar, unga qo'shiq aytib berardi:

„Hil-u gavhar, halvoyitar, qursi qamar...“

Ammo endi... undan buyon qancha yillar o'tib ket di. Yuzlariga, ko'zlarining ostiga va peshonalariga tush gan ajinlarning sonicha, oqarib qolgan sochlaringin sanog'icha...

Hamdam bugun ham har kungidek yolg'iz edi. Nega qizi kelmayapti ykin? Ayniqlsa hozir, dadasining jahli chiqqan payti.

Kunbotar chog'ida eshikning qulfi ichida bir kalit aylandi va eshik og'zida butun bo'y-basti bilan qizi pay do bo'ldi. Hamdam uning kulishini kutgandi. Ammo... judayam toliqqan ko'rinardi. Bolalari qayerda ekan?

Qizi keldi. Onasini ko'rgani kelgan hamma qizlar kabi. Hamdam uning ovozini eshitdi va oyoqlarining izini sur ma kabi ko'zlariga surtdi. Biroq uning yuzidagi tundlikni ko'rib titroq tutdi. So'ngra o'zi bilan botayotgan quyosh o'rtasida turgan qizining soyasini ko'rди.

– Bilasanmi, oyijon, bir narsa aytgani kelgandim. Yu-zim bo'lmayapti, ammo... Bizga pul kerak bo'lib qolgan-di. Qurilish qilayotganimizni bilasan. Agar... agar mana shu yerni sotishning iloji bo'lsa... Umuman, uyning nima keragi bor senga? Yolg'izsan, har xil xayollar seni qiyinab yotadi. Agar istasang o'zimizning yaqinimizdan birorta xona...

Hamdam qo'lidagi ko'hna jez uzugiga termilgancha qotib qolgandi. Uzuk titrardi. Boshini ko'tardi. Chol o'sha tepadan unga qarab turardi. „Yo'q“, demoqchi bo'ldi... Ammo ustiga baxmal tashlangan sandiq tomon borayot-gan qizini ko'rdi.

Endi u kichkina bir qizaloqqa aylanib qolgan edi. Peshonasiga tushib turgan o'sha jingalak sochlari bilan sandiqni ushlab olgancha o'jarlik qilardi:

– Menga berasiz, menga berasiz!

Qizi sandiqning qulfini ushlab olgandi. Hamdam dera-zaning yoniga borib, maysazorga tikilib o'tirgan cholga yana bir qarab qo'ydi. Har doim shunday bo'lardi. Qa-chonki biror yordamga muhtoj bo'lsa, yonida bo'lmasdi. Shu yerda bo'lib turgan bo'lsa ham ketvorardi. Endi nima qilishi kerak?

– Menga berasiz, menga berasiz!

Hamdam qo'lini cho'zib, hassasidagi ajdarhoning kallasiga yopishdi. Mashaqqat bilan o'midan turdi va igna bilan to'qilgan gilamning ustidan o'tdi. Qo'lini bo'g'zi-ga olib bordi. Ipga osilgan kichik oltinrang kalitchani chiqardi. Qiynalib engashdi-da, haliyam qizining qo'lida bo'lgan qulfni ochdi.

Sandiqning eshigi ochildi. Tikilmagan bir necha qatlam matoning ustiga xalati va yana bir qalin mato yopilgan, ularning orasiga sedar, kofur, anor daraxti shoxidan olin-gan kichkinagina bir cho'p, nam tegmagan tuproq qo'yil-

gan, bularning hammasi ustida esa uyning hujjati turardi. Hamdam faqatgina xalatini oldi va asta-sekin yurib, haliyam cholning o'tirgan o'rni issiq turgan, divan tomonga bordi. Qizi uyning hujjatini qo'liga olib, varaqladı, u yoqbu yog'iga qaradi va qo'l sumkasiga soldi.

Endi qizi borib Hamdamga choy damlab berishi yoki latta bilan uydagi changlarni artib chiqishi kerak edi. Ammo negadir Hamdamning ko'zlariga qarash uchun boshini ko'tarmasdi.

Bir necha daqiqalardan keyin qizi ketgan, sandiqning eshigi haliyam ochiq turardi. Hamdam xalatini egniga ildi, orqasi bilan divanga suyanib ko'zlarini yumdi. Botayotgan quyosh uning peshonasiga bir parcha muhr tushirgan edi. Balki, uning vujudidagi yagona issiq nuqta ham bir necha daqiqalardan keyin butunlay o'chadigan ana shu bir parcha qizil nur edi. Kun esa tunga ulanib borardi.

*Fors tilidan  
Shokirjon OLIMOV tarjimasi*

---

*Yuxan FALKBERGET*  
(Norvegiya)

## QISMAT

Tun yarimlab borardi. Tog‘lik yigit Ber Enason keksa shifokorning uyi oldida g‘amga botib turardi. Sovuq qish osmonida yulduzlar ham titrayotgandek tuyulardi. Ayoz chorqirra derazalarni ham billur naqshlar bilan bezagan. Olisdan olis yo‘lni bosib kelgan yigit sovqotganini, ni-hoyat, endi angladi.

Shinam xonadon uni issiq bag‘riga oldi. Quruq qoraqarag‘ay o‘tinlari alanga olib, ostobday isitar, qizigan pechka esa afsonaviy farishta kabi nay chalayotganga o‘xshardi. Biroq bu farishta ayni pallada hech qanday yaxshilikni va’da qilmasdi.

Uy haminqadar jihozlangandi. Devorga ilingan bir juft qilich ostidagi suratda, yozuv stoli ustida lipillayotgan sham nurlari jilva qilardi. Bu qilichlar bir paytlar portret-dagi siymoga tegishli bo‘lgan. Aytishlaricha, bu bahodir o‘z davrida ko‘plab mamlakatlarning qiz-juvonlarini ishq o‘tida kuydirgan. Bemorlar halovatini buzmagan kezlarda do‘xtir qilichlarga tikilib xayol surishni xush ko‘rardi.

Ber Enason o‘tirgani botinmadi. Faqat tortinchoq bo‘lgani uchun emas. Bug‘ularning shoxlaridan ko‘z umay, po‘stak to‘shalgan yalang chanada uzoq yo‘l bosib kelgan yigitchaga bejirim g‘ilofli uch oyoqli stulga o‘tirish noqulay tuyuldi. Keksa do‘xtir buni payqamadi, u o‘z ishiga shu qadar berilgandiki, yigitga iltifot ko‘rsatish xayoliga ham kelmasdi.

Ber imkon boricha tez qaytib ketishi kerak: Sutoxau-gen yaqinidagi olis kulbada sevgan ma'shuqasi Kletta og'ir xasta bo'lib yotibdi. Klettani tirik ko'rish nasib etarmikan, degan shubha uning bag'rini o'rtardi. Ko'zyoshlarini arang tutib turardi: Klettaning visoli nasib etadigan munavvar ayyom nahotki toabad armon bo'lib qolsa?! Bu nurli ay-yomga ularning ikkovi ham juda-juda intiq edi. Alamdan o'kirib yubormasa bas. Chuqur-chuqur nafas olsa...

Shimolda, tog'lar yonbag'rida nima uchundir hamisha shunday bo'lar, qishda kimdir vafot etardi. Bu muqarrar qismat tusini olgandi. Biron kimsaning kuni bitgani hamono, cherkov qo'ng'iroqlarining sadolari samoga tutash tog'larni ham larzaga solardi. Bu gal, aftidan, ma'shuqasi Klettaning kuni bitadigan ko'rindi.

Do'xtir bemor uchun dori tayyorlay boshladi. Bu juda qo'li yengil do'xtir edi. Hech kimdan yordamini ayamas, shu bois butun o'lka ahlining mehrini qozongan yagona odam edi. Ko'plab odamlarning hayotini saqlab qolgan do'xtir keksaligiga qaramay, hamon yordamga oshiqar, bemorlarni sidqidildan parvarish qilardi. Katta-yu kichikni tug'ishganiday ko'rardi. Aholi ham mehribonchili-gini munosib qadrlar, uning portretini istalgan paytda afsonaviy qahramon surati yoniga ilishga tayyor turardi. Do'xtir, eng muhimi, kasb-u kori orqasidan mo'may daromad qilishni sira o'yamasdi.

– Bemor xotiningmi, Ber Enason? – so'radi do'xtir.

Savol yigitning bag'rini o'rtab yubordi. Ber boshini quyi soldi.

– Shunday desa ham bo'ladi, – entikib dedi u.

Do'xtir o'ta o'tkir hidli suyuq malhamni tomchilatib shisha idishchaga quyardi. Asta tomayotgan tomchilar ni erinmasdan birma-bir sanardi. Nihoyat, do'xtir shisha idishning og'zini yopdi. Malham tez yordam berishi

uchun uni bemorga qanday ichirish kerakligini yigitga bat afsil tushuntirdi.

– Umid qilamanki, ma'shuqang tuzalib ketadi, – deb qo'shimcha qildi.

– Rahmat!

Ber shisha idishni tez cho'ntagiga joyladi. So'ng charm hamyonini olib, stol ustiga bitta kumush tanga qo'ydi.

– Tezroq yo'lga tush! – dedi do'xtir va unga tangani qayta uzatdi.

– Roziman, olavering, – dedi Ber. U qirov qopgan eshik kesakisiga qo'li bilan suyanib turardi.

– Qaytarib ol deyapman senga! Nikoh to'yini o'tkazhning o'zi bo'lmaydi! – dedi do'xtir mehr bilan.

Ber hamon eshikka suyangancha turardi.

– Zora shu dori bilan tuzalib ketsa, – u shunday deb do'xtirga savolomuz tikildi.

Uyda osoyishtalik hukm surardi. Derazalarda oy nurlari shu'lalanar, tashqaridagi sovuq ichkariga ham asta-sekin kirib kelayotgandek edi.

Do'xtirni xayol olib qochdi. Ayni shunday qish tunida oqimtir-sarg'ish ulovdag'i chavandoz xotinidan toabad judo qilganini esladi. Ha, ayni shunday kechada...

– Har daqqa g'animat, bora qol, o'g'lim! – deya yigitga samimiyoq yo'l tiladi ko'zoynakli keksa do'xtir.

Va Ber tun qo'ynida arvoh kabi g'oyib bo'ldi.

\* \* \*

U tog'li voha bo'ylab chanada yelib borardi. Oyning sovuq shu'lalarida qor kumushday tovlanadi. Yassi darani ayoz kishanlab olgandek. Kletta xastalanib yotgan kulba ayni daraning poyonida, Sutoxaugennenning ortida bo'lib, Ber Enason yonidagi malham bilan o'sha tomon oshiqardi. Klettaning o'pkasi shamollagandi. Yetti kun-

dan buyon xastalik bilan olishardi. Xastalik kuchaygan yettinchi kecha.

Yigit avvaliga shamolday uchdi. Keyin bug‘u holdan toyta boshladi. Chana bechora jonivorga ancha og‘irlik qilar-di. Bunday imillab ketishda faqat keyingi kungina manzilga yetib borishi mumkinligini Ber angladi. U qo‘lidagi kaltak-ni bug‘uga o‘qtalgancha, bor ovozi bilan hayqirdi. Biroq hayqirig‘i osuda tog‘lar bag‘riga sassiz singib ketdi.

Tong bo‘zarganda u faqat Vargfelmannga yetib kela oldi. Nihoyat, qizg‘ish quyosh nurlari tog‘lar uzra yastan-di. Kun boshlandi. Xira tortgan oy tog‘lar uzra inganday. Yulduzlar so‘nib, dara ustida ertalabki yorug‘lik o‘ynay boshladi. Vargfelmanndan kulbagacha yarim kunlik yo‘l qolgandi. Biroq bug‘u holdan toydi. U chanani arang tortib borardi. Ber es-hushini tamomila yo‘qotdi. Qo‘lidagi kaltakni qahr bilan o‘ynatar, bug‘uga bor zahrini sochar-di. Qo‘qqisdan jonivorni ura ketdi. Bug‘u har zarbadan hushyor tortar, biroq charchoqni yenga olmasdi.

Ber Enason arslonday na’ra tortib, bor kuchi bilan bug‘uga zarba berdi. Uning qichqirig‘i qanchalar dahshatli bo‘lmasin, tongoldi g‘ira-shirada ojizona yangradi. Faqat ro‘paradagi tog‘ qoyasi och qolgan bo‘rining uvullashiday sovuq aks-sado qaytardi va yana sukunat cho‘kdi.

Kletta esa o‘z kulbasida, to‘sakda yo‘lga ko‘z tutar, xastalikning yettinchi kuni boshlangandi. Sutoxaugenda kun boshlanmasdan oldin u bechora o‘z kulbasida jon taslim qiladi. Nozik jismidagi harorat so‘nadi. Shundan keyingina oftob chiqadi...

– Hoy jonivor, ildamroq qadam tashlay qolsang-chi! – bug‘uga qichqirdi Ber. – Kletta men uchun qanchalar qimmatli ekanini bilasan-ku! Yolvoraman senga! Ma’shuqam o‘lmasligi kerak! O‘lmasligi kerak, eshityapsanmi?!

U kuchdan qolgan bug‘u bilan shunday dardlashardi.

Jonivor esa qorga yotib olgan, iztirob to'la ko'zlari bir juft baliq tangasi kabi yaltirardi.

Ber Enason shiddat bilan chanadan tushdi. Bug'uning qoshida tiz cho'kkancha bo'ynidan quchoqlab shivirlay ketdi:

– Toychaday mitti bo'lgan kezlaringga Kletta seni qanday mehr bilan parvarish qilganini unutmagan bo'lsang kerak?

Jonivor boshini mardona ko'tardi, iliq oftob nurlari manglayida jilva qildi. O'midan turishga urindi, biroq katta boshini yana majolsiz yerga qo'ydi.

– Xudo haqqi...

Ber bug'uni shoxlaridan tutgancha ko'tarmoqchi bo'ldi. Befoyda. Yigit bug'uning yirik ko'zlariga bir na-fas tikildi. Alamdan a'zoyi badani titrar, og'zi burishib ketardi. Ber pichoqni olib, bug'uga po'pisa qila boshladi:

– O'ldiraman, la'nati!

Lekin qo'rquvdan ilkis o'zini orqaga tashladi. Dahshat-ga tushdi. Yig'lagancha ortiga o'girildi. Bu jonivor xasta qaylig'iga yordam bera qolsa nima qilarkin-a! Qaylig'i hamisha muloyim va mehribon bo'lgan. Ber daf'atan qaylig'ini ko'rdi. U o'rmon chetida turar va siymosidan nur yog'ilardi. Bir tutam yoz tuni poyoniga yetgan. Daraxtlar-ning yaproqlarida durday shoda-shoda shabnamlar. Sho'x jilg'alar shovullaydi. Bu shovqin-suronlar ostida qaylig'i-ning voha uzra yangrayotgan qo'shig'i eshitilmay qoldi.

– Klettani nahotki unutgan bo'lsang? – Ber yana bug'uning bo'yniga chang soldi.

Oftob esa cho'qqilar oralig'idan qilichday joy olib ul-gurgandi...

Shunda Ber Enason keskin tizzalab joylashdi, ko'z ochib-yumguncha ham fursat o'tmay bug'uning baxmal-day yungiga pichoq sanchildi. Yaralangan jonivor uzundan

uzun xirillagancha o‘rnidan turishga urinib tipirchiladi. Biroq jarohatdan qon otilar – ortiq hech majoli qolmaga gandi. Faqat jon taslim qilishgina qolgandi.

Ber qaddini rostladi. U jarohatga yopishgancha issiq bug‘u qonini simira boshladi. Oyoq-qo‘li bir nafasda kuch-quvvat bilan to‘ldi. Jonivordan nari ketib, tog‘larga burgutday tikildi... Bu paytga kelib quyosh o‘z manziliga, Sutoxaugen ortiga ham nur socha boshlagandi... U yana jonivorning jarohatiga yopishdi, issiq qonni to‘yib-to‘yib simirdi. Daf‘atan bug‘uning so‘nggi marta titraganini sezdi. Jonivor o‘lgandi...

Ber timdalangan yuzi dokaday oqargan alfovza archa butalari bilan qoplangan o‘nqir-cho‘nqirlar bo‘ylab yugurib borardi.

Nafasi bo‘g‘ziga tiqilib qolsa ham yugurishdan to‘xtamadi. Sutoxaugen hali juda ham olisda! Nazarida, tog‘lar har qachongidan ham g‘amgin ko‘rindi. Qora terga botdi. Biroq hamon chopgani-chopgan edi... U shu tog‘larda voyaga yetgandi, lekin ularni birinchi marta ko‘rayotgandek edi.

Kun oxirladi. Quyosh ufqqa indi. Ber holdan toyib tiz cho‘kkancha jilg‘adan tashnaligini qondirdi. Botib borayotgan oftob nurlari suv mavjalarida jilvalandi.

Ber Enason boshini ko‘targan edi, dastlabki yulduzga ko‘zi tushdi.

Daf‘atan qulog‘i shuvulladi, oyoqlari chalishib ketdi:  
– Tamom!

U cherkov qo‘ng‘irog‘ining ovozini eshitgandi. Qo‘ng‘irog sadosi olis-olislardan kelardi. Bu – zavol sadosi edi. Kimdir vafot etgandagina shu asno qo‘ng‘iroq chalinardi. Shom ichra alamlı sadolar dara bo‘ylab quzg‘unday kezar, Ber Enason esa tayoqqa suyangancha tosh qotib tinglardi.

Rus tilidan  
Abduhamid PARDAYEV tarjimasi

## **OLIS VA YAQIN**

Temiryo'l tarafdan kaftdek bo'lib ko'zga tashlanib turadigan jimitday shaharcha chetidan boshlanib ketadi-gan gugurtdek qishloq uylarining bari oppoq taxtalardan yasalib, ataylab yorqin ko'rinishi uchun faqat yam-yashil pardalar bilan bezatib qo'yilgan. Har bir uycha biqinida turli o'simlik va sabzavotlar naqshdek qilib ekilgan ozoda bog'lar bor, ular ichidagi ixcham shiyponchalarining uzum-lari avgust etagiga borib g'arq hosilga kiradi. Uylarning qarshisida bir-birlariga yelka tutib ko'kka bo'y cho'zgan uch dona baquvvat eman qad rostlagan, ular yozning avji saratonida o'zining ulkan va osoyish ko'lankasi bilan odamga qayta jon bag'ishlaganday bo'ladi, daraxtlar atro-fida bo'lsa xushmanzara gullar qator qilib ekip qo'yilgan. Bu makonning barcha yeridan musaffo va bahuzur havo bilan kishini o'ziga tortguvchi allaqanday ohangrabo oqib turadi.

Har kuni kunduz soat ikkiga uch-to'rt daqiqa qol-ganda bu yerdan ikki shahar o'rtasida qatnovchi po-yezd o'tib ketadi. O'sha vaqtda ulkan poyezd nimagadir shaharcha chetidagi o'sha sokin go'shaga yaqinlashib, ko'proq nafas rostlashni istaydi, biroq u hali o'zi-ning belgilangan manziliga yetib bormasdan tezlikni to'xtatishga aslo haqqi yo'qligini yaxshi biladi. Po'lat ot ajoyib manzaralarga to'yib-to'yib tikilgancha bir

muddat gumburlab turadi, uning uzundan uzun amirona qichqirishidan tevarak-atrof larzaga keladi; motorlari quloqni qomatga keltirgudek kuchli guvullab, ketma-ket zanjirdek bog'lanib ketgan vagonlar bir-biriga urilib ohista taraqlaydi, ammo zum o'tmay yana pishqirgancha olis-olislarga jo'nab ketadi. Soniyalar davomida undan qolgan aylana tutunlar o'jar motorning tashrifidan belgi bo'lib, yaylov o'tlari ustida o'rlab-o'rlab ko'kishtob os-monga ko'tariladi-da, siyraklashadi, dam o'tmay butunlay o'chib ketadi, oxiri, kunning uyqusiragan halovatini o'g'irlagan poyezd g'ildiraklarining kuchsiz gumburlashidan bo'lak sas eshitilmay qoladi.

Qariyb yigirma yildan buyon har kuni shaharga qatnovchi poyezd bu yerga yaqinlashishi bilanoq haydovchi zo'r hayajon bilan signal beradi va yana har kuni, aynan shu sadoni eshitgan zahoti uychalardan birining oldida yoshgina juvon ko'rinaldi-da, unga zo'r berib qo'l silkiydi. Avvallari ayolning etagiga yopishib kichkina bolasi ham paydo bo'lar, lekin u endi balog'at ostonasiga yetgan, ko'zga ko'rinarli qiz bo'lib ulg'aygandi, otasi o'tadigan har kun u ham onasiga qo'shilib, ostonada turgan ko'yi unga sog'inchli qo'l siltardi.

Yillar haydovchiga ham keksalik muhrini bosdi, uning soch-soqoli ana shu temiryo'l xizmatida moshkichiri bo'ldi. U bu qudratli poyezdg'a go'yo shuncha yillar va taqdir yukini ham ortib olib, xuddiki butun yer yuzasini o'n ming martalab bosib o'tgandek bo'lib yashadi. Bolalari allaqachon ulg'ayib, uyli-joyli bo'lib ketgandir. Hali-hamon esida bor, bir gal u hamma bolalarini bitta vagonga joylagancha, olis manzillarni ko'zlab shamoldek ketib borarkan, kutilmagan falokat oyoq ostidan chiqib, hammaning o'takasini birdek yor-

gandi, haytovur, omadi bor ekan, uyam, bolalariyam eson-omon uylariga yetib kelib, qayta bunday tahlikali safarga chiqishdan tavba qilib olishgandi. Ammo o'sha hodisa chog'idagi sarosima, qondoshlarning bir-birlariga bo'lgan mehr-u oqibati, bir-birlarini ehtiyyotlash, suyash, qutqarish – bularning bari keksa haydovchining ko'ksini tog'dek ko'tarib, mehnatda toliqqan yuzlariga nur ulash-gandi. Ha, hamon bari kechagidek esida turibdi. Endi esa bechoraning yurak-bag'ri xuddi egalari ko'chib ketgan ulkan uy misol huvullab yotibdi. Bu matonatli inson umr bo'yi vijdonan ishladi, ishiga zarracha xiyonat qilmadi, sidqidildan va ortig'i bilan xizmat qildi, bir kun ham nolimadi, shikoyat qilmadi, bor kuchini faqat va faqat mehnatga, toza ishiga bag'ishladi. Uning chehrasi mo'min-qobil, jiddiy va qayg'uli edi. Hayotdagি hech bir monelik va mashaqqatlardan cho'chimagan haydovchining qalbini necha yillik sog'inch hissi pishib yotgan g'urbatdek doim ezg'ilardi.

Biroq aynan o'sha qadim manzara, sevimli manzara – ayoli bilan qizchasining qadrdon uyi ostonasidan unga qo'l silkigancha, uylarining xojasiga sog'inchli salomlarini yo'llagan damlar eng saodatbaxsh, hayotining har qanday og'riqli nuqtalaridagi eng davobaxsh, eng jonbaxsh esdalik bo'lib muhrlangan edi. O'shanday xushbaxt soniyalarda uning yolg'izlik va miskinlikda siqilgan yuragi ozod etilgan qushdek qanot qoqib, shod-u xurram uchgisi kelardi. Uy – yaqinlarning diydori. Musofir kishi uchun bu dunyoda shugina diydordan qimmatliroq ne'mat bormikan?

U o'sha bebaho lavhani ming martalab xayolidan o'tkazardi, yuz martalab ko'z oldiga keltiraverardi, lekin zarracha bezmasdi, sira to'ygisi kelmasdi. Jondan aziz dilbandlari tug'ilib o'sgan o'sha aziz go'sha unga faqat

muhabbatdan, huzurbaxsh muhabbatdangina so'zlayverardi. Yillar o'tib, xizmat muddati o'z poyoniga yetgach, keksa haydovchi va nihoyat bir kun qadrdon uyiga kirib boradi, uni sog'ingan, ko'zlar to'rt bo'lib kutayotgan farzandlarini mehnat-u mashaqqatlarda iyig'i chiqib ketgan qaltiroq qo'llari bilan ichikkan ko'ksiga mahkam bosadi, so'zlar ko'zyoshlariga, tillar o'tli nigohlarga aylanib ketadi, ha, hammasi ana shunday ro'y beradi. Hammalari sog'inchdan, intiqishdan porlagan ko'zlar-la so'zlashadilar, to'yib-to'yib sirlashadilar... Haydovchingning yuragi shirin entikib ketdi, ko'ngil shunaqa beixtiyor bo'larkan-da!

Oxiri, vaqt shamoli kutilgan kunni quvlagancha olib keldi. Tug'ishgan inisidek bo'lib qolgan temir ulov ostonasidan asta yerga oyoq qo'yarkan, u azbaroyi quvon-ganidan yetib kelgan manzili – muqaddas shaharchasining odam siyrak stansiyasiga ham sig'may ketdi. Xayolida ming o'y bilan shahar ko'chalaridan bir-bir o'tgancha, ko'zlar oldiga hadeb qadimgiday qo'l silkigan ayol bilan yosh qizchasi suratini keltiraverdi. Haydovchining olislarda, o'z uyidan uzoqda kechgan yillari gumburlagan poyezd oyoqlari ostida yemirilib, bir joyga borib qolgan yoshi so'nggi stansiyaga yetganda nihoyat tin olgandi. Le-kin uning hayotdan hech ginasi yo'q, yaqinlaridan, ularning mehr-u muhabbatidan hamisha ko'ngli to'q bo'lgan, o'ziga ham ishongan, yuzlarida siniq va sog'inchli tabassum jilvalangani jilvalangan, baribir hayot unga doimo shirinlik ulashgan!

Ketganidan beri shaharchada bir talay o'zgarishlar bo'libdi, unga tanish yerlarning bari mutlaqo tanib bo'lmas qiyofaga kiribdi. Odamlar o'zgaribdi, daraxtlar o'zgaribdi, negadir hammasi avvalgidek emas. Haydovching ko'ngli xijil tortdi. Xuddi begona uyga qadam

qo'yayotgan odamdek o'ng-u so'liga alanglab, o'zini noxush sezdi. Rostdanam, sevikli poyezdi signalini shu yerga yetganida cho'ziq chalgancha ming martalab bosib o'tgan shaharcha mana shumi? Kabina oynasidan uzun entikish-la to'yib-to'yib termilgan qadrdon uychalar – haqiqatan – ana shularmi? Yo'q, ko'rib turganlari xuddi yomon tush ichida alahlayotgan odamning xira tasavvuri kabi uyqashib yotibdi, hatto qadamlari ham endi unga bo'ysunmayotgandek chalkashib-chalkashib boryapti.

Avvallari o'zining yorug', oppoq ranglari bilan ko'zni qamashtiruvchi uylarning tuni allaqanday xira, chaplashgan bo'yoq tufayli xunuklashib ketibdi, u yashagan ko'cha esa torayib, negadir juda eskiribdi. Oxiri, keksa haydovchi govmijjadek azob berayotgan o'y-xayollarini bir nuqtaga jamladi-da, o'zi qidirgan uy tomon dadil yurib ketdi. Ana o'sha mardonavor qad tutgan eman daraxtlari, temiryo'l stansiyasigacha ifori uchib kelgan, sanam qizlardek sollanib turgan xushbo'y gullar; ammo baribir nimadir yetishmayotgandek, nimadir yo'qdek yana. Uzoq yo'l charchog'idan yuziga tepchib chiqqan ter tomchilarini asta sidirirarkan, haydovchi ma'yus va parishon alfozda o'zi yashagan xonodon darvozasiga tikilgancha turib qoldi.

Odamzod olis-olislardagina Vatan tuyg'usini teran anglaydimi yoxud inson faqat oldida oqayotgan suvdan nari ketgandagina uning qadriga yetadimi, yoki bo'lmasam, ba'zida yiroq masofalar ko'ngilni ham yaqinlaridan yiroqlashtirib tashlaydimi? Nega yuragim bunchalik xun bo'lyapti, nimani topolmayapman, deya keksa haydovchi o'zini o'zi tinmay qiynar edi. Uzoq-uzoqlardan unga baxt va shodlik ularshgan qadrdon go'shalar nahot yaqin kelganida shunchalik sovib, birdan xunuklashib ketsa? Yoki ularning hammasi shirin tushmidi? Nahot butun umrini

cheksiz ro'yo ichida o'tkazgan bo'lsa? Nahot beba ho tuyg'ularining bari faqat yo'qlikka atalgan bo'lib chiqsa? Nega u endi o'z uyiga yetib kelganida qalbini chigallik, shubha va umidsizlik qyinoqlari egallab oldi?

Shuncha azoblar qurshovida o'z darvozasidan begonadek ichkari hatlarkan, uy tarafga eltuvchi uzun yo'lakcha ustida ham bu iztiroblardan xalos bo'lolmay, zildek boshini eggancha odimlayverdi. Mana, eshik oldiga atiga ikki-uch qadamgina qoldi. Qiziq, nega bu qadar xavotiri ortib boryapti? Nima bo'larkin? Haydovchi qaltiragan barmoqlarini arang qimirlatdi-da, yuragining tobora ko'tarilib borayotgan dupuridan picha o'ng'aysizlanib, eshikni ohista chertdi. Ichkaridan, aftidan, tap-tup qilib kelayotgan qadam tovushi eshitildi, eshik ochildi va qandaydir ayol ostonada paydo bo'ldi.

Afsus va nadomat hislari qop-qora bulutlardek yurakni chulg'adi. Haydovchi ko'zlariga ishonolmasdi, uning qarshisida ilgarilarini unga sog'inch-la uzoq-uzoq qo'l siltab qolgan mehribon ayol emas, allaqanday boshqacha, ko'zları so'niq, yuzları tashvish va uqubatdan qovjirab borayotgan, nigohlarida hech qanday mehr-muhabbatdan asar ham qolmagan mutlaqo begona, butunlay notanish bir ayol turardi. Shu aziz go'shasini tark etib ketayotganida mana shu ayol bilan hozir oyoqlari qadalib turgan xuddi shu ostona mehr, yaqinlik, sevgi va hayajondan kuchli larzaga kelmaganmidi? Axir, ayni shu eshik ortida ularning birga kechirgan qaynoq kunlari, baxtli lahzalari yashamaganmidi? Nihoyat, oxiri yo'q chigal xayollaridan bir necha daqiqalarga chiqib, hayrat va alamdan qotib qolgan tili kalimaga keldi-da, ro'parasida unga batamom befarq va hissiz qarab turgan ayolga o'zining kimligi va nega kelganini tushuntira boshladi. Ammo gapirarkan, haydovchiga o'zining ovozi begonadek, so'zlagan sa-

yin tovushi pasayib, nafasi ichiga tushib ketayotgandek bo'lardi. Uyat, g'urur, gumon, nadomat va begonalik hissi alaloqibat yengib chiqdi, dardchillik haydovchining ruhiyatini to'la mahv etdi. Qancha zo'r bermasin, bari behuda edi. U bir paytlar hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydigan to'lg'in quvonch damlarini xuddi kasaldek shursiz tarzda o'tkazgandek, bedavo darddan hozirgina xalos bo'lgandek ko'zлari ochilib, o'tmishiga hayrat va afsus bilan boqar edi.

Xotini ham endi dovdirab qolgan, eridan ham battar qiyonoqda, dam suyunar, dam esankiragancha uni ichkari-ga taklif qilib, sarosimali ovozda hadeb qizini chaqirgan-chaqirgan edi. Oradan haydovchiga hech hisobi yo'qdek tuyulgan lahzalar birma-bir o'tgach, kichkina xarobroq mehmonxonada, shalog'i chiqib ketgan divan chetida omonat o'tirgan holda hushi o'ziga kelganini idrok etdi. U ming mashaqqat bilan yillar bir holga keltirgan yuziga angraygancha qotib turgan ikkita ayolga gangigan, faromush va aybdorlarcha nazar bilan boqar, to'g'rirog'i, ko'zларини оlib qochar, hammasining nigohi bir joyda hecham to'qnash kelmasdi.

Shu besh-o'n daqiqalik uchrashuvda ham sira gap gapga qovushmadi, duduqlangancha jo'nab ketishini ma'lum qilarkan, keksa haydovchining ko'zлari hech ni-mani ko'rmasdi. Sohibalaridan ham sovuqroq qarab tur-gan uyi devorlariga, darvozasiga va yo'lakchaga xomush termilgancha musofirchilikda sochi oqargan erkak yana iztiroblar yukidan xam bo'lgan boshini eggancha, yana o'z uyini tark etmoqda edi. U shu tobda battar keksayib ketganini his qildi. U hamisha ulkan va dum-dumaloq yerning qachondir otishi muqarrar bo'lgan cho'qmordek toshlariga, og'ir-og'ir zarbalariga tayyor sezardi o'zini, boshiga nimaiki balo yog'ilsayam, o'zini yenga olish-

ga qodir va qahramondek his qilardi, juda kuchli edi, judayam, ammo-lekin ayni shu bugun emas, yaqinlari bilan ko‘zlari to‘qnashgan soniyalarda emas. U shu tobdoda olis masofalar ustida beixtiyor o‘z yaqinlarini qalban yo‘qotib qo‘yganini angladi. Bir vaqtlar unga nur, hayot, qudrat va boqiylik ato etgan sog‘inchli kunlarining endi o‘shanday ko‘rinishda qaytib kelmasligiga ich-ichidan o‘ksinar, ayni damda inson qalbidagi ko‘zyoshining miqdorini tasavvur qilish qanchalik mushkulligidan bat tar azoblanar edi.

*Ingliz tilidan  
Qandilat YUSUPOVA tarjimasi*

---

*Dovud G'oziy BENLI*  
(*Turkiya*)

## BU YILLAR...

– Azizam, buncha shoshmasang. Bugun bo‘lmasa ertaga boramiz, – deb xotinimni niyatidan qaytarmoqchi bo‘laman.

Ammo u oyoq tirab turib olgan.

– Boramiz dedimmi boramiz, tamom.

– Yana ozgina chidagin, yozda Turkiyadan olib kelimiz, uch-to‘rt oy o‘tadi-ketadi. Hozir Farg‘onadan yo‘lga chiq, to‘rt-besh soat mashinada issiqda yo‘l yur, Toshkentdagи allaqaysi do‘kondan o‘zimizdagidan uch baravar qimmatiga Turkiyada ishlab chiqarilgan qozon-tovoqlarni ol... Shular qiynalganingga arziydimi, azizam?

– Arziydi.

Bu xotinning javobi.

Farg‘onada ehtiyojbop hamma narsa bor. Boybichanining maqsadi sayr-u sayohat, sopol tovoq bahona, xolos. Cho‘ntakka pul tushdi deguncha oshxonalarini yangilagisi kelib qoladi... Turkiyada nochor yashagan kunlarimizni esidan chiqargan. Olgan narsalarini rasmga tushirib Internetga qo‘yadi. Turkiyadagi dugonalariga ko‘z-ko‘zlab huzur qildi. Uning nazdida, shu ham baxt.

– Sedat, toqatim toq bo‘ldi, shu shanba yo‘lga chiqamiz. Toshkent degani tupkaning tagida emas-ku axir! – dedi-da, suhbatimizga nuqta qo‘ydi. Tabassum hadya qilishni ham unutmadi. Tan olishim kerak, uning tabassumiga jonioymi fido qilib yuboraman.

Beadad shukr, ishlarimiz ko'ngildagidek. Bu yil Turkiyaga eksport qilgan mayiz va bodomdan tuzukkina foyda qilgandik.

Biz bu zaminga mamlakatlarimiz orasidagi aloqalar qaytadan yaxshilana boshlagan pallada kelgandik. Qattiq ishlab, oyoqqa turdik. Andijonda ishlab chiqarilgan mashinalardan birini sotib oldik. O'shanda ham Yosamin „Illo, xorij avtomobilidan olaylik“, deb holi jonimga qo'yagan edi. Endi esa o'zbek mashinasining shaydos...

Nihoyat, Toshkentga otlandik. Rejamizda haftani Toshkentda yakunlash, sayr qilish, dam olish va o'sha sopol idishlarni xarid qilish...

Yo'ldamiz. Bir mahal xotin gap boshlab qoldi:

– Sayfibeyning xotini Nolon xonimning „Toshkent bozorida nima bor? Yaxshisi, yana ikki soat yursangiz, Chimkentga yetasizlar, ana u yerda ajoyib do'konlar bor. Qarang, biz nimalar oldik!“ – deb maqtanganini va o'zining ham javobini aytdi: – Men Toshkentdan xarid qilaman.

Yoningda suyumli yor bo'lsa, keyin mashina yangi bo'lsa, yo'l ham ravon, tekis ko'rinarshan. Ketyapmiz.

– O'zbekistonda ishlab chiqarilgan paxta gulli chinni tovoqlar, o'zbekona choynak-piyolalar ham chet elnikidan qolishmaydi. Turkiyaga ilk yil qaytganimizda qarindosh-urug' va yaqinlarga shunday piyolalardan sovg'a qilgandik, – dedi ayolim.

– Esimda. Shu gaplarni Nolon xonimga aytmadimi? – so'radim xotinimni ko'proq tinglash ishtiyoyqida.

– Aytdim. Burnini usti terlab ketdi. Menimcha, ichi yondi-yov...

Bahor yomg'iri to'xtab, yoz yaxshigina qizdira boshlagan. Farg'onadan chiqishda yoqilg'i quyish shahobchasiga to'xtab, mashina bakini to'ldirib oldik. O'zbekistonda benzin narxi Turkiyadagidan ancha arzon.

– Yosamin, O'zbekistonda benzin arzonligidan foydalanib, ko'p-ko'p aylanib olaylik, – dedim kulimsirab.

Bunga javoban xotinim jilmayib, qo'shiq qo'ydi. Amal Toshchio'g'li kuylardi:

*„Oh, netay yig 'lamay, g 'urbat elida,  
Uzoqdan ko 'rinur tog 'larim,  
G 'arib qoldim, axir begona yurtda,  
Uyimni sog 'inib yig 'layman“.*

Farg'ona vodiysining barcha go'zalliklarini, yam-yashil tabiatini, sharqirab oquvchi daryolarini, osmonga bo'y cho'zgan tog'larini ortda qoldirib, qo'shiqdan mast bo'lib yo'lning tanobini tortardik. Ora-sira yaqin kunlarda dunyoga keladigan bolamiz haqida ham suhbatlashib olishni unutmadi. Yosaminning qo'lidan tutib qo'shiqqa ham jo'r bo'ldim. Lip-lip etib ortda qolayotgan daraxtlar, yo'l belgilari xuddi bizni poylayotganday zavqimizni keltirardi. Tepaliklar bag'riga ekilgan kungaboqar va bug'doy dalalari ko'nglimizga bir olam zavq ulashardi. Yo'l shu qadar tekis ediki, tiniq yoz havosida go'yo ufqqa tutashib ketgandek ko'rindari.

Ohangarondan o'tgan ham edikki, yo'l chetida mashinasini to'xtatib, qo'l siltab turgan yigitni ko'rdik. Mashinani sekinlatib, issiqdan terga botgan, bir qo'lida dastro'mol tutib, o'tgan-ketgandan madad kutayotgan yigit yoniga yaqinlashdim. To'xtab turgan mashina yangi, qimmatbaho „Jeep“ modellaridan biri edi. „Shundoq mashina qanday qilib buzilishi mumkin?“ deb o'yladim. Va mashinani to'xtatdim. Yigit salomlashgach, meni mashinasi tomon boshladi. Mashinada keksa bir kishi bor edi...

– Otam... – dedi yigit va otasining tobi qochganini, uydan shoshib chiqqanini, benzin olishga ulgurmaganini, aksiga olib telefoni ham uyda qolib ketganini tushintirdi.

Yetarli miqdorda benzin berdim. Yigit xursandligidan bir dasta pul uzatdi: – kerakmas, tezroq haydang, otaxonni shifoxonaga olib boring, – dedim.

Mashinaga o'tirgach, ruhim ancha yengil tortdi. Xotinimning sochini silab qo'ydim: yaxshiyam sen borsan, yaxshiyam shu bugun yo'lga chiqibmiz, yaxshiyam bizlar yetib keldik, yaxshiyam... Men juda uzoq gapirdim. Ayo-lim qo'limni mahkam ushlab oldi. Ikkimiz ham bu yoqimli tasodifning ta'sirida edik...

Toshkentga yetib keldik. Mana, Markaziy Osiyoning eng ko'rkan shaharlaridan biri. Savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat cho'qqisi azim Toshkent. Buyuk ipak yo'lining yuragi, betakror Toshkent.

Har kelganimizda boradigan mehmonxonaga joylashdik...

Bir muddat dam olib bo'lgach, Toshkentning savdo markazlarini Internetdan qidirib, reja tuzdik. Tushdan keyin havo hali hovuridan tushmagan bo'lsa ham, kondisionerli savdo markazlaridan xarid qildik.

Oqshom, qosh qoraya boshlaganda esa yangi ochilgan turk restoraniga bordik. Yosamin xayol qilganidek, mo'lmo'l selfilar jo'rligida oqshom taomini yedik va yarim kechada mehmonxonaga qaytdik.

Yakshanba kuni ertalab mehmonxonadan chiqishimiz kerak edi. Chunki ish bilan bog'liq uchrashuvlarimiz bor edi.

Nihoyat, barcha ishimiz yakuniga yetdi. Yosamin O'rta asrlarga tushib qolgandek, sopol idishlar-u antiqa buyum-larga qarab hayratini yashirolmaydi. Har bir buyumga zavq bilan tikiladi, nimalardir deb uzoq gapiradi. Men ham uning quvonganidan xursandman.

Tushlikdan keyin yo'lga tushdik. Qaydasan, Farg'onajon, deb jo'nadik. Yosaminning quvonchi va o'zimning

ishlarim bilan bo'lib benzin quyishni unitibman. Benzin ko'rsatkichiga qarasam, ahvol chatoq: vodiya yetib borolmaymiz. Cho'ntagimni titkilab ko'rdim: tamom. Ado bo'pmiz. Bir chaqa ham qolmagan. Yosamin orqa o'rindiqda, „yangi do'stlari“ bilan gaplashyapti. Unga bildirib bo'lmas edi. Agar aytgudek bo'lsam... bor quvonchi, tegirmonchining etigiga yopishgan unday uchadi-ketadi. Nima qilish kerak... Nari borsa Ohangaronga yetish mumkin... Nima bo'lsa bo'ldi. Allohga tavakkal... Gazni bosdim... Hozirgi zamonda ko'chada qolib ketish kulgili...

Toshkentga kelayotganda kayfiyatim a'lo edi. Zig'irdek muammo ham ko'ngilni xira qilarkan. Qani endi benzin bakim to'la bo'lsa-yu, ayolim bilan suhbatlashib ketsam... Yaxshiyam ayolim hozir „do'stlari“ bilan band. Agar suhbatlashmoqchi bo'lsa, sezib qolishi aniq. Yo'l chetidagi belgilarni ham, daraxtlar ham kayfiyatimni ko'tarmas, hatto ravon yo'l ham qandaydir notekisdek ko'rinnardi. Nima qilsam ekan... Yo'ldagi biror yoqilg'i quyish shahobchasiga kirib vaziyatni tushuntirsammikin... O'zbeklar bag'rikeng xalq, tushunar, yordam berar... ha, shunday qilaman, tushuntiraman, Farg'onaga borishim bilan pulini taksidan jo'natib yuboraman, deyman. Shunaqa bo'lib qoldi, yordam bering, deyman. Ko'nglim yorishdi. Agar muammo o'nta bo'lsa, uni hal qilishning, albatta, o'n bir yo'li bor.

Ohangaronga yaqinlashganda, yo'l yoqasidagi birinchi shahobchaga burildim...

Shahobchada bitta ham mashina yo'q. Qaytaga yaxshi bo'ldi, odam ko'p bo'lsa, iltimos qilishga uyalasan, yolg'iz bo'lgani yaxshi, deb o'yladim ichimda.

– To'ldiramizmi, akajon? – degan ovozni eshitib bir muddat shashtimdan tushdim, nima deyishni bilmay garangsib qoldim. Yigit savolini yana takrorladi. Mash-

nadan tushib, yigitga yaqinlashib muddaoni aytmoqchi edim, shu chog' operator xonasidagi kalonkadan ovoz yangrab qoldi:

– Bakni to'ldirib ber...

Keyin...

Osmon aylandimi, yer qalqib ketdimi, bilmayman. Bir lahza ichida ming yil yashab qo'ygandek bo'ldim. Menimcha, deb o'yladim, – yigitga iltimos qildim, yigit borib operatorga vaziyatni aytdi, shunda shunaqa ovoz yangradi. Lekin o'ttiz qulochlik joyga bunchalik tez borib kelish mumkinmas-ku...

– Aka, akajon, o'zingizmisiz? Meni taniyapsizmi? – degan ovozdan keyingina o'zimga keldim. Qarshimda... Ha, aynan men yo'lida benzin bergan yigit turar edi... U meni quchoqlab oldi...

– Bilasizmi, kecha otamni kasalxonaga olib bordim. Ko'richagi yorilib ketibdi. „Bir soat kechikkaningda otangni qutqarolmasdik“ – deyishdi do'xtirlar. Ming shukrki, otamni qutqarib qoldik. Shunga peshin namozidan so'ng Allohga so'z berdim: bugun shahobchaga birinchi kirgan mashina bakini bepul to'ldirib beraman. Alloh duomni qabul qildi, – deb yig'lab yubordi... Men esa... menda til yo'q edi...

Yo'lida ketarkanman, bir narsani qalban his qilib, negadir yig'lagim kelardi: Chorasizga Alloh chora topadi...

Yana, ha, yana rafiqamga yaxshiyam sen borsan, yaxshiyam, yaxshiyam... dedim...

Endi yo'llar tekis, poyloqchi yo'l belgilari-yu daraxtlar o'z ishlarini boshlab yuborgandilar...

Turk tilidan  
Ma'rufjon YO'L DOSHEV tarjiması

---

*Gregorio LOPES*  
(Meksika)

## LENCHONING ILTIMOSI

Lenchoning kaftdekkina yeri bo‘lib, unda yolg‘iz o‘zi tirikchilik qilardi. Bu yil jo‘xori, yoniga loviya ekkan edi, hosil durust bo‘ladigan ko‘rinadi. Yomg‘ir quyib bersa qaniydi.

Odatdagi tonglarning birida Lencho – ha, u ekin-tikin nimaligini tushunadigan, o‘ta sodda dehqon – suzib kehayotgan bulutlarga qarab o‘zicha chamaladi:

– Hozir yomg‘ir yog‘adi, xotin, yerimiz bugun suvga qonadi.

– Xudo xohlasa.

Oradan ko‘p o‘tmay, nonushta paytida, Lencho aytganidek, yomg‘ir yirik-yirik tomchilay boshladi.

– Tasavvur qilinglar, bolalarim, – dedi hayajonini yashirolmagan Lencho stol atrofini to‘ldirib o‘tirgan farzandlariga qarata. – Yomg‘ir tomchilari sizlar o‘ylagan-dek suv emas, pullar. Katta, yirik tomchilar o‘n, maydalari besh sentavolik tanga.

Shu payt kutilmaganda kuchli shamol esib, ey Xudo, shu yetmay turgan edi, yomg‘irga qo‘shib do‘l yog‘a boshladi.

– Ha, bunisi endi yomon bo‘ldi, – afsuslanib bosh chayqadi Lencho. – Ishqilib o‘tib ketsin-da!

Lekin shamol va do‘l Lencho aytgandek tezda tina qolmadni. Taxminan, bir soatlar tinimsiz yog‘gan do‘l uy tomini ham, bir parcha ekin dalasini ham rasvo qildi.

Shamol tinib, yomg'ir to'xtaganda kayfiyati tushib ketgan Lencho bolalariga qarab sekin so'zlay boshladи:

— Do'l bizga hech narsa qoldirmadi. Barcha mehnatimizni yo'qqa chiqardi. Bu yil endi och qolishimiz aniq...

Yakshanba kuni Lencho hech bir ish qilmadi, kung'yi o'tirib xat yozdi va shu kuniyoq uni qishloq markazidagi pochtaga olib borib tashladи.

Bu, shunchaki, Xudoga yozilgan xat edi, xolos...

„*Parvardigorm*, — deb boshlanardi xat, — agar menga yordam bermasang, bu yil butun oilam bilan och qolaman; menga urug'lik sotib olish, hosilni yig'ib olgunimiga qadar tirikchilik uchun yuz peso kerak. Sababi, bu yilgi hosil do'l ostida qolib...“

Xat yuboriladigan manzilga „Xudoga“ deb imzo chekkан Lencho g'oyat tashvishli qiyofada qishloqqa yo'l oldi. Pochta idorasidan marka sotib olib xatga yopishtirdi-yu, darhol qutiga tashladи...

...Xat tashuvchi boshlig'inining xonasiga kirib kelar ekan, o'zini kulgidan to'xtatolmasdi. U qo'lidagi antiqa — Xudoga yozilgan xatni rahbariga tutqazdi.

Xodimi bilan miriqib kulgan qishloq pochta idorasi boshlig'ida to'satdan xatga javob yozish istagi tug'ilди. Xatni o'qib chiqqach, faqat quruq so'zlar bilangina javob xati yo'llash kamlik qilishini anglab yetdi. Shundan so'ng barcha xodimlaridan pul yig'di, o'z maoshining bir qismini ajratdi, kamiga boshqalardan ham yordam so'radi.

Lekin baribir Lencho so'ragan yuz pesoni to'plashning iloji bo'lmasdi va dehqonga yig'ilgan ellik pesodan sal ko'proq mablag'ni jo'natishga ahd qildi.

Pullarni obdan taxlab xatjilda joylagan boshliq unga qo'shimcha xat ham ilova qildi. Unda faqat birgina so'z yozilgandi: „Xudodan“.

Kelasi yakshanba kuni Lencho xat bor-yo'qligini so'rash uchun pochtaga juda barvaqt keldi. Idorada dehqonning xatini olib o'qigan xodim kutib o'tirar, boshliq esa o'z xonasi derazasidan bu hangoma nima bilan tugashini o'ylab, kulimsiragan ko'yi voqealarni kuzatib turardi.

Xat kelganini bilgan Lencho bundan zarracha ham ajablanmadi, chunki u Xudo maktubni javobsiz qoldirmasligiga qattiq ishonar edi. Lekin xatni ohib pulni sanab ko'rgach, kayfiyati tushib ketdi... Axir, Xudo adashishi mumkin emas-ku!.. Lencho xodimning yoniga borib, undan qog'oz va qalam so'rab oldi. So'ng stolga o'tirib xat yoza boshladi. Pochtadan yangi xatjild va marka sotib olib, xatni yaxshilab joyladi-da, sekin borib qutiga tashladi.

Dehqon pochtadan chiqishi bilanoq idora rahbari qu-tining yoniga yugurib keldi, hozirgina tashlangan, yelimi hali qurib ulgurmagan xatni ochdi-yu, o'qiy boshladi. Unda shunday deyilgandi: „*Yaratgan egam, marhamating uchun qulluq. Ammo menga yuborgan pulingning oltmishe pesodan kamrog'i yetib keldi, xolos. Iltimos, qolganini ham jo 'natsang, chunki har bir peso mengajudayam zarur. Lekin ularni pochta orqali yubormasang yaxshi bo'lardi, chunki pochta idorasini xo'jayini, ishchilari o'lgudek ziqna, ochko'z va aldoqchi odamlar. Lencho.*“

*Ispan tilidan  
Jamshid MATYOQUBOV tarjimasি*

---

**Aziz NESIN**  
*(Turkiya)*

## **AGAR...**

**Qadrlı do'stim Bahri Filfil!**

Maktub yo'llab meni eslaganing uchun sendan minnatdorman. Ushbu senga, pochtada yo'qolib qolmasa, yo'llayotgan maktubim agar senzuradan o'tsa, agar xat tashuvchi manzilingni to'g'ri o'qiy olsa, agar yashayotgan uying musodara qilinmasa yoki xo'jayin seni uydan haydab chiqarmasa, umid qilamanki, albatta, senga yetib boradi.

**Azizim Bahri Filfil!**

Maktubingda qachon uylanishim haqida so'rabsan. Agar qaylig'im ish topa olsa, agar xo'jayin unga tegajoqlik qilganida o'jarlik qilgani uchun ishdan haydab yubormasa, agar maoshimizga loyiq kvartira topolsak, agar ba'zi zarur mebellarni xarid qilolsak, agar bosh ministrimiz va'da qilgan iqtisodiy yuksalish ro'y berib, esimni taniganimdan beri gapiriladigan turmush darajamiz yaxshilanib, maoshim oshsa, agar o'n yildan buyon uylanishimni kutayotgan qaylig'imning sabr-toqati tugamasa, agar meni ta'qib ostiga olishmasa, uzoqroqqa badarg'a qilishmasa, ishdan haydashmasa, yaqin kunlarda, albatta, uylanaman.

**Sevikli Bahri Filfil!**

Maktubiningda Sayfi xolamning sog'lig'ini so'rabsan. Agar u yettinchi doktori tavsiya qilgan dorini topa olsa, agar kasalxonada bo'sh joy bo'lib, uni operatsiya qilish-

sa, agar u operatsiyadan tirik chiqsa, agar u batamom sog‘ayib ketishi uchun Yevropaga borib davolanishga pul topolsa, agar u tushgan kema cho‘kib, yonib ketmasa, boshqa mamlakatga qochmasa, musodara qilinmasa, agar bojxonadan o‘tganda xolamizning sog‘ligi yanada og‘irlashmasa yoki uning jomadonidan eriga sovg‘a uchun olgan galstukni topishib, kontrabandada ayplashib, qamab qo‘yishmasa, agar u bularning hammasiga bardosh berib tirik qolsa, tez kunlarda, albatta, sog‘ayib ketadi.

### Qadrdomim Bahri Filfil!

Maktubingda komandamizning bu mavsumdagi ahvoli bilan qiziqibsan. Agar o‘yin paytida komandamiz darvozasi kichrayib qolsa, agar o‘yinchilarimiz ko‘zini quyosh qamashtirmasa, agar raqib darvozasi tomon kuchli shamol tursa, agar muxlislar tinimsiz qiyqirib, raqib komanda o‘yinchilarining o‘takasini yorishsa, agar ularga so‘ta va temir kosov, shisha otib, birortasini mayib qilishsa, agar har bir uchrashuv oldidan o‘yinchilarimiz aziz avliyolarning qadamjolarini ziyyarat qilib, bundan quvvat olsa, komandamiz, albatta, champion bo‘ladi.

Maktubingda hol-ahvolimiz bilan qiziqibsan. Agar yomg‘irdan so‘ng radio, telefonlar buzilmasa, gaz berkilib qolmasa, agar elektr o‘chib, suv quvurlari yorilib, transport izdan chiqmasa, agar buning kasofatidan nonning narxi ko‘tarilmasa, turmushimiz juda farovon bo‘lishi aniq.

Sen yana amakimning ishlari bilan qiziqibsan. Agar amakim Anqaraga eson-omon yetib borib, pora, tanishbilish va qing‘ir yo‘llar bilan ishini ijobiy hal etsa, agar maktabdan o‘rtog‘i unga tavsiyanoma bersa, agar ana shu tavsiyaga ko‘ra bankdan qarz olib, savdo do‘koniga ochganidan keyin aqldan ozib qolmasa, yaqin kunlar ichida uning ishlari ham, albatta, yurishib ketadi.

### Qimmatli Bahri Filfil!

Sen yana kichkina Jengizning o‘qishini so‘rabsan. Agar ularning sinfida bu yil ham o‘tgan yildagiday to‘qsonta bola o‘qimasa, agar mashg‘ulotlar uch smenada o‘tmasa, agar darslar o‘qituvchi yetishmasligidan yo‘qqa chiqmasa, agar qayta imtihon topshirish yoki yomon baholar bilan sinfdan sinfga ko‘chishga ruxsat bo‘lsa, yoki ministrlik buning uchun yana imtiyozlar joriy qilsa, bolakayning o‘qishi joyida bo‘ladi.

### Og‘aynim Bahri Filfil!

Iltimos qilgan narsangni surishtirib, aniqladim. Menga aytishdiki, agar tepakallarning boshidan jingalak soch o‘sib chiqsa, ho‘kizlar majnuntol shoxlariga uya qo‘ysa, agar qora tanlilar oq tanliga aylansa, agar quyoshning yuziga loy chaplansa, agar mushuklar kir yuvsa, agar os-monga narvon bilan chiqishsa, agar tuyaning dumি yerga tegsa, sening iltimosing qondirilar ekan.

Qadrdonim Bahri Filfil, javobingga mushtoq bo‘lib, seni quchib qolaman.

*Turk tilidan  
Mehmon ISLOMQULOV tarjimasi*

## MUNDARIJA

Nashriyotdan .....	3
<b>Vasiliy Shukshin.</b> Grinka Malyugin	
<i>Shodmon Otabek tarjimasi</i> .....	5
<b>Oldos Xaksli.</b> Pushtirang upa	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> .....	18
<b>Ryunoske Akutagava.</b> Tashlandiq bola	
<i>Rus tilidan Abdurahim Pardayev tarjimasi</i> .....	21
<b>Yuriy Nagibin.</b> Shohchorbog' tongi	
<i>Rus tilidan Xayriddin Sultonov tarjimasi</i> .....	28
<b>Sidoni Gabriel Kollet.</b> Ikki kishilik stol	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> .....	45
<b>Elif Shafaq.</b> Xonimlar kuni	
<i>Turk tilidan Mirzohid Muzaffar tarjimasi</i> .....	51
<b>Varlam Shalamov.</b> Non	
<i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> .....	55
<b>Laslo Byoti.</b> Iqror	
<i>Rus tilidan Olim Otaxon tarjimasi</i> .....	63
<b>Oktav Mirbo.</b> O'limdan keyingi o'lim	
<i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i> .....	73
<b>Yashar Kamol.</b> Xanjar	
<i>Turk tilidan Maryam Osiyo tarjimasi</i> .....	79
<b>Xuan Rulfo.</b> Chunki bizlar qashshoqmiz	
<i>Ingliz tilidan Feruzbek Ziyodullayev tarjimasi</i> .....	83

<b>Nikolay Xaytov.</b> To'y	
<i>Jo 'ra Mahmud tarjimasi .....</i>	87
<b>Vasiliy Shukshin.</b> Judolik	
<i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi .....</i>	96
<b>Uilyam Saroyan.</b> Urush	
<i>Rus tilidan Alisher Fayzullayev tarjimasi.....</i>	104
<b>Gabriel Garsia Markes.</b> Kunlarning birida	
<i>Ingliz tilidan Sherzod Komil Xalil tarjimasi .....</i>	109
<b>Anton Pavlovich Chexov.</b> Savdogar	
<i>Rus tilidan Shahzoda Hakimova tarjimasi.....</i>	113
<b>Ivo Andrich.</b> Bayron Sintra sohilida	
<i>Rus tilidan Abdurahim Pardayev tarjimasi .....</i>	119
<b>Roziya Tujjor.</b> Yana bir yulduzning botishi	
<i>Fors tilidan Shokirjon Olimov tarjimasi.....</i>	124
<b>Yuxan Falkberget.</b> Qismat	
<i>Rus tilidan Abdurahim Pardayev tarjimasi .....</i>	131
<b>Tomas Vulf.</b> Olis va yaqin	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi .....</i>	137
<b>Dovud G'oziy Benli.</b> Bu yillar...	
<i>Turk tilidan Ma'rufjon Yo'ldoshev tarjimasi .....</i>	145
<b>Gregorio Lopes.</b> Lenchoning iltimosi	
<i>Ispan tilidan Jamshid Matyoqubov tarjimasi .....</i>	151
<b>Aziz Nesin.</b> Agar...	
<i>Turk tilidan Mehmon Islomqulov tarjimasi.....</i>	154

*Adabiy-badiiy nashr*

**YURIY NAGIBIN**

# **SHOHCHORBOG‘ TONGI**

*Hikoyalar to‘plami*

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir

*Oybek Xaydarov*

Badiiy muharrir

*Maftuna Vahobova*

Musahhih

*Gulandom Umarova*

Sahifalovchi

*Umar Qodirov*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
25.04.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ .  
Offset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 92–20.  
Buyurtma raqami 382-20.

„Ziyo nashr“

Mas‘uliyati cheklangan jamiyat

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ

Kitob fabrikasida chop etildi

Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01/05

[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

N 15      **Nagibin, Yurij.**  
              **Shohchorbog' tongi.** [Matn]: hikoyalari / Y. Nagibin; tarjimonlar:  
X. Sultonov va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.  
ISBN 978-9943-6342-9-9

**UO‘K: 821.161.1-31  
KBK 84(2Ros)**